

SOIBJON  
BEGMATOV



MUMTOZ MUSIQA  
IJRO USLUBLARI


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI  
O'ZBEK MILLIY MAQOM SAN'ATI MARKAZI  
Yunus RAJABIY nomidagi O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATI  
INSTITUTI

SOIBJON BEGMATOV

## MUMTOZ MUSIQA IJRO USLUBLARI

Farg'on-a-Toshkent ijrochilik maktabi namoyandalari amaliyotida

(monografiya)

Yazilar asosiyasini torashchi va  
nazoratishchi kafedrasi  
Keyvanigzhan Z. 11.23  


Toshkent – 2023

**UO'K 781.7**

**KBK 65 (40')**

**B 45**

Begmatov, Soibjon.

Mumtoz musiqa ijro uslublari [monografiya] / S. Begmatov .-Toshkent: "Miron-art-design", 2023.-208 b.

*O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi "Ilmiy-metodik jamoatchilik respublika kengashi (Musiqa yo'nalishi)."ning 2023 yil "30" may № 5 - sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan*

**Muallif:**

**Soibjon Begmatov**

**Mas'ul muharrir:** San'atshunoslik fanlari doktori, professor

**Rustambek Abdullayev**

**Taqrizchilar:** Yu.Rajabiy nomidagi O'MMSI, "An'anaviy ijrochilik" kafedrasi professori

**Rifatilla Qosimov**

O'zbekiston xalq hofizi Isroiljon Vahobov

Annotatsiya: Ushbu ilmiy-amaliy monografiya mumtoz musiqa ijro amaliyotida shakllangan ijrochilik uslublari mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, Farg'ona-Toshkent ijrochilik maktabi namoyandalari Sodirxon Hofiz, Jo'raxon Sultonov va Rasul qori Mamadaliyevlarning ijrochilik an'analari asosida yoritilgan. Monografiya mumtoz musiqa ijrochilik amaliyoti bo'yicha oliy ta'lim muassasalari talabalari va o'qituvchilari xonandalik ijro uslubiyoti hamda ixtisoslik fanlarida qo'llanma sifatida, mumtoz musiqa va maqom ijrochilik masalalari bilan shug'ullanayotgan ilmiy tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarda foydalanishlari mumkin.

Аннотация: Данная научно-практическая монография посвящена методологии исполнительской традиции, сформированной в исполнительской практике традиционной музыки. В ней освещаются исполнительские методы выдающихся представителей Фергано-Ташкентской исполнительской школы Содирхона Хафиза, Журахона Султанова и Расул кори Мамадалиева. Монография может послужить в качестве учебного пособия по методике традиционного пения и профильным дисциплинам студентам и преподавателям высших учебных заведений по исполнительской практике традиционной музыки, а также для научных исследований посвященным вопросам изучения традиционной музыки и макомного исполнительства.

Annotation: This scientific and practical monograph is devoted to the methodology of the performing tradition, formed in the performing practice of the traditional music. It highlights the performing methods of the outstanding representatives of the Ferghana – Tashkent performing schools Sodirhon Khafiz, Zhurakhon Sultonov and Rasul Kori Mamadaliyev. The monograph can serve as a textbook on the methods of traditional singing and specialized disciplines for students and teachers og higher educational intstitutions on the performing practice of traditional music, as well as for scientific research on the study of traditional music and maqam performance.

ISBN: 978-9943-5607-5-8

© Soibjon Begmatov, 2023  
© "Miron-Art-Design". 2023

## MUALLIFDAN

Sharq xalqlari musiqa madaniyati azaldan o‘zining buyukligi hamda betakror ulkan milliy ma’naviy meroslari bilan umumbashariyat ma’naviyati dunyosida alohida ahamiyat kasb etib kelgan. Al-Xorazmiy, Al-Farobi, Abu Ali ibn Sino, Al-Kindiy, Safiuddin al-Urmaviy, ash-Sheroziy, Abdulqodir Marog‘iy, al-Husayniy, Najmiddin Kavkabiy, Abdurahmon Jomiy, Darvesh Ali Changiy kabi allomalar qoldirgan ilmiy-nazariy meros bunga yorqin misoldir. Zero, ular yaratgan musiqiy risolalar Sharq musiqa tarixi, nazariyasi va amaliy jarayonlarini o‘rganishda asosiy manbalar sifatida xizmat qilishi begumondir. Shu bois ham Sharq allomalarining ilmiy merosini o‘rganish, tadqiq etish doimo musiqiy sharqshunosligining asosiy vazifalaridan bo‘lib kelgan. Oxirgi 50-60 yil mobaynida umumjahon, mintaqaviy va hududiy miqyosida o‘tkazilib kelinayotgan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlar<sup>1</sup> buning yorqin guvohidir. Oxirgi yillarda “Buxoro va Jahon madaniyati” (1993. 1994 y.) va “Turk xalqlari musiqasi” (Olma-ota 1994 y.), 1997 yildan “Sharq taronalari” musiqa festivali doirasida muntazam o‘tkazib kelinayotgan ilmiy konferensiyalar, 2018 yildan Maqom san’ati anjumanı, Baxshichilik san’ati, Lazgi kabi bir qator Xalqaro ilmiy anjumanlarning o‘tkazilishi ushbu mavzuning yanada muhimligidan dalolat beradi.

<sup>1</sup> XMS VII Kongress; Moskva 1971 y; III Osiyo Mamlakatlari Xalqaro Minbari, Olma-Ota 1973 y; I-XMS, Samarqand 1978 y; II –XMS, Samarqand 1983 y; III –XMS, Samarqand 1988 y; Respublikalar aro ilmiy-nazariy Anjuman. Toshkent 1975 y; BM Simpoziumi, Xiva 1980 y; XMS “Borbad – 1400 f”, Dushanbe, 1990 y. va b...

O'tkazilgan anjumanlar shuni ko'rsatadiki, boy badiiy va estetik imkoniyatlarga ega, serko'lam jozibali ijrolarga boy bo'lган xalqimizning mumtoz musiqa merosi zamonaviy jahon musiqa madaniyatida o'zining nufuziga ega. Qolaversa ma'naviy mezon rivojida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bu albatta o'z o'mida azaliy an'analarimizni, xalqimiz tomonidan avaylab-asrab kelayotgan betakror qadriyatlarimizni qaytadan tiklashimizga, badiiy va musiqiy merosimizni har tomonlama o'rganishimizga ulkan imkoniyatlar yaratadi.

Ma'lumki, musiqa san'atining asosiy omillaridan bo'l mish *ijrochilik* an'analarini, musiqiy merosning avlodlardan – avlodlarga o'tib kelishiga xizmat qiladi. Bu albatta ota-bobolar amaliyotida shakllanib, rivojlangan bebahoh an'analarining saqlanishida va zamon talabi doirasida yangicha badiiy mazmun kasb etishida jonli jarayon sifatida xizmat qilib kelayotganligi ayni haqiqatdir.

Ushbu jarayon ko'p asrlar dovomida o'tmish ajdodlarimiz ma'naviy dunyosini ohanglar orqali in'ikos etib kelayotgan musiqiy merosimiz namunalarining asosiy mohiyatini ifoda etishdagi muhim mezon bo'lib xizmat qilib kelgan. Chunki musiqiy meros, og'zaki an'ana tarzida ijod etish, o'rganish va ijro etish orqali o'tmishdan hozirgi davrimizgacha yetib kelgan. Albata, ijrochilik an'analarini o'zining ravnaqi jarayonida davr talabi va yashash sharoitlariga moslanadi. O'zgacha qilib aytganda ijrochilik amaliyoti o'zining qonuniyatlarini shakllantiradi, ular har tomonlama davr taraqqiyoti va rivojiga o'zining ijodiy va ijobiy ta'sirini ko'rsatishga qodirligini namoyon etadi.

Ushbu monografiya ijrochilik san'atini amaliy asosda o'rGANIB, ilmiy-nazariy nuqtai nazardan taddiq etish jarayonida amalga oshirilgan urinishlardan biridir. Unda mumtoz musiqa jrochilik xususiyatlari, asosan xonandalik san'ati bilan bog'liq jihatlarni Farg'ona vodiysi hofizlik an'analarini negizida o'rganish ko'zda tutilgan. Mumtoz musiqamizning azaliy an'analarini, ustozlarimiz qoldirgan ijro maktablarini ibratli jihatlarini tadqiq etib, kelajak avlodlarga xalqimizning betakror hofizlik san'ati, ijrochilik an'analarini yetkazishdan iboratdir.

Farg'ona-Toshkent mumtoz musiqa ijrochilik uslublarini ilmiy-nazariy tadqiq etishda, farg'ona vodiysi mohir va ustoz san'atkorlarining qimmatli ma'lumotlari, rang-barang ijrolari va ijro talqini masalalaridagi maslahatlariga tayanildi. Monografiyaning nashr etilishida ma'naviy ko'maklari uchun ustoz san'atkorlarga, xomiylik sifatida ko'rsatgan moddiy yordamlari uchun "O'zavtosanoat" AJga samimiyy minnatdorchilik bildiraman.

## KIRISH

Ijrochilik - musiqa san'atining jonli jarayoni. Ijodiyotning har tomonlama ta'minlashiga asos bo'ladigan, ilhom baxsh etadigan va albatta rivojlantiradigan omildir. Shu bois, bu jarayon xalqona hamda mumtoz, ya'ni bevosita ustozonalik(professional) xususiyat kasb etuvchi mezonlar qoidalari asosida shakllanib, rivojlanib kelgan. Tabiiyki, musiqiy merosning ustozona, ya'ni mumtoz namunalarini ijod etish va talqin etish jarayonida ohang va shakl jihatidan turli ko'rinishlarga ega bo'lgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Oqibatda an'anaviy ijrochilik oqimida asarlarning badiiy talqini bilan bog'liq xilma-xil ijroviy uslub va maktebalarini vujudga kelgan bo'lib, davrlar osha musiqiy amaliyotda evrilishlarni boshidan kechirib, muayyan uslubda shakllanib, o'zining munosib o'rnini egallab kelgan. Ushbu jarayonda ijrochilik shakllarining rang-barangligi musiqa ijodiyotiga ham bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunonchi, musiqiy merosni o'rganish davomida uning tarixiy o'rni, tarkibiy tuzilish jihatlari, ijrochilik va targ'ibot jahbalariga qiziqish tobora avj olmoqda. Bu borada musiqa san'ati taddiqotchilarining diqqat markazida turgan muammolardan biri bu – albatta musiqa san'atining **ijrochilik** omillaridir.

Mumtoz musiqa tarkibidan o'rin olgan katta ashula, suvora, doston, maqom va maqom yo'llarining ijrochilik an'analari xalq mumtoz musiqa ijodiyotida azaldan shakllanib, ma'lum ko'rinishlarda va muayyan ijroviy uslublariga assoslangan holda davrlar osha rivojlanib kelgan. Amaliyotda charxlanib ijrochilar orasida an'anaga

aylanishga ulgurgan ijrochilik uslublari ma'lum ijro omillari asosida va janrlik darajasida yuzaga kelgan. Ularning har biri o'ziga xos janrlik talablari doirasidagi tarkib, talqin bilan xarakterlanuvchi qonuniyatlarni o'zida mujassam etadi. Shu narsa ayonki, ijrochilik amaliyotida nafaqat maqom yoki dostonchilik, balki maqom yo'llari asosida vujudga kelgan turli janrlarga xos bo'lgan namunalarni talqin etish uslublari shakllangan. Shu bilan birga, ayni vaqtida vohaviy xususiyatlarini yorqin namoyon etadigan ijro uslublarini ham alohida ko'rsatib o'tish lozimdir.

Maqomlarni amaliy o'zlashtirish, targ'ibot etish va yangi namunalarni yaratishda bilimli ijrochilik mezoni muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Mazkur jarayon, mumtoz musiqa merosining amaliyotda mavjud shakllariga tayanib qolmasdan, balki mumtoz ijrochilik an'analarini o'zida jamlagan beqiyos, yangi-yangi namunalarini yuzaga chiqarishi bilan ham xarakterlanadi. Shu sababliki, "musiqashunoslik va tarmoqlari – musiqiy sharqshunoslik, maqomshunoslik va musiqiy manbashunoslik ilmi kasbiy musiqa turlarini atroflicha o'rganish va birinchi galda, musiqiy qonuniyatlar kesimida tadqiq etishga katta e'tibor beradi"<sup>2</sup>

Mumtoz musiqa san'atining sozandalik va xonandalik sohalaridagi ijrochilik masalalari, hanuzgacha milliy musiqashunosligimizning ilmiy-nazariy tomonlama tadqiq etishga molik va muhtoj tarmoqlaridan biridir. Bu borada - "...hozirgi kunda qo'shiqlardan-kuylarga, bir bastakor yoki kompozitoridan – ikkinchisiga ko'chib yurgan "ommaviy" ohang usullar izchil tadqiq

---

<sup>2</sup> Музыка народов Азии и Африки. Вып III. М., "Сов.комп." 1980. 4 с.

etilayaptiyu, ularga jon ato etgan, XX asrdagi musiqiy tafakkurimizga karvonboshilik qilganlar xizmati o'rganilmay qolayotganligi – ne achinarli hol...”<sup>3</sup> deb, o‘z tadqiqotlarida qayta-qayta bu masalaga o‘zini fikrini bildirgan musiqashunos olim T.G‘ofurbekovning qarashlari qanchalar to‘g‘ri ekanligi va bu soha jiddiy munosabatlarga muhtojligini ko‘rsatadi.

“I j r o ch i l i k” - musiqa san’atini eng muhim jabhalaridan bo‘lib, sozandalik, xonandalik, raqs kabi bir qator yo‘nalishlar asosidagi tarkib sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon tarixiy mezonda ham musiqashunoslilik an’analarida ham juda kam uchrashini e’tirof etish lozim. Zotan, bu jarayon o‘zining mukammal va murakkab omillarni talab qilishi begumondir. Chunki, hozirgi kunda ham, mumtoz musiqa ijrochiligining amaliy jarayonini o‘rganish, ilmiy va nazariy tadqiq etish, ularning o‘ziga mos talqin an’analarini, ichki xususiyatlarning alohida-alohida yoritish musiqashunos olimlarning oldida turgan dolzarb masalalaridan biri ekanligi sir emas. Bu albatta, musiqa san’atining ajralmas va yetakchi jabhalaridan biri bo‘lgan ijrochilik san’ati (xususan xonandalik)ning o‘zini ichki qonuniyatları, zamon va makon, muhit va imkon kabi mezonlar, ya’ni shakllanish va ravnaqini amaliy jarayonda ko‘rish, his etish, kuzatish, idroklash kabi musiqiy an’analarimizni to‘g‘ri tasavvur qilishda muhim omil hisoblanadi.

Musiqa shuningda sohasida bir qator olimlar o‘z ilmiy tadqiqotlarida ushbu muammoning ayrim yo‘nalishlariga qisman bo‘lsada murojaat etishgan. Musiqashunos olimlarning ijrochilik

---

<sup>3</sup> Rajabiyyonlik. T., 1994 y. 8 s.

muammolariga oid ilmiy fikrlari tegishli jabhalarda tadqiqotlar dovomida muayyan yo‘nalishlarni ifodalash uchun uslubiy ahamiyat kasb etishi muqarrar. Bu borada biz Yunus Rajabiy, Ishoq Rajabov, Ilyos Akbarov, Fayzulla Karamatov, To‘xtasin G‘ofurbekov, Otanazar Matyoqubov, Rustambek Abdullayev, Asliddin Nizomov, Ravshan Yunusov, Oqilxon Ibrohimov, Abduvali Abdurashidov kabi musiqashunos olimlarimiz-ning asarlarini mammuniyat bilan eslab o‘tamiz. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ushbu tadqiqotlar musiqa ijrochiligi amaliyotida yuzaga kelgan o‘ziga xos an’alarini va alohida ahamiyatga molik bo‘lgan xususiyatlarini anglashga to‘la-to‘kis imkon yaratmasada, badiiy an’alarining ma’lum darajada tasavvur etish va ilmiy izlanish uchun, uslub, yo‘nalish, asoslanish ma’nolarida tadqiqotchi uchun muhim ahamiyat kasb etishi muqarrardir.

Mumtoz musiqa ijrochilik masalalari, ushbu sohaning asoslari va amaliyotda qo‘llanilib kelinayotgan an’alarini, ijro mezonlari, tarkib va xususiyatlar va eng muhimi sifat darajalari muayyan ilmiy – amaliy tadqiqotlar asosida o‘rganilmaganligini e’tirof etish o‘rinlidir. Lekin bu jarayon, merosni o‘rganish, uning ta’limi hamda zamon talabi doirasiga xos rivojlanish mezonlariga o‘ziga xos ta’sir etishi muqarrardir. Va bu zamon taraqqiyoti negizida ijrochilik an’alarining mutanosib jihatlari bilan sug‘orilishida o‘zini namoyon etadi. Shu bois bo‘lsa kerak ijrochilik an’alarini amaliyot mezonining tanlangan uslublari negizida avlodlardan - avlodlarga o‘tib kelgan. Ayniqsa, professional musiqa ijodiyotining turli ijro yo‘nalishlariga ijobiy turtki bo‘lganligini e’tirof etish mumkin.

Shu bois, mazkur monografiya orqali mumtoz musiqa merosimizning bevosita ijrochilik xususiyatlarini, xususan uning tarkibiy jahbalaridan bo‘lmish xonandalik san’atini Farg‘ona vodiysi hofizlik an’analari negizida o‘rganish, ilmiy tadqiq etish asosiy maqsadimiz hisoblanadi. Oldimizga qo‘yilgan asosiy vazifa hofiz va hofizlik san’ati, ijrochilik an’analarining ijro amaliyoti jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi xususiyatlarni yoritishdan iboratdir. Masalani keng qamrovli o‘rganish negizida esa anglashiladiki, o‘rganiladigan masalalar, hofizlik san’atining ijro talqini bilan bog‘liq bo‘lgan an’analar, mumtoz ijrochilik masalalarining badiiy – estetik va amaliy mohiyatini anglashga imkon yaratadi.

Mumtoz musiqa merosimizning betakror ijrochilik mezonini hofizlik san’atining mahsuli deb bilishimiz bizni aynan ushbu ibora bilan bog‘liq barcha xususiyatlarni o‘rganishga asos bo‘ldi. Maqsadga erishish jarayoni esa, “H o f i z” iborasining lug‘aviy – etimalogik mazmuni, hofizlik san’atining tarixiy shakllanish jarayoni, estetik mohiyatini nazariy va amaliy jihatlardan shubhasiz dalillar misolida ko‘rsatib berishni taqozo etadi. Ayni vaqtida hofizlik san’ati sohasida faoliyat ko‘rsatgan namoyandalarning ijro uslublarini ilmiy yoritish maqsadga muvofiqlik. Buning uchun bir qator omillar ijodiyotida qayd etilgan va ushbu masalaga aloqador bo‘lgan jihatlarni atroficha o‘rganish va tadqiq etish lozim deb bildik. Xususan:

a) ”Hofiz” atamasining istilohiy mazmunini tushuntirish, o‘tmishdan shu atama timsolida amaliy faoliyat ko‘rsatgan san’at namoyandalarini zikr etish;

b) "H o f i z l i k" ning kasb sifatida tarixiy shakllanish jarayonini izchil kuzatish va amaliy jihatdan taqozo etilgan "hofizlik talablari"ni izohlash;

v) Hofizlik amaliyotida "i j r o c h i l i k s a n ' a t i"ni egallash, o'zlashtirish jarayonini tasavvuf estetikasining "daraja va bosqichlar" tizimi asosida bayon etish<sup>4</sup>;

g) Mumtoz musiqa merosi "i j r o c h i l i k m e z o n l a r i"ni ularning ichki xususiyatlari, ijrochilik saviyasi, ijro mohiyati va ijro tarkibi bilan bog'lik muammolar negizida ochib berish;

d) Ijrochilikning sun'iy va tabiiy tomonlarini aks ettiradigan omillar, ovoz xususiyatlari (tabiiy va sun'iy) va fal'set ijro uslubining hofizlikdagi o'rmini aniqlash;

e) Vohalarda mavjud ijrochilik maktablari tasnifi va ularning o'ziga xos tomonlarini aniqlashda Shashmaqom (Buxoro) ijrochiligi asosida qiyosiy yondoshish, saboq (ustoz-shogird) davrini izohlash;

j) Farg'ona vodiysi hofizlik an'analari xususiyatlarini XIX asrning II-yarmi va XX asrda yashab ijod etgan, amaliyotda shaxsiy ijro talqiniga erishgan uch xonandalik maktab asoschilar – zabardast hofizlar Sodirxon hofiz (Bobosharifov), Jo'raxon Sultonov va Rasul qori Mamadaliyevlar ijro uslubi misolida ko'rsatib berish.

Oldimizga qo'yilgan masalalarning bir-biriga bog'liq tarzda, o'zaro to'ldirish asnosida yechim topishi muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>4</sup> Bizning nazarimizda hofizlik san'ati bevosita tasavvuf estetikasi bilan chambar-chas bog'liqidir. Shu bois ijrochilik amaliyoti ham uning asosiy mezonlari doirasida qaror topishi muqarrar. Buni bevosita amaliyot bilan bog'liq jihatlarini qiyoslagan holda o'rganib chiqish o'rinnlidir.

Mavzuni tadqiq etish jarayonida I.Rajabov, F.Karomatov, Y.Kats, Y.Kon, D.Mulloqandov, O.Ibrohimov kabi musiqashunos olimlarning ilmiy tadqiqotlari, umumnazariy mulohazalaridan foydalanildi. Har bir (shaxsiy va voha) ijro uslublar (ijrochilik makteblari)ning xarakterli tomonlarini ochib berishda, ashula ijrochiligi va hofizlik san'atiga xos bo'lgan omillar asos qilib olindi. Ularni mukammalroq tadqiq etish maqsadida, maktab namoyandalarining talqin jarayonidagi ovoz harakatlarini ohang sayqalisiz ifoda etiluvchi maxsus mutanosib shakllari (chizmalari) tuzilib, ulardan keng fodalanildi.

Asosiy maqsad ijro an'analarini to'la-to'kis anglash va tasavvur etishdir. Foydalanilgan bu vosita musiqiy namunalarining quyidagi zarur bo'lgan jihatlarni aniq tasavvur etib ko'rish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini yaratib beradi. Jumladan:

- tovushqator;
- tuzuk jihatlari;
- ovoz harakatlari;
- nafasdan foydalanish tartiblari, qoidalari va xarakterli jihatlari;
- ijro uslublarini qo'llash;
- asarlarning tarkibiy tuzilishi;
- dinamik rivoji kabi ijrochilik talqinlarini belgilovchi bir qator omillarini kuzatishga imkon beradi. Xullas ushbu vosita asosida va umumiyo ko'rinishida ijrochining uslubiy xususiyatlari aks etuvchi barcha jihatlar tovush grafikasi ko'rinishida o'z aksini topgan.

Mumtoz musiqa namunalari darhaqiqat o‘zining shaklu-shamoili bilan maqomlar tarkibiy tuzilishlariga hamohangligi, ustozlar tomonidan e’tirof etilgan. Shu bois, namunalarning shakl tuzilishlari va rivojlanish tarkibiy qismlarini maxsus grafik chizmalarda aks ettirishga urindik. Shu bilan birga ushbu badiiy namunalar chizmalar asosida Shashmaqom asarlarning rivojlanish mezonlari bilan solishtirildi. Nazariy xulosalarning musiqiy namuna va ijrochilik uslubi bilan mutanosibligini ta’minlash maqsadida, qisqa ko‘rinishda tegishli nota misollaridan ham foydalanilib, musiqiy tahlil qoidalariga ko‘ra bayon etildi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan materiallar sifatida, mumtoz musiqa ijrochilik an’analarida muhrlangan talqin namunalari va usullari bilan bog‘liq omillarga asoslanildi. Bunda asosiy mezon: magnit tasmalarida va plastinkalarga yozib olingan har bir maktab namoyandalarining shaxsiy ijrolari: 1991-yil Xo‘jand, Qo‘qon shaharlari, Beshariq, Oltiariq, Yangiqo‘rg‘on tumanlarida Tojikiston xalq hofizi Ma’rufxo‘ja Bahodirov bilan birgalikda va 1993-yili musiqashunos olim, ustoz (ilmiy rahbar) Rustam Abdullayev hamkorligida Qo‘qon shahri, Buvayda (Yangiqo‘rg‘on), Marg‘ilon tumanlarida o‘tkazilgan ilmiy ekspeditsiya ma’lumotlari, san’at ustalari, mohir hofizlar tomonidan ijro etilgan, ya’ni musiqiy namunalar yozilgan magnit tasmalari va plastinkalar, turli ijrochilik maktablari namoyandalari va davomchilar – shogirdlari ijrolaridagi mumtoz asarlar va ma’lumotlar: muallif tomonidan notaga tushirilgan musiqa asarlari asos bo‘ldi.

Ijrochilik maktablariga xos badiy an’analarini mantiqan to‘g‘ri yoritishda taniqli hofizlar Marufxo‘ja Bahodirov (Sodirxon hofiz

maktabi namoyandasasi), Orifxon Hotamov, Ochilxon Otaxonov, Mahmudjon Tojiboyev (Jo'raxon Sultonov maktabi davomchilar) va xonandalar Abdulatif Xoldorov va Rahimjon Kamolovlar (Rasul qori Mamataliyev shogirdlari) mohir sozanda va xonanda Rifatilla Qosimovlarning qimmatli maslahatlari beedad ko'mak ato etdi. An'anaviy musiqa ijrochiliginu, ya'ni hofizlik san'ati bilan bog'liq xonandalik ijro uslubiyotini amaliyoti bilan bog'liq holda yoritishga asos bo'ldi. Pirovard natija siz muhtaram mushtariylarga, kitobxonlarga, kelgusida mumtoz musiqani yosh avlodlarga yetkazadigan qadrli ustoz murabbiylarga dasturul amal bo'lishini qalbdan istab qolamiz.

## I. HOFIZLIK SAN'ATI XUSUSIYATLARI

Yer yuzida mavjud xalqlar tarixiy shakllanish jaryonida insoniyatning eng go‘zal fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirgan qator o‘zlarining milliy an’analari asosida yuzaga kelgan qadriyatlarini meros sifatida avaylab – asrab avloddan – avlodga yetkazib kelganlar. Ayniqsa, ijtimoiy hayotidagi muhim voqeliklar, omil va tadbirlarni, kundalik turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan urf – odat, qadriyat, udumlari va marosimlarni saqlashga alohida e’tibor bergenlar. Ijtimoiy, iqtisodiy – siyosiy omillar ta’sirida xalqning tili, ruhiyati, ma’naviyati bilan bog‘liq xususiyatlarning shakllanishi, rivojlanishi va ular asosida yangi – yangi oqim, yo‘nalishlarning yuzaga kelishi madaniyatning asosiy qonuniyatlaridan biri sifatida gavdalangan.

Ma’lumki, azaldan hayotining turli tarmoqlarida muayyan shart –sharoitlar, voqe’lik, ma’naviy ehtiyojlar bilan bog‘liq marosim, tadbir va amallar rang – barang ko‘rinishlarida tarkib topgan. Avlodlarning asrlar osha u yoki bu tartibga amal qilib kelishlari jarayonida ularga bo‘lgan ehtiyoj uzilib qolmasdan, marosimlarni sharoit taqazo etgan vaqtda o‘tkazib turish va muntazam davom ettirish asta sekin an’anaga aylanib borgan.

Xalqimiz hayotida mavjud an’alarining avloddan –avlodga o‘tishi ko‘proq bir umumiyl (jonli) jarayon, u ham bo‘lsa, ijro talqini (i j r o ch i l i k) bilan xarakterlanadi. Yaratilgan har bir san’at namunasining an’ana tizimida shakllanishi, uning umr davomidagi bevosita “ijrochilik” omili bilan uyg‘unlashishi va albatta rivojlanish mezoniga yuz tutishi muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

Musiqa san'ati namunalarining talqini, odatda ovoz vositasi, cholg'u talqini, raqs harakati, imo – ishora kabi bir qator ijrochilik turlaridan iboratdir. Bevosita talqin jarayoni ham namoyandalar tomonidan yakka, juft, guruhiy yoki ommaviy shakillarida amalgalashiriladi. Ovoz vositasi asosida talqin etiluvchi namoyandalarni xalq orasida ijro dasturlariga binoan *mug'anniy, navo kash, navoog'oz, qo'shiqchi, laparchi, termachi, xonanda, ashulachi, dostonchi, baxshi, xalfa, shoir, g'azalxon, qissaxon, maddoh, zokir, masnaviyxon, savtxon, nasrchi* va *hofiz* kabi nomlar bilan atalib kelingan. Har bir atama ijrochining qaysi musiqa janrida ixtisoslashtirilganini ham ifodalaydi. Ular orasida ustozona musiqa namunalarini ijrochilarini “ashulachi”, “savtxon”, “nasrxon”, “maqomchi”, nomlari bilan birga “hofiz” deb atash ham rasm bo‘lgan. Yuqorida keltirilgandek, har bir atamada musiqiy janr xususiyati to‘la ifodasini topganligini inobatga olinsa, “hofiz”lik aytim mezonining eng oliy darajasi sifatida e’tirof etilgan. Shu bilan birga ushbu sohaning bir qator ichki tarkibiy xususiyatlari negizida, bir – biri bilan bog‘liq jihatlarini o‘zida mujassam etadi. Xususan, musiqa ijrochiligi amaliyotida ovoz vositasidagi talqini badiiy mukammal darajaga yetkazgan san’atkorlar bu nomga sazovor bo‘lib kelganlar.

## HOFIZ VA HOFIZLIK

“Hofiz” – arabcha “hifz” (حِفْظ) so‘zidan olingan bo‘lib, “asrovchi”, “yodda saqlovchi” ma’nolarini anglatadi<sup>5</sup>. Shu bois o‘tmishda ijro talqini bilan bog‘liq kasb egalari, hifz va talqin etish jihatlarini o‘zida mujassam etgan va ma’lum darajada xalq e’tiborini qozongan adabiyot va san’at namoyandalari “Hofiz” nomiga sazovar bo‘lganlar. Shu tariqa hofiz atamasi nom, taxallus, kasb turi sifatlarida qo‘llanilib kelingan. Har bir “hofiz”ning faoliyatida musiqiy ohanglar, sadolar va talqinlar (ijrolar) ma’lum ko‘rinishida ifoda topishi muqarrar. “Hofiz”lik san’ati xususiyatlari bilan talqinga molik bo‘lgan sohalar, kasblarning turlari xilma – xil bo‘lib, san’atkorlarning har biri o‘z amali doirasida quyida qay etilgan san’at sifatlaridan foydalanib kelgan<sup>6</sup>:

a) Qur’onni yoddan qiroat bilan o‘quvchi kishi, qorilla<sup>7</sup>. O‘tmishda hofizlikni mukammal egallab, bu sohada nomlari tarixda bitilgan Shayx Abdullohi Muborak (XVI asr), Lirik Hofiz (XVI asr)<sup>8</sup> shular jumlasidandir.

“Qur’onni, diniy asarlarni musiqiy ohanglar orqali qiroat bilan o‘qiydigan namoyandalarni “Hofiz” deb ataydigan bo‘lganlar – deb yozadi A.Rajabov – ilohiyot, Hadis ilmlarining buyuk namoyandalari musiqa sohasiga katta ahamiyat bergenlar. Ular diniy asarlarini yod

<sup>5</sup> Farhangi zaboni tojiki, I-II jild. M., 1969 s. 754 s.

<sup>6</sup> Mazkur ishda bayon etilgan fikrlarini to‘laroq tasavvur etish maqsadida hofizlik san’ati namoyandalarining tarix sahifalarida bitilgan ayrim nomlarini keltiramiz.

<sup>7</sup> Ensiklopediyai adabiyot va san’ati tojik, jildi I. D., 1989 s. jildi II . D., 1989 s 524 s.

<sup>8</sup> Семёнов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дарвиш Али (17в), Т., “Фан”, 1978г. 34 с.

olib, musiqiy ohanglarida talqin etishni faoliyatlarini ibtidosidan boshlaganlar. Hofizlar keyinchalik ixtisoslarini (sohalarini) kengaytirib, katta katta musiqa guruhlarga, dastalarga rahbarlik qilganlar. Diniy musiqiy asarlarni mukammal talqin etuvchi hofizlarning aksariyati imkoniyatlari darajasida yangi musiqiy asarlar, janrlar, sozlar, ixtiolar yaratishga jazm etganlar”<sup>9</sup>.

b). “H o f i z” taxallusi bilan atalgan namoyandalarning yana bir guruhi – o‘tmish t a r i x n a v i s l a r i , tarixnavis sh o i r l a r i d ir. Ushbu kasb imkoniyatlari haqida ma’lumotlar manba’larda oz bo‘lsada, mavjuddir. Xususan, nomlari qadimiy qo‘lyozmalarda zikr etilgan tarixnavislar – hofiz Tanish Buxoriy (XVI asr) – tarixchi shoir va hofizi Abru (XIV-XV) –tarixchi, Temuriylarning saroy tarixchisi<sup>10</sup>...

v). “H o f i z” atamasini t a x a l l u s sifatida qo‘llanilishi san’at va adabiyot sohasida keng ommalashgan bo‘lib, mumtoz shoirlarimizning orasida shu taxallus bilan ijod etganlar ko‘pchilikni tashkil etishi xususida bir qator manbalarda ma’lumotlar keltirilgan. “Hofiz Xorazmiyning” va uning merosini aniq bilish uchun – deb yozadi Hamid Sulaymon, - O‘zbek, fors – tojik va ozor adabiyotlariga oid juda ko‘p tazkira, bayozlar, Sobiq Ittifoq, xorijiy sharq va g‘arbda chop etilgan katta kichik hajmdagi barcha asosiy kataloglar, sharq adabiyoti tarixiga oid turli – tuman qo‘lyozma manbalar va har xil bosma asarlarni birma – bir ko‘zdan o‘tkazganim natijasida hofiz nomi (bilan) yoki taxallusiga ega bo‘lgan 156 namoyanda tarixda faoliyat

<sup>9</sup> Rajabov A. Qonuni ilm va amali musiqiy, //Zaynulloiddin Mahmudi Husayniy va san’ati musiqiji zamoni o“”, “Dushanbe”, “Donish”, 1987 s. 28 s.

<sup>10</sup> Ensiklopediyai adabiyot va san’ati tojik, jildi II . D., 1989 s. 524 s.

olib borganligi ma'lum bo'ldi<sup>11</sup>. Hoja Shamsuddin Muhammad Hofiz Sheroziy (XIV) va Hofiz (Abdurahim) Xorazmiy (XIV–XV)lar shular jumlasidan.

g) Klassik shoirlarning g'azal va dostonlari ijrochilar<sup>12</sup>, ya'ni **qissaxonlar, g'azalxonlar va baxshilar** bo'lmish dostonxonlar. Shu bilan birga o'zining zukkolik, ziyraklik, hozirjavoblik bilan nom chiqargan **hajv, xanda va qah-qaha ustalari** nomlariga ham "Hofiz" so'zini qo'shib aytganlar. Buning asosiy sabablaridan biri – "**Hifiz**", "**Hofiza**"lik<sup>13</sup> qobiliyati o'tkir va yuqori darajada bo'lishi nazarda tutilgan ehtimol. Lekin, bu soha namoyandalarining faoliyatiga zamонавија jarayon nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, "**askiya**" "**qiziqchi**" ahlining aksariyati xonandalik sirlarini va amallarini yaxshi bilganliklari bilan ham izohlash mumkin.

d) "H o f i z" nomi bilan nisbat berilgan namoyandalarning orasida eng muhimi – musiqa san'atiga dahldor va kasbining mohirona talqiniga erishgan **s o z a n d a** va **x o n a n d a** lardir. Ular qatoridan nafaqat xonandalar, balki sozandalar va musiqa ilmining yetuk namoyandalari ham o'rinni olgan. Badiiy amaliyotda ashulachi xonandalarning "hofiz" deb yuritilishining ilk davrlari yoki zamonasini aniq belgilash uchun yetarli dalillarga ega emasmiz. Shu bilan birga tarixiy manbalarda xonandalarga "hofiz" nisbat berilganini ko'plab uchratishimiz mumkin. Jumladan, XI asrda yashab ijod etgan Amir

---

<sup>11</sup> Hamid Sulaymon. Hofiz Xorazmiy, // Hofiz Xorazmiy "Devon", T., "O'zKPMK", 1981 y. 5-6 s.

<sup>12</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati, I-II jild. M., "Rus tili", 1981 y. 524 s.

<sup>13</sup> Hofiza –insonning biror fikr, tushuncha yoki xotirani miyada saqlash qobiliyati

Unsurulmaoniy Kaykovusning asarida bu sohaga alohida bir bo'lim ajratilgan bo'lib, "Hofiz va sozandalar zikrida" deb nomlanadi<sup>14</sup>.

Tarixiy manbalarda "hofiz" atamasi bilan qo'shib nomlangan sozandalar ham ko'p uchraydi. O'z zamonasining yetuk va ilg'or sozandalaridan bo'lgan Hofizi Solehi Chortoriy (XVI)<sup>15</sup> Hofiz Turdi Qonuniy (XVI), Hofiz Poyanda Qobuziy (XVI), Hofiz Boqu Rude (XVI)<sup>16</sup> shular jumlasidandir. Lekin, "hofiz"lik ularning sozandalik faoliyatlariga emas, balki, asosiy kasblaridan tashqari ikkinchi, qo'shimcha faoliyatlariga berilgan nisbat deb ham tushunish mumkin. Chunki, o'tmish risolalarida ularning s o z a n d a l i k s a n 'atlarida so'z talqini bilan bog'liq amallar, Qur'oni qiroat bilan o'qishlari, so'zlarni ohangga solib ijro etishlari kabi holatlari haqida ma'lumotlar qayd etilgan.

"Hofiz" nomi bilan yuritilgan xonandalarning tarixda qancha o'tganlari, ijrochilik an'analari, talqin hususiyatlari kabi jihatlarini izohlash mushkul. Chunki, aniq tarixiy ma'lumotlarga ega bo'lgan va talabga javob beruvchi asarlar, ma'lumotlar va dalillar hozirgacha yetarli emas. Lekin, o'tmish shoirlarining nazmiy va nasriy asarlarida keltirilgan ma'lumotlar zamondosh san'at namoyandalari – hofizlarning xalq orasida mashhur bo'lganlarini bildiradi. Ulardan: Hofizi Miraki Buxoriy, Hofizi Ohuni Gurbaiy Samarqandiy<sup>17</sup>, Hofizi Chortog'don, Hofizi Do'stiy, Hofizi Boboxon, Hofizi Merosiy, Hofizi

<sup>14</sup> Kaykovus. Qobusnova, Forschadan Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasi. T., "Meros", 1992 y. 121-123 b.

<sup>15</sup> Kavkabi N. Risolai musiqiy, Risola dar bayoni duvozdah maqom, Dushanbe, "Irfon", 1985 s. 13 s.

<sup>16</sup> Семёнов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дарвиш Али (17в), Т., "Фан", 1978г. 59-71 с.

<sup>17</sup> Каримова Р. Бухарский танец, Т., 1977 г. 14 с.

Abdullo, Hofizi Obli Darboziy<sup>18</sup> va Zayniddin Mahmudi Vosifiyning “Badoe’-ul vaqoe” risolasida keltirilgan Qulmuhammad Udiy, Ustod Ali Ko‘chaki Tanburiylar bilan birga Hofiz Basir, Hofizi Hasan Ali, Hofizi Sultonmuhammad Ayshiy, Hofizi Ubahiy kabi bir qator hofizlarning faoliyatları haqida ma’lumotlar ham keltirilgan<sup>19</sup>.

Darvish Ali Changiyning musiqiy risolasida esa, ushbu zamonda yashab faoliyat ko‘rsatgan hofizlar haqida qisqacha ma’lumotlar bayon etilgan<sup>20</sup>. Jumladan: Lirik Hofiz (71 S.), Hofizi Ushshoqiy (45-46 S.), Hofiz Miraki Buhoriy (59 S.), Hofiz Changiy (59 S.), Hofiz Poyanda Qobuziy (71 S.) va h.k. “Hofiz” atamasi bilan yuritilgan san’at namoyandalarining o’tmish jarayonidagi faoliyatiga nazar solsak, unda *so‘z*, *nutq*, *kuy*, *ohang* kabi vositalarni o‘zida mujassam etgan turli yo‘nalishdagi mohir ijrochilar toifasiga nisbat berilganligini ko‘ramiz. Har bir guruhga tegishli bo‘lgan namoyandalarning ijrochilik an’analarida hofizlik vositalari yetakchi omil sifatida tarkib topishi ularning “hofiz” deb yuritilishiga sabab bo‘lgan. Bu o‘rinda albatta, har bir guruh (tur) namoyandalarining ijrochilik talqini o‘ziga xos qonun – qoidalarga ega bo‘lishi muqarrarligini ham alohida qayd etish lozim.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlariga kelib bu atama musiqa san’atining ustozona shakli ijrochilari orasida keng ommalashdi, ayniqsa, Farg‘ona vodiysida katta ashula ijrochilari faoliyati doirasida munosib o‘rnini topadi. Ustoz darajasidagi har bir

<sup>18</sup> Rajabov A. Qonuni ilm va amali musiqiy, -Zaynullobiddin Mahmud Husayniy, “Mahmudi Husayniy va san’ati musiqiy zamoni “o”, Dushanbe, “Donish” 1987 s. 22-23.

<sup>19</sup> Shu manba, 24-b.

<sup>20</sup> Семёнов А.А. Среднеазиатский трактат о музыке Дарвиш Али (XVII в), Т., “Фан”, 1978 г.

mohir xonanda- ashulachilar “hofiz” deb yuritila boshlandi. Andijonlik Ashurali Hofiz (1850-1913– ustoz xonanda, doira jo‘rligida mumtoz asarlarni mohirona ijro etgan), Mirza Qosim Hofiz (1850-1917 – Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarining mohir ijrochisi), Mo‘minjon Hofiz (1860-1910 – Ashurali Hofizning sherigi (hamnafasi) katta ashula va mumtoz ashula yo‘llarining mohir ijrochisi), Toji Mubtalo (1880–1930 – mohir patnusaki ashulachi), Mo‘ydin Hoji (1885–1958 – hofiz usta tanburchi va dutorchi), Berkinboy Fayziyev (1888–1945 – yetuk hofiz), Muhammadxo‘ja Eshon (1880-1955- Baliqchilik (Andijon viloyatidan) mashhur katta ashulachi, Namanganlik Jalolxon Hofiz (1850-1916 – ustoz san’atkor, mashhur hofiz), Abdulla Taroq (1870-1952 – usta xonanda, hofiz Sodirxon Bobosharifov va Madumar hofizlarning shogirdi), Isfaralik Madumar Hofiz (1850 -1931 – mashhur ashulachi, Shashmaqom va Farg‘ona-Toshkent maqom bilimdoni, ashula yo‘llarini puxta bilgan mohir ijrochi), Zebopari (yorqin ovoz egasi, Shashmaqom va maqom yo‘llaridagi ashulalarni yaxshi bilgan mohir ashulachi, taniqli hofiz), Marg‘ilonlik Boltaboy Hofiz (1867-1960 – ustoz xonanda, mashhur katta ashula ijrochisi), Mamatbuva Hofiz (1885-1967 – mashhur katta ashulachi, bir qator yetuk shogirdlar yetishtirgan ustoz), Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov (ijrochilikda yangi yo‘nalish va uslub yaratishga tuyassar bo‘lgan mashhur ashulachilar – ustozlar), Farg‘onalik Mahkam Hofiz (1865-1915 – mashhur hofiz va usta doirachi), Qo‘qonlik Holqori Hofiz (1860-1910 – ustoz san’atkor katta ashula ijrochiligidagi mohir), Hamroqul Qori (katta ashulachilarining ustozni, bilimdoni va taniqli), Erkaqori (1880-1959) – zamonasi hofizlarining karvonboshilaridan,

patnusaki ashula ijrochilarining yorqin namoyandasasi), Otajon Hofiz (1895-1947 – katta ashula namunalarining mohir ijrochisi), Rustam Hofiz, Boymat Hofiz, Saydali Hofiz, Abdurahmon Pari, Xo‘jandlik Sodirxon Hofiz, Toshkentlik Mulla To‘ychi Hofiz kabi ustoz san’atkorlar, hofizlikda nomlari chiqqan mohir xonandalar shular jumlasidan.

XX asrning 30 yillariga kelib mumtoz musiqa merosi va xalq yo‘llariga mansub yirik shakldagi ashulalar ijrochilari – mohir xonanda va ashulachilarni “Hofiz” deb yuritish ijrochilik amaliyotida rasm bo‘la boshladi. Hukumatimiz tomonidan ham (1939 yili) “X a l q H o f i z i” faxrli unvon ta’sis etildi. Ushbu faxriy unvonga birinchilar qatorida zamonasining mashhur xonandalari Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov va Ortiqxo‘ja Imomxo‘jayevlar sazovar bo‘ldilar.

1991 yili mashhur ashulachilarga berilgan bu oliy unvon (ko‘p yillik tanaffusdan so‘ng, ya’ni 52 yildan keyin) qayta tasdiqlanib, o‘zbek xonandalik san’atida mohirlikka erishgan, ijrochilik faoliyati bilan elga tanilib dong taratgan xonandalar Fattohxon Mamadaliyev, Ochilxon Otaxonov, Hasanboy Rajabiyalar va 1993 yili Muhammadjon Karimov, Ro‘zimat Jumaniyozov, Orifxon Hotamov va O‘lmas Saidjonovlar unga sazovar bo‘ldilar. Shundan so‘ng ularning safi yillar sayin oshib kelmoqda.

**Hofizlik** - xonandalikning har tomonlama mukammal va murakkab bosqichi sifatida namoyondalarning bir qator “Hofizlik talablariga javob berishlarini taqozo etadi. Bu talablar hofizlik san’atiga

ega bo‘lishdagi zarur tabiiy va amaliy omillar bo‘lib, qator xarakterli unsurlardan iboratdir<sup>21</sup>.

**H o f i z** - kuchli va keng diapazonli, ya’ni, 2 – 2,5 oktava oralig‘idagi sifatli, sadoli, kuchli, latif tembrli va his-tarovatli xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan *o v o z s o h i b i*. Xonandalik san’atiga xos ijro amalining pirovardida hofizlik darajasini namoyon etadigan xususiyatlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu omil ovozning har qanday mushkillikdagi ohang davralarini, ijro yo‘lini (harakatini) mukammal ifodalash, musiqiy me’ros va mavjud ijrochilik yo‘llari xususiyatlari zamirida tarbiyalanganligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga ijrodagi har bir amaliy harakat va talqin, mantiqan idrokli ifoda topishi muhimdir.

Hofizlik san’atida muhim bo‘lgan xususiyatlardan biri, bu – “*o v o z t a r o v a t i*” dir. Tinglovchiga musiqiy asarni ohanglar og‘ushida yetkaza oladigan cholg‘u yoki xonanda ovozi – qanchalik sof va yoqimli, nazokatli, go‘zal, serohang va latif bo‘lsa, uning ta’sir kuchi shunchalik buyuk bo‘lishiga zamin yaratadi. Bu omil ham hofizdan nafaqat tabiiy (xudodod) yoqimli ovoz, balki shu ovozni muntazam tarzda parvarish qilib borish, rivojlantirish, ijrochilik amalining mavjud an’analari mahoratni oshirish bilimlari, ijrodagi sayqal va jilolantirish yo‘llarini ongli ravishda qo‘llashni talab etadi. Jumladan, to‘lqinlatish: “*T o ‘ l q i n l a t i s h*, ovozni iliq, jonli va yanada ta’sirli qiladi... Agar to‘lqinlatish qanchalik kuchli (meyorida) bo‘lsa, tinglash (qabul qilish)

<sup>21</sup> Talablar omillari ovoz, xotira, nafas, so‘z, talaffuz, sozda chalish, an’anaviylik, badihago‘ylik va h.k. Undan tashqari ilm va bilim, iste’dod va ta’lim ham zarur.

mezonida ovoz shunchalar chiroysi, quyilib kelayotgandek harakterga ega bo‘ladi va ovozning dilkash sadolanishiga erishiladi”<sup>22</sup>.

Doimiy, ovozning yangi – yangi sayqal va bezaklar bilan meyorida tarannum etishga o‘rgatish va boyitish ovoz tarovatining yanada ta’sirli jozibali va sehrli va tartibli jihatlarini oshiradi. Chunki, “Ovoz – bu yangilikning o‘tmish (eskichilik) bilan doimiy kurashishidir”<sup>23</sup> (tarj. B.S).

**“Х о т и р а”** – hofizlik san’atining asosiy va eng zarur bo‘lgan hususiyatlaridan biridir. Chunki, hofizlik o‘ykash (sinkretik) san’at turlariga kiradi.<sup>24</sup>

Hofiz, ijro jarayonida a) cholg‘u chalish; b) kuyning har bir zarbiga e’tibor berib usul ruknlarini saqlash; v) asar g‘oyasidan cheklanmasdan unga tayanib ijodiy yondoshish; g) so‘z matnini yaxshi bilish va idroklash; d) she’r vazni, kuy usuli va ularni birlashtirib turuvchi doira usullarini bir meyorda mutanosib saqlash; e) ohangga solib kuylash kabi ijrochilik bilan bog‘liq omillarni bir vaqtda bajaradi. Uning ustiga ovozga kerak joyida dard qo‘sish, tarovat bilan kuylash, hijron va sog‘inch jihatlar bilan sadolantirish, xitob yoki munojot ilo tarannum etish va h.k. hofizning shaxsiy tajriba va imkoniyat darajalari bilan amalga oshiriladigan omillar hisoblanadi. Xonandachilikdagi hofizlik uchun zarur bo‘lgan bu amallarni to‘la ifoda etishda avvalo

<sup>22</sup> Дмитриев Л.Б. Основы вокальной методики, М., «Наука» 1968 г. 185 с.

<sup>23</sup> Shu manba 148 s.

<sup>24</sup> YA’ni musiqa san’ati – she’riyat qonunlari, ijrochilik vositalari (ovozi, cholg‘u, sheva, talaffuz va h.k.) va bevosita estetik jarayonlarni go‘zal uyg‘unligida ifoda etish orqali mukammal ijroga erishiladi.

iste'dod, mahorat va bilim zarur bo'lsa, xotira, ya'ni esda saqlash qobiliyati juda katta o'rin egallaydi.<sup>25</sup>

**“Pardani his etish”** – hofizlikning muhim talablaridan biri bo'lib, uning musiqali mahorat darajasini, sifatlarini namoyon etuvchi omil hisoblanadi. Bu omil hofizning tinglash va sezish qobiliyatları benuqson bo'lishini taqozo etadi. Har bir ijrochining pardani to'g'ri his etishi va talqin etishi uning ma'naviy dunyosini, bilimi va amaliy mashg'ulotlari bilan bog'liqdir. Hofizning ma'naviy dunyosi qanchalik boy bo'lsa, uning ijrosi shunchalik jozibali, sof va rang – barang bo'lishi begumondir. U qanchalik an'ana va boy tajribaga ega bo'lsa, talqin etayotgan musiqiy ohanglarini shunchalik chuqr tushunib, teran his etib, barcha imkoniyatlari doirasida ifoda (tarannum) etadi. Bu omil ham hofizning ilmi va bilimi darjası bilan xarakterlanadi. Lekin, bu o'rinda ijrochining muntazam tarzda turli xarakterdagi musiqa namunalarini amaliy tinglash va kuylash me'zoni juda muhim hisoblanadi.

Har qanday xonanda yoki hofizning musiqani, pardani mantiqan to'g'ri his etib tarannum etishida, avvalo uning sezgi a'zolari benuqson bo'lishi lozim. Chunki bu jarayon uning o'ziga xos amaliy tushunish bosqichlarini o'taydi. Avvalo, uning sezgi a'zolariga ta'sir etish maqsadida – unda ichki his (intuitsiya)si uyg'onadi. Ong orqali ta'sir etish jarayoni esa, so'z vositasida turli ma'lumotlarni unga yetkazish bilan xarakterlanadi. Va nihoyat, muntazam va davomiy tinglashlar,

<sup>25</sup> Keyingi paytlarga kelib ko'pchilik xonandalar tomonidan oldiga so'z – matn qo'yib ijro etish ommalashdi. Ayniqsa yoshlar bunday vaziyatni oddiy hol deb qabul qilishmoqda. Bu jarayon hofizlik san'atiga mutlaqo zid amallardan hisoblanadi. Bunga o'rganish ham musiqa san'ati namoyandalari uchun noodatiy amallardan hisoblanadi.

amaliy urunishlar ijrochining his etish qobiliyatini rivojlantiradi, pardani to‘g‘ri his etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Demak, hofizlikda ovoz talqini, aniq his etib, to‘g‘ri parda va ohangda ijo etish uning ongi bilan bog‘liq bo‘lsa, eshitish (slux) qobiliyatining mukammalligi ham shu bilan bir vaqtida muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>26</sup>

**“B a d i h a g o‘ y l i k”** – hofizning mavjud bilimi doirasida asarga nisbatan ijodiy yondasha olishdir. Xususan, ijodiy jarayonda she’r, musiqa va boshqa shu kabi sohalarda tayyorgarliksiz ijo etish, ya’ni ijo etish jarayonining o‘zida ijod etish. Bu borada manbalarda ko‘p fikrlar bayon etilgan. Zamonaviy talqinda esa musiqashunos olimlar tomonidan quyidagicha izohlanganligini guvohi bo‘lamiz. – “Musiqada Improvizatsiyaning ikki asosiy turi mavjud. An’anaviy (og‘zaki an’anadagi) musiqada, shu jumladan, o‘zbek musiqa merosida muayyan kuyni badiha tarzida talqin etish - musiqa ijrosining asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Bunda sozanda yoki xonanda turli musiqa bezak (melizm)laridan mohirona foydalanadi, yangi ohang ibora va jumlalarini ustalik bilan kiritadi, avj yoki jo‘r ovozlarni o‘zgartirish kabi usullardan foydalanadi. Ikkinchisi turi — Improvizatsiya uslubida yangi musiqa asari (yoki ma’lum qismini, masalan, kadensiya)ni yaratishdir. Kompozitorlik ijodida Improvizatsiya shakllari XVI-XVII asrlarda rivoj topib, ayniqsa XIX asrda belkanto san’atida, virtuoz musiqasida) o‘z cho‘qqisiga ko‘tarilgan. Jaz musiqasida Improvizatsiya asosiy o‘rin tutadi...»<sup>27</sup>. Maqomlar ijrochiligidagi ham ijo amaliyotida rasm bo‘la borgan o‘ziga

<sup>26</sup> Hofizlik ijrochilik talablari bilan bog‘liq muammolarga keyingi bo‘limlarda tushuncha, izoh va amaliy jarayoni bilan bog‘liq holda so‘z yuritiladi.

<sup>27</sup> <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/improvizatsiya-uz/>

xos badihaviylik mezonlari shakllangan. (Badihaviylikning mavjud o'zga qirralari haqida ma'lumotlar keyingi boblarda alohida keltirilgan).

Qayd etish joizki, ijrochi hofiz bevosita **cholg'u** soz ijrochiliginu, jo'rnavozlik amallarini, musiqa va adabiy me'ros asoslaridan xabardor bo'lib, yaxshi idroklangan bo'lishi taqozo etiladi. Hofizlik san'atining *his-tuyg'u*, *zehn*, *kuzatish*, *diqqat*, *tafakkur*, *tasavvur* etish, *faxmlash* kabi bir qator ruhiy (psixologik) holatlari mavjud. Bu jarayon ham ijrochilikda muhim ahamiyat kasb etuvchi jihatlardan bo'lib, alohida ixtisoslashgan mutaxassislar hamkorligidagi tadqiqotlarni talab etuvchi mavzulardir.

---

---

---

## IJROCHILIK SAN'ATI

Qadimiy san'atlardan bo'lmish musiqa san'ati o'zining shakllanishi jarayonidan hozirgi davrimizgacha insoniyatning ijtimoiy hayoti bilan bog'liq holda rivojlangan, turli shart-sharoitlarga asoslangan musiqiy namunalar bunyod etilgan, o'zining ravnaqi yo'lida yirik – yirik asarlar vujudga kelishiga zamin yaratgan. Hayot manbai bo'lmish ijod, uning tizimida tarkib topgan ijodiyot o'tmish allomalari tomonidan ilmiy-nazariy tadqiqotlarda keng yoritildi. Musiqiy merosimizning murakkab va mukammal jihatlari, boy imkoniyatlari, musiqa san'atining insoniyat hayotida muhim ahamiyat kasb etganligidan dalolat beradi. Musiqa namunalarining yaratilishi va ularning umrboqiyligini ta'minlanishida taniqli olim B.Asaf evning "uchlik" mezoni alohida ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etishimiz lozimdir. Ya'ni ijodkor, ijrochi va tinglovchi. Har bir yaratilgan asar ana shu "uchlik" bilan bog'liq bo'lgan barcha vazifalarning har tomonlama mutanosibligini ta'minlasa umrboqiy musiqa na'munalar qatoridan joy oladi va ustozona musiqa ijodiyoti talablariga javob berishi muqarrardir.

Mazkur "uchlik" ning har bir tarmog'i o'ziga xos muhim omillar bilan bog'liqdir. Lekin, ijrochi mas'uliyatini qolganlariga nisbatan, doimo vaziyat va talqin bilan bog'liq mezonlar keskinlashtirib kelgan. Zeroki, azaldan ijrochilar turli toifada faoliyat ko'rsatib kelganlar. Xususan, bu jarayonni taniqli musiqashunos olim To'xtasin G'ofurbekov quyidagicha talqin etadi: "O'tmishda (bir ovozli) monodik asarlar ijrochilarini uch toifaga bo'lishgan:

- a) tinglovchilarga u yoki bu kuyni eslatadigan (ya’ni, o’zgartirmay ijro etadigan);
- b) taniqli xonanda va sozandalar ijro uslubiga taqlid etadigan (ya’ni, taqlidchilar);
- v) shaxsiy ijro talqiniga ega bo‘lgan namoyondalar.<sup>28</sup>

Har uchala toifaga kirgan sozanda yoki xonandalar keng ma’noda - i j r o ch i l a r d i r. Lekin, ularning ijrochilikka bo‘lgan munosabatlari ana shu uchlikning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Ma’lumki, musiqaning negizini tovush tashkil etadi. Tovush esa ko‘p jihatli jarayondir.<sup>29</sup>

“T o v u sh” – bu zohiriyo ko‘rinish. Unga turli vosita, harakatlar bilan erishish mumkin. Ulardan ma’lum balandlikka ega bo‘lganlari musiqiy tovush hisoblanadi. Musiqiy tovushlarni ma’noli, his – tuyg‘ular orqali mukammal tarannum etishga eng avvalo inson ovozi qodirdir. ularning barcha xususiyatlaridan foydalanib, turli bezaklar yordamida ijodiy yondashib, tinglovchi qalbiga o‘zgacha ta’sir ettirish ana shu uchinchi toifa namoyandalari talqiniga xosdir. Bu albatta, birinchi va ikkinchi toifalarga taalluqli xonandalarni kamsitish yoki ularni nomukammal degan fikrga borish emas. Zeroki, har bir xonanda – hofiz ijrosi insonga, uning qalbiga ruhiy ozuqa olishida o‘z ta’sirini ko‘rsatar ekan, u talqin mukammaldir. Ijodkorning toifalarga bo‘lingani ilmiy nuqtai nazardan, ularning ijod bilan bog‘liqligi jihatidan desak

---

<sup>28</sup> Гофурбеков Т.Б. Творческие ресурсы национальной монодии и их преломление в Узбекской советской музыке, Т., “Фан”, 1987 г. 18 с.

<sup>29</sup> Tovushning barcha o‘ziga xos xususiyatlari, turli sifatlari bilan bog‘liq rang-barang jihatlari musiqa ilmining bilimdonlari tomonidan o‘tmish risolalarida, zamonaqiy tadqiqotlarda mushohada etilgan. Xususan Ishoq Rajabov tovushni (nag‘ma iborasi bilan atab) qavliy va fe‘liy xilga ajratib zikr etgan. (Maqom asoslari. Т., 1992 y.).

mubolag'a bo'lmas. Vaholanki, xonandalarning boy imkoniyatlari, ijrolari va yaratgan asarlari, yozma manbalarda qadimdan o'z ifodasini topib kelgan. Bu jarayonni ilk ko'rinishlaridan biri afsonaviy Borbad timsolida o'tmishning buyuk allomalari Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy<sup>30</sup> asarlarida keng yoritilgan. Shu bilan birga ular an'anaviy musiqa tarkibini turli janrlar, rang – barang asarlar bilan boyishida samarali ijod etganlar. Yirik janrlarga xos kuy va ashulalar o'tmishda sozanda, xonanda va bastakorlarning ijodiga mansubligiga shubha yo'q.

Odatda "i j r o ch i l i k" – musiqiy namuna talqini bilan bog'liq bir qator ichki xususiyatlarni o'zida mujassam etgan. I s t e ' d o d , b i l i m har tomonlama mukammal o v o z , s o z a n d a l i k s a n ' a t i , j o ' r b o ' l i sh m a h o r a t i , b a d i h a g o ' y l i k m a h o r a t i , s a b o q , i j o d i y y o n d a s h i s h , t o ' g ' r i s o ' z t a l a f f u z i , i z l a n i s h v a d o i m i y mashq kabi xususiyatlar shular jumlasidandir. Musiqa ijrochiligidagi bu xususiyatlarga ega bo'lgan san'atkorgina ustozona musiqa namunalarini mukammal talqiniga erishadi.

Ijrochi uchun i s t e ' d o d – musiqani qalban his etib, mazmunli ifoda etish bo'lsa, bilim - shu is'tedodni musiqa ilmi bilan sug'orishdir (musiqiy namunalar, janrlar, ularning tuzuk va metroritmik jihatlari, ijro texnikasi, ijrochilik mahoratlari va h.k.). Musiqashunos olim I.Rajabov ta'biri bilan aytganda "Shashmaqom va boshqa katta formadagi xalq musiqa asarlarini ijro etishda cholg'uchi va hofiz

---

<sup>30</sup> Abulqosim Firdavsiyning "SH o h n o m a" asari, Nizomiy Ganjaviyning "H a f t p a y k a r" asari, Alisher Navoiyning "X a m s a" va b. asarlari ko'zda tutiladi.

maxsus malaka hosil qilgan bo‘lishi, maqomlarni ijro etish texnikasini yuksak egallagan bo‘lishi lozim”, ya’ni musiqa ijrochiligi ilmini puxta o‘zlashtirishi lozim. Ijro talqini esa xonandadan chiroyli, latif va keng diapozonli mukammal ovozni talab etadi. Bunda bor ovozdan oqilona foydalanib to‘g‘ri idroklash muhimdir. Shu bois ayni paytda maqom yo‘llari ijrosi uchun hofizda keng diapazon, yoqimli ovoz va yuksak aytish texnikasi bo‘lishi shart<sup>31</sup> qabilidagi maqom ijrochilariga qo‘yilgan talabi o‘rinlidir.

**Sozandalik san’ati** – ustozona musiqa ijrochiligining muhim omillaridan biridir. “Har bir musiqachi biladiki, u ragani kuylay oladi, buning uchun u ma’lum darajada teran his eta bilsa bas. Lekin, raga hissiyotini ularga “kuylash” emas, balki ragalarda bunyodga keladigan nazokat, mung, hayrat kabi hislarni ifodalovchi cholg‘u in’om etadi<sup>32</sup>. (tarj. B.S.) deb ta’riflaydi mashhur hind musiqashunos olimi Ragxava R. Menon.

Darhaqiqat, xonanda o‘z cholg‘u to‘lqinining birinchi ijrochisi va birinchi tinglovchisi hamdir. Zeroki, ijrochi o‘z mahoratini cholg‘u talqinida tarannum etib, xonishi bilan boyitadi. Sozanda cholg‘uda qanchalik mahorat bilan musiqiy asarning mukammal ifodasiga erishsa va mutanosib tarzda xonishga ta’sir ettira olsa shunchalik jo‘r bo‘lish mahorati sirlariga ega bo‘ladi. Uning asosiy xususitalari ziyraklik, sezgirlik, badiha, oqilona, talqin va doimiy nazorat kabi jihatlarda namoyon bo‘ladi.

<sup>31</sup> I.Rajabov. Maqomlar masalasiga doir, T., 1963 y. 270-b.

<sup>32</sup> Рагхава Р.Менон. Звуки Индийской музыки. М., “Музгиз”, 1982 г. 35 с.

**Badihago‘ylik** – odatda maxsus tayyorgarliksiz bir zumda yaratilgan she’r (musiqa yoki qo‘sish) yoki voqea, hodisa munosabati bilan to’satdan aytilgan musiqiy asardir.<sup>33</sup>

Musiqiy ijodiyotda maxsus “badihago‘ylik”ka asoslangan “aytishuv” janr, baxshilar san’atiga xos namunalar mavjud. Ustozona musiqa namunalari ijrochiligida “Badihago‘ylik” o‘ziga xos ko‘rinishda shakllanib, ijro jarayonidagi talqin bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi, shuningdek xonanda yoki sozandaning ijro vaqt, vaziyat doirasida kuyga yoki ashulaga yondashish va namudlar qo‘sishi bilan xarakterlanadi.<sup>34</sup> Bunda asosiy me’zon ijrochilik amallaridan asoslangan holda olgan sabog‘i, badiiy va musiqiy me’ros an’analari negizidagi teran bilimi, amaliy jarayon talqinidagi mahorati, va ijro etayotgan musiqiy namunaga nisbatan ijodiy yondashishi hisoblanadi.

**I j r o c h i l i k s a b o g‘ i** – ana’anaga ko‘ra ustoz-shogird qabilida amalga oshirilgan. Odatda, har bir shogird ko‘p yillar davomida (ijrochilik sirlarini puxta o‘zlashtirgunga qadar) o‘z ustoz tarbiyasida bo‘lgan. Soz chertish, ashula aytish, musiqiy me’rosni o‘zlashtirish, davralarda o‘zini tutish kabi eng zarur jihatlarni mukammal o‘zlashtirgan shogird, ustozlarning o‘ziga xos imtihonlaridan so‘ng mustaqil faoliyat ko‘rsatishga ijozat olganlar. Bu jarayon ham bir marosim tarzida tashkil etilib, o‘ziga xos ustozona an’analari negizida ustozdan shogirdga o‘tkazilgan.

Odatda, har bir sohani mukammal egallash o‘ziga xos ruhiy, ishqiy, ilmiy-amaliy pog‘onalarni bosib o‘tishni taqozo etadi. Sohaning

<sup>33</sup> Азербайджанские Зерби Мугамы, записи Р.Зохрабова. Баку, “Ишыг”, 1986 г. 71 с.

<sup>34</sup> Bu mavzu xususida keyinroq batafsil so‘z yuritiladi.

qonuniyatlar, amallari, o'ziga xos jihatlarini mohirlik bilan egallash uchun albatta talab doirasidagi saboq davri, bilim olish mezonlarini o'tashi tabiiydir. Bu o'rinda an'anaviy ijrochilikni o'zlashtirish va mohirlikka erishish jarayonini ramziy ma'noda tasavvuf ta'limotiga xos insonning ma'naviy kamolotga erishish yo'li asoslari bilan taqqoslab ko'rish o'rinnlidir. Va bizningcha hofizlarning rosmana yo'lini tutish mezonlariga ham xosdir.

"So'fiylikka qadam qo'ygan har bir murid (yoki Solih) Shariat, Tariqat, Haqiqat (ba'zan Ma'rifat-Haqiqat) kabi nomlanuvchi darajalar silsilasidan o'tishi lozim bo'lgan. Bunda "shariat" tushunchasi ma'lum diniy qonun-qoidalar majmuasi hamda so'fiylikka boshlovchi dastlabki ruhiy holatni anglatgan. Bu holatni esa Tangriga bo'lgan ishq belgilaydi. Keyingi bosqich – "tariqat"da esa ma'lum hatti-harakatlar amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Tariqatda asosan 7 ta pog'onalar mavjud bo'lib, ularni murid o'z piru-murshidining yo'l-yo'riqlari asosida o'tishi lozim bo'ladi. Xuddi ana shu 7 pog'onalar esa arab tilida "maqam" (maqom) deb ataladi. "Tariqat maqomlari" iborasi ham shu asosdan kelib chiqqandir. Binobarin, Ilohiy ma'rifat va haqiqatga erishmoq uchun ushbu maqomlarni bosib o'tishi shart bo'lgan.<sup>35</sup> Bundan kelib chiqadiki, musiqashunos olim O. Ibrohimov I-darajani har tomonlama tayyorlanish, sozlanish - shariat, II-daraja saboq jarayonini - Tariqat (yoki ma'rifat Tariqat), III - daraja mukammallik, yetuklikni mustaqil faoliyat - Haqiqat- tarzida sharhlab beradi.

<sup>35</sup> Ibrohimov O. Maqom va tasavvuf xususida. // Rajabiyxonlik ilmiy anjuman materiallari. T., 1994 y. 60-b.

Musiqa ijrochiligi asoslarini egallash jarayonini (sun'iy tarzda va nazariy tarkiblash maqsadida) bosqichlarga bo'lganimizda quyidagi manzaraning shohidi bo'lamic. San'atning ilk qadamlari inson qalbida shu sohaga bo'lgan "ishq" ning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Ya'ni, bu ishq san'atni ongli ravishda tushunish, unga qalban amal qilish anglash kabi jarayonlarni o'zida mujassam etishi lozim bo'ladi. Ushbu ishtiyoy va uning asosida shakllanib kelgan ma'lum harakatlar, san'atni anglash jarayoni sifatida qabul qilib, uni Shariat, ya'ni I - bosqich bilan bog'lash mumkin.

Bo'lajak ijodkorning ushbu sohada ma'lum tushuncha hosil qilib, o'z faoliyatini san'atga bag'ishlab, shogirdlikni ravo ko'rib, ma'lum ustozdan saboq olishga jazm etishi, ya'ni ustoz-shogird (murshid-murid amali) saboq davri II-bosqichga to'g'ri keladi. Yuqorida keltirilgan yetuklik III - bosqichga ma'rifat, haqiqat jarayonini, ya'ni mustaqil faoliyatida hofizlikning barcha sir – asrorlarini idroklagan holda mukammal ijro etishni uddasidan chiqib mahorat egasi bo'lganlarni "Hofizlik" bilan bog'lash mumkin. Bu jarayon bir qator omillarni o'zida mujassam etadi. Ulardan ayrimlarini quyidagi tartibda tasavvur etish mumkin:

	I	II	III
a)	Shariat	Tariqat	Haqiqat
b)	ishq	shogirdlik	Hofizlik
v)	sozlanish	tayyorlanish	Mukammallik
g)	Kirish – anglash	7 bosqichni o'tash	Ijod – faoliyat

— Teclue-fay

Tariqat bosqichining o'zlashtirish zarur bo'lgan 7 pog'onasi mayjud bo'lgani kabi, barcha sohalar, shu jumladan ijrochilik ham ustoz-shogird sabog'i jarayoni bilan bog'liq va o'rganish lozim bo'lган qator amallardan iboratdir. Ijrochilarning barcha ichki va tashqi xususiyatlardan kelib chiqqan holda lozim bo'lган amallarni quyidagicha yondashish bilan izohlashga urinib ko'ramiz:

1. So'z talaffuzi (she'riyatni bilish, kuy usuli va she'r vazni);
2. Sozandalik san'atini egallash (cholg'u ijrochiligi, talqin mahorati);
3. Xonandalik san'ati (ovozdan to'g'ri va oqilona foydalanish. Tovushqatorning har bir pardasida lozim va xos sayqal va jilo berishga erishish. Hamnafaslik);
4. Jo'r bo'lish san'ati (o'z-o'ziga jo'r bo'lish, o'zga xonandaga ma'lum cholg'uda jo'r bo'lish va jo'rnavozlik);
5. Ijro san'ati (har qanday shart-sharoitdagi ijro paytida o'zini idora qila bilish, an'anaviylik va badihago'ylik imkoniyatlaridan foydalanish tartiblari, ijro vaziyatini to'g'ri baholash);
6. Me'rosni o'zlashtirish (saboq, og'zaki an'anadagi musiqa me'rosini o'zlashtirish, uni ilmiy idroklash, mavjud an'anaviy ijro uslublaridan xabardor bo'lish);
7. Talqin – tahlil, taqlid va talqin (mavjud an'analar bilan sug'orilgan xususiy talqin ijro usulini yaratish).

Ustoz-shogird an'analarida shu bilan birga odob – ahloq, o'zini tutish va amal qilish lozim bo'lган yoki sharoit taqozo etadigan o'ziga xos "amal"lar mavjud (Bular millatimizga xos bo'lган jihatlar bo'lib, har bir inson o'z oilaviy sharoitda, ota-onalarining tarbiyasida

muntazam odob–axloq madaniyatini egallab boradilar). Ustoz–shogird va shogirdlarning saboq jarayoni haqida o‘tmishda yashab ijod qilgan bir qator olimlarning fikr-mulohazalari mavjud. Xususan, IX asrda Hirotda yashab ijod etgan, Sharqning mashhur allomalaridan biri, ahloq, tarix, tasavvuf, nujum, riyoziyot, kabi sohalarda samarali ijod etgan Husayn Voiz Koshifiy o‘zining “Futuvvatnomai Sultoniy, Yohud javonmardlik tariqati” nomli risolasida bu jarayonning (so‘fiylar ijodi-amali misolida) ko‘p qoida-nizomlarini, murid-murshid, Nur-murid, ustoz-shogird amallarini yoritib bergan.<sup>36</sup> Unda har bir tadbirning *rukni, sujudi (sajdalari), farqi, intixosi, ma’nosи, odobi axloqi, odati, shartlari, sarmoyasi, vazifasi, qonuni, ziynati, xislatlari, sifatlari* kabi lozim bo‘lgan o‘nlab amallar haqida ma’lumotlar bayon etiladi. Ana shu manbadan bir namud - shogirdlikning amallari haqida musiqashunos olim O.Ibrohimov quyidagicha yozadi: “Agar shogirdlikning binosi nimani ustida quriladi deb so‘rasalar, iroda ustida, deb javob bergin. Agar iroda nimadir, deb so‘rasalar, samo’ va toatdir, deb aytgin. Agar samo’ (eshitish) va toat nimadir deb so‘rasalar, nimaiki ustoz aytsa, uni jon-qulog‘i bilan qabul qilish va vujud a’zolari orqali amalda ado etishdir deb ayt. Agar shogird uchun nima yaxshi deb so‘rasalar pok e’tiqod deb ayt, chunki faqat e’tiqod kishini murodiga yetkazadi”.<sup>37</sup>

Ustoz-shogird an’analarining ko‘p jihatlari ijrochilik san’atini egallahash jarayonida tasavvuf ilmi bilan umumiyligini guvohi

<sup>36</sup> Koshifiy Xusayn Voiz. Futuvvatnomai Sultoniy. Yohud javonmardlik tariqati. “Pandnoma”, Fors tilidan N.Komilov tarjimasi. T., “Meros”, 1994 y.

<sup>37</sup> Ibrohimov O. Maqom va tasavvuf xususida. // Rajabiyxonlik ilmiy anjuman materi allari. T., 1994 y. 31-32 b.

bo‘lamiz. Shu bilan birgalikda ijrochilik san’atini egallashning o‘ziga xos tomoni ham mavjud. Chunonchi, shogird doimo amaliy izlanishda bo‘lishi, muntazam mustaqil ijroga o‘rganib borishi, doimiy tarzda davralarda ishtirok etishi, ustozni yonida, kerak vaqtida hamnafas yoki jo‘rnavozlik qilishi taqozo etiladi. Ana shu me’zon keyingi bosqich, ya’ni mustaqil ijod davrida endigina mustaqil ijroga qadam qo‘ygan shogird uchun asos sifatida juda muhimdir. Musiqa esa she’riyatning murakkab uslublaridan hisoblangan, o‘ziga hos ritmik tarkibga ega bo‘lgan aruz vaznidagi namunalar bilan ijro etishga asoslangan. Asarning negizada so‘z (aruz) vaznining kuy usuli bilan uzviy mushtarakligi va hamohangligi muhim omillardan biridir.<sup>38</sup> Qolaversa - musiqiy kuy ma’lum she’riy asarga bog‘lanadi, bastalanadi. Albatta uning mukammal tarkib topishida she’rning ham vazni, mazmuni kabi xususiyatlari asosiy me’zon bo‘lib xizmat qilishi muqarrar.

Ijrochilikning mukammal darajasiga yetishish va uni saqlash yuqorida zikr etilgan barcha xususiyatlar asosida d o i m i y i z l a n i sh va muntazam a m a l i y m a sh q lar evazigagina erishiladi.

Ijrochilik azaldan musiqiy me’rosimizning turli janr xususiyatlari asosida o‘ziga xos shaklda yuzaga kelgan. Ularni ruhiy ta’siri, musiqaviy jonli ifodasi, tarkibiy va ijroviy jihatlaridan kelib chiqib, ijrochilik an’anlarini musiqashunos olim F.Karomatov 3 guruhga bo‘ladi. “Bular folklor (asliy, xalqiy), xalq professional va og‘zaki an’anadagi eng rivojlangan professional ko‘rinish<sup>39</sup> (I.19.6)

<sup>38</sup> A.Nazarov aruz metrining kuy usuli hamohangligini “Ramali musammani mahzuf” misolida ko‘rsatib, qator asarlardan misollar keltirib bergen. (II.9.)

<sup>39</sup> Культура Среднего Востока. “Музакальное-театральное искусство и фольклор”, “Мерос”, 1994 г. 6 с.

mujassam etganligi bilan boshqa sohalardan ajralib turadi. Buni albatta bevosita ustoz namoyandalar ijrochilik amaliyoti va ijodiyoti bilan bog‘liq holda o‘rganish va yoritish taqozo etadi. Shu nuqtai nazaridan mazkur tadqiqot Farg‘ona vodiysi ijrochilik an’analari muammosiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda tegishli, ko‘zda tutilgan masalalar nazariy tahlil etiladi va Farg‘ona-Toshkent ijo yo‘llariga mansub bo‘lgan shaxsiy uch zabardast namoyandalarning ijrochilik maktablari misolida ochib berishga harakat qilinadi. Asosiy maqsad – XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan Xo‘jandlik taniqli san’at namoyandasini, Qo‘qon ijrochilik maktabi an’analari asosida samarali ijod etib shaxsiy ijrochilik uslubini yaratgan S o d i r x o n H o f i z maktabi, hamda ustozona musiqa bilimdonlari, mohir ijrochilar va ustozlar J o‘r a x o n S u l t o n o v va R a s u l q o r i M a m a d a l i y e v lar ijrochilik uslublarini sharhlab, ularga ilmiy nuqtai nazaridan yondashib ijo uslublarini yoritishdan iboratdir. Zotan, avvalo bu ijrochilik maktablari o‘z davrida ulardan oldingi ustozlar tarbiyasida kamolotga yetgan va alohida ijo uslubiga ega bo‘lganligi bo‘lsa, (keyingi) hozirgi zamон hofizlik maktablarining yangi avlodlarining aksariyati ana shu ijo yo‘llarini o‘zlariga ideal bilib, ularga ergashib o‘z ijrochilik yo‘llarini shakllantirishga erishayotganliklari ushbu ustoz san’atkorlarni ijo uslublari ibrat darajasida qaror topganligini ko‘rsatadi.

Farg‘ona vodiysining o‘ziga xos hofizlik an’analari mavjud. Ularning zaminida albatta katta ashula ijrochilik maktabi asosdir. Namoyandalarning ham aksariyati katta ashula ijrochilik san’atida voyaga yetganliklari bilan izohlanadi. XX asr mumtoz musiqa ijrochilik

san'atida maqom ijrochiligi, xususan mumtoz musiqa ijrochiligi va ijodiyoti o'ziga xos tarzda o'z an'analarini tiklaganligi hamda bu sohani bevosita rivojlanganligini namoyon etadi. Farg'ona vodiysida katta ashula va maqomlar asosida amaliyotda shakllangan ijrochilik an'analari zamonaviy ijrochilik hamda ijodiyotini davriga mos holda kamol topib, musiqa san'atini turli yo'nalishlarda ravnaq topishida ham hissasini qo'shamdi.

Xalq orasida xalq musiqa ijrochiligi, cholg'u va katta ashula ijrochiligi, mumtoz yallachilik qatorida mumtoz musiqa, ya'ni maqom ijrochiligi ham xalqimiz ma'naviy dunyosining kamolotiga xizmat qilib, zamon va makon taraqqiyot oqimida o'zining yuksak badiiy va estetik imkoniyatlarini ko'rsatishga muyassar bo'ladi. Buni biz zamonasining dongdor san'at namoyandalari Sodirxon Hofiz, Rasul qori Mamadaliyev va Jo'raxon Sultonov kabi betakror xonandalar ijodida yorqin ifodasini topganligini ko'ramiz.

---

---

---

---

---

## IJROCHILIK MAHORATI MEZONLARI

Ijrochilikni musiqa ijodiyotida turlicha izohlangan fikrlarni guvohi bo‘lamiz. Lekin, ularning har birida muayyan haqiqat mavjudligini sezamiz, idroklaymiz. Jumladan, “Ijrochilik - Badiiy ijodiyot mezonida musiqiy asarlar ijrosidagi bevosita jonli jarayon talqinini yaratishdir. Bu albatta xonandalar, sozandalar va “ijro” bilan bog‘liq barcha ijodiyot turlariga tegishlidir. Musiqa ijro orqali jonlanadi.

Musiqa insonning sezgilari, g‘oyalari, kechinmalari bilan bog‘liq bo‘lgan g‘aroyib dunyo. U ya’ni musiqa rosmana sof va mukammal bo‘lsa tinglovchisini butkul madh etishi muqarrardir. Shu bois musiqadan ongli ravishda bahra olgan buyuk allomalar, musiqaning sirli dunyosini o‘z kasblari negizida idroklab, anglab va bayon etib, munosib meros qoldirganlar. Farobiyning musiqani matematik nuqtai nazaridan nazariy, tarkibiy va amaliy jihatlarni o‘rgangani, Ibn Sinoning musiqani insoniyat ruhiyatiga ta’siri borasidagi qarashlari bunga yorqin misol bo‘la oladi. Zero ular nafaqat ilmiy tadqiqotlar olib borganlar, balki musiqani anglash jarayonida musiqiy cholg‘ularda ijro etish, o‘scha insoniyatga betakror tuyg‘ularni hadiya etadigan kuy-ohanglar tarannum etishni ham maromiga yetkazib ijro etganliklari manbalarda o‘z aksini topgan. Shu bois qayd etish joizki, hozirgi davrimizgacha musiqiy cholg‘ularda chalishni, kuylashni va musiqa bastalashni o‘rganishga istak bildirganlarning soni kamaygan emas. Bularning zaminida bir g‘oya – ya’ni “ijrochilik” mujassamdir. Bizning davrimizga kelib faqat maqom san’ati

## IJROCHILIK MAHORATI MEZONLARI

Ijrochilikni musiqa ijodiyotida turlicha izohlangan fikrlarni guvohi bo‘lamiz. Lekin, ularning har birida muayyan haqiqat mavjudligini sezamiz, idroklaymiz. Jumladan, “Ijrochilik - Badiiy ijodiyot mezonida musiqiy asarlar ijrosidagi bevosita jonli jarayon talqinini yaratishdir. Bu albatta xonandalar, sozandalar va “ijro” bilan bog‘liq barcha ijodiyot turlariga tegishlidir. Musiqa ijro orqali jonlanadi.

Musiqa insonning sezgilari, g‘oyalari, kechinmalari bilan bog‘liq bo‘lgan g‘aroyib dunyo. U ya’ni musiqa rosmana sof va mukammal bo‘lsa tinglovchisini butkul madh etishi muqarrardir. Shu bois musiqadan ongli ravishda bahra olgan buyuk allomalar, musiqaning sirli dunyosini o‘z kasblari negizida idroklab, anglab va bayon etib, munosib meros qoldirganlar. Farobiyning musiqani matematik nuqtai nazaridan nazariy, tarkibiy va amaliy jihatlarni o‘rgangani, Ibn Sinoning musiqani insoniyat ruhiyatiga ta’siri borasidagi qarashlari bunga yorqin misol bo‘la oladi. Zero ular nafaqat ilmiy tadqiqotlar olib borganlar, balki musiqani anglash jarayonida musiqiy cholg‘ularda ijro etish, o‘scha insoniyatga betakror tuyg‘ularni hadiya etadigan kuy-ohanglar tarannum etishni ham maromiga yetkazib ijro etganliklari manbalarda o‘z aksini topgan. Shu bois qayd etish joizki, hozirgi davrimizgacha musiqiy cholg‘ularda chalishni, kuylashni va musiqa bastalashni o‘rganishga istak bildirganlarning soni kamaygan emas. Bularning zaminida bir g‘oya – ya’ni “ijrochilik” mujassamdir. Bizning davrimizga kelib faqat maqom san’ati

yo‘nalishini o‘zi bo‘yicha, boshlang‘ich mакtab tarbiyasidan boshlab oliv ta’limgacha integratsiyasi shakllandi. Maxsus maqom san’atini ta’limiga mo‘ljallangan ixtisoslashgan maqom mакtabi-internatlaridan tortib, maxsus oliv ta’lim muassasasi bunyod etilib ta’limi yo‘lga qo‘yildi. Maqomlarning ta’limi bilan birga ilmiy va amaliy faoliyatlarni rivojlantirishga bel bog‘landi. Eng muhim tomoni shundaki, ularning barchalari bir omil, ya’ni *ijro etish uchun* ta’lim oladilar.

Darhaqiqat e’tirof etish lozimki, musiqaning o‘z tili bor. “So‘z tugagan joyda musiqa boshlanadi” – deb, mashoyiqlar bejiz aytishmagan. Chunki musiqa ulkan qudratga ega va bu mezon aynan ijrochilik orqali oydinlashtiriladi. Shu bois har bir ijrochi musiqiy ohang tarannumida o‘z tili bilan gapiradi (ijro etadi). Uni o‘zlashtirishning yo‘li oddiy. Tarixni bilish, cholg‘u-sozlar dunyosini anglash, musiqa san’atini tarixi, nazariyasi va amaliyoti, namoyandalari, ijro uslublar va musiqa merosini ulkan ustozlar uslubi negizada o‘zlashtirish. Ustoz – shogird an’anasi bunga zamin bo‘lsa, musiqa savodi unga asos bo‘lsin. Avvalo musiqa san’atini tinglash ko‘nikmalarini shakllantirish so‘ngra ijrochilik sirlarini o‘zlashtirish. Ustoz sabog‘i bilan boyitib, uslublarini o‘z ijrolarida qo‘llash texnikasiga ega bo‘lish. Bunda mohir ustozlar ijro uslublarini ongli ravishda anglab, ularning orasidan o‘z ijrosiga eng yaqinlarini topib asoslanish. Ijroda esa maqomot san’atining yo‘llarini chuqur idroklab, ularni ichiga teran kirib borish. Har bir maqom namunalarini o‘ziga xosligini o‘rganib, ularning sirli jihatlarini o‘zlashtirishga va uslubiy

mezonlari o‘z ijrolarida qo‘llashga urinish. Buni barchasini mohirona talqiniga erishish, bu - *musiqa ijrochilik san’ati* demakdir.

Ijrochilik bu oddiy notalarni ovozlantirish emas, balki ijrochilik -san’atdir va bu san’at ovoz va sozlar talqiniga xos turli xususiyatlarga boy omildir. Shu bilan birga xalq ijrochiligi erkin talqiniga asoslanganki, har bir musiqachi asar ijrosiga imkoniyati doirasida ijodiy yondoshadi. O‘zining bilimi va ilmi bilan sug‘orilgan mahoratini va tajribasini namoyish etadi. Buni musiqa bilimdonlari musiqashunoslar Komila Alimbayeva va Mahmud Axmedovlar o‘z tadqiqotlarida quyidagicha izoh etadilar: “Xalq ijrochiligiga ijodiy yondoshish xosdir. Odatda, xalq musiqachisi ijro etayotgan asarga qandaydir bir yangilik kiritishga, taniqli namunalarning yangi variantlarini yaratishga, asosiy kuyni variatsiyalar yoki jimjimador bezaklar bilan boyitishga intiladi”.<sup>41</sup>

Xalq musiqa ijrochiligining bu xususiyatlari amaliyotda ovoz va soz talqini bilan bog‘liq turli uslublar va yo‘nalishlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.<sup>42</sup> Ovoz talqinida ashula ijrochilarining ichki va tashqi xususiyatlarini nazarda tutib, musiqashunos olima Yuliya Volfovna Kats quyidagi sifatlarini alohida belgilab ta’riflaydi:

a) Ashulachida kuchli bo‘limgan va umuman bo‘limgan ovozi bor. Lekin, u ovoz talqin etish apparatining nuqsonini sezdirmay ijrochilik imkoniyatlaridan kelib chiqib, undan unumli foydalanadi;

<sup>41</sup> Алимбаева К., Ахмедов М. Народные музыканты Узбекистана, Т., “Гос.изд.” 1959 г.(1 книга). 15 с.

<sup>42</sup> Xalq folklor ijrochiligi bundan mustasno. Asosan, ijrochilik muammolarining ustozona yo‘llari nazarda tutilgan.

- b) Ashulachining juda go'zal ovozi bor. Uning talqinini, hattoki, ashulaning mazmuniga e'tibor bermasdan ham tinglash zavqli;
- v) Ijrochida nihoyatda dilkash sado mavjud;
- g) Texnik jihatlama mohirona ijroga ega;
- d) Ijro jarayonida ashulachi har bir so'zni tinglovchilarga idrokli va aniq yetkazadi;
- e) Ijrochida yorqin kuylovchi ovoz yo'q, ijro texnikasi (malakasi) ham yetarli emas, lekin, u zavq-shavq jihatidan tinglovchini o'ziga rom etib talqin etadi;
- j) Bor narsani o'zgartirmay ijro etadi;
- z) O'ziga xos bir yangicha – mustaqil tabiiy narsalar qo'shib ijro etadi, negizda ilk ijodkor ijrosidan farqli talqinda;
- i) Ashulasi o'rtacha iste'dod egasi sifatida taniqli, faqat tushunish mumkin tarzda ijro etadi;
- k) "Yaxshi ijro etadi" - uning ijrosi tinglovchining "kayfiyatiga mos" kelmasa hech qanday aniq e'tiborga loyiq emasligi mumkin...<sup>43</sup>(tarj. B.S.).

Bu xususiyatlар faqatgina i j r o ch i ning (ashulachining) ovozini soddalashtirish uslubi, musiqa talqini va so'z talaffuzlari kabi jihatlariga oiddir. Odadta, ijrochining o'z ovoz imkoniyatlariga ega bo'lishi lozim. Ovozining latifligi yoki nuqsoniyligi, foydalanish darajasi, "yuragi", "dardi", ilmi, bilimi, tajribasi, saviyasi kabi unsurlar, uning ashulachi sifatida o'zini anglatuvchi xususiyatlari sifatida gavdalanadi va amaliyotda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Mana shu

---

<sup>43</sup> Kas Y.B. Основі (моделирование) формирование музакального анализа. Рукопись, Биб. ТДК им. М.Ашрафи. Инв. № 2794. Т., 1986г. 102 с.

xususiyatlar doirasida “ovoz talqini”ning o‘zi rang-barangligi bilan xarakterlanadi. Har bir ijrochi ovozining o‘ziga xos tusi mavjud. Unda turli xususiyatlar mujassam topishi muqarrar.

Ovoz xususiyatlari borasida yirik san’at namoyandasasi, mashhur hofiz Fattohxon Mamadaliyev o‘zining “Milliy musiqa ijrochiligi masalalari” nomli risolasida mavjud ovozlar haqida ma’lumotlar keltirib, ovoz xususiyatlarini o‘ziga xos jihatlarini bayon etib o’tadi. Jumladan; - “Xonandalikda ovozning tusi, jarangdorligi, kuchi, ko‘لامи, shiradorligi, uni ishlatish imkonlari va boshqa sifatlari tabiatan xilma-xil bo‘lishi hisobga olinishi shart<sup>44</sup>.

Tadqiqotchi olim D.Mullaqandov o‘zining izlanishlari asosida o‘zbek milliy ashulachiligining farqlovchi ovoz xususiyatlarini ochib beradi va ularni “ashulachilikning an‘anaviy uslublar i” deb belgilaydi. Mazkur tadqiqotda muallif, mumtoz xonandalikda ko‘p uchraydigan ovozlar tarannumini 3 turdagи ovoz usuliga ajratadi: -“Binnigi”, (dimog‘). “Guligi” (tomoq) va “Ishkami” (qorin)<sup>45</sup> va har bir ovoz chiqarish usulini izohlab, tasnif beradi. Xonandalikda aytim yo‘li “usuli” ovoz, nafas va ovoz (tovush) apparatlarining uzviy bog‘liqligi va to‘g‘ri ishlatish paytida yuzaga keladi. Uning aytishicha – “binnigi” ijro sun’iy usul bo‘lib, ovozlarning qo‘shilib ketishi va asosan dimog‘iy sadolanishidir; - “guligi” usul O‘zbekistonda keng tarqalgan bo‘lib, unda, ijro jarayonida xonandaning qiyinchilik bilan talqin etishi, so‘zlarini noaniq ifoda etishi, ovozini kuchaytirishi,

<sup>44</sup> F.Mamadaliyev. “Milliy musiqa ijrochiligi masalalari”, T., 2001 y. 11s.

<sup>45</sup> Муллақандов Д. О некоторых особенностях и видах узбекского национального пения. //Народные музыканты Узбекистана, Т., «Гос. изд. худ. лит.» 1959 г. 19 с.

bezashi kabi sun’iy usullaridan foydalanishni taqozo etiladi.<sup>46</sup> “Ishkami” usul, muallif yozishicha, Markaziy Osiyo xalqlari orasida eng yoqimli va sifatli ijrodir. Bu toifa ijrochilar chuqur nafas, kuchli tembr, keng diapazon mobaynida yangroq, tushunarli va yengil sadoli ovozga ega.<sup>47</sup>

Shu o‘rinda qayd etish lozim bo‘ladiki, ijrochilik – bu musiqaning ifodali ochib berish demakdir. Bu amal qay tarzda amalga oshirilishi xonanda va uning imkoniyatlariga bog‘liq. Lekin “makon” nuqtai nazaridan makonning va zamonning ham bevosita o‘rni va ahamiyati juda muhimdir.

O‘zbekiston hududlarida yana bir ijro usuli xalq orasida, ijrochilar tomonidan ham keng qo‘llaniladi. U ham bo‘lsa – “f a l s e t” bilan kuylashdir.<sup>48</sup>

“F a l s e t” – xonandaning tabiiy ovoz imkoniyatlaridan kelib chiqaruvchi sun’iy ovozdir. Bu usul g‘arb musiqa madaniyatida – vokal ashula ijrochiligida keng va ma’lum tartibda qo‘llaniladi. O‘zbek ustozona musiqa talqinida falset o‘ziga xos shaklda va ovozining shu jihatlaridagi muqobillik mavjud bo‘lgan xonandalar tomonidan ishlatilib kelingan. Ovro‘pa ashula ijrochilik san’atida asarning ma’lum qismida qo‘llaniladigan bu usul O‘zbekiston vohalari, ayniqsa Xorazm va Farg‘ona-Toshkent ijro yo‘llariga mansub xonandalarning talqinida munosib o‘rin olgan. Ijro jarayonida falset turlichcha shakllarda namoyon bo‘ladi. Odatta, ko‘pchilik xonandalar qisman bu usulga murojaat etib,

<sup>46</sup> Shu manba 19-20 s.

<sup>47</sup> Shu manba 20 s.

<sup>48</sup> “Falset” usulining o‘zbek ashulachilik san’atida qo‘llanishi va uning mohiyati, yoki unga tegishli bo‘lgan asosiy ma’lumotlar hanuzgacha matbuotda yoritilmagan.

asarning avj qismlarini falset usulidan foydalanib ijro etadilar.<sup>49</sup> O‘zbek musiqa san’ati ijrochiligidagi, aynan ustozona musiqa namunalarini (maqomlar)ni ijro etish amaliyotida “Falset” usulidan keng foydalaniladi.

Ayrim xonandalar ashulaning avj qismlarini, eng yuqori pardalarini tabiiy ovoz bilan talqin eta olmaydilar va shunday hollarda falset ovozi bilan – usul yordamida kuylaydilar. Falset ijro usulini qo‘llashda xonanda ustalik bilan, ovoz almashish omilini mohirona bajarishi lozim. Uning mohirligi – tabiiy ovozdan sun’iy ovozning farqini ijro jarayonida sezdirmasligi va usuldan oqilona foydalanishda namoyon bo‘ladi.

Mal’umki, musiqa ijrochilik san’ati talqin bilan bog‘lik usullarning ko‘pligi, muhimligi va o‘z o‘rnida bir-biri bilan bog‘lanib ketish xususiyatlariga egaligi bilan ajralib turadi. O‘zbek musiqasi ijro an’analarining ma’lum jabhalari ham ushbu yo‘nalishda talqin etishni taqozo etadi. Mumtoz musiqa ijrochiligi bir qator an’anaviy sifatlarga ega bo‘lsa ulardan biri talqin jarayonida ovozni baland-past, bo‘rttirib, erkalatib, kuch bilan yoki umuman bo‘s sh yurgizish usulining bir tartibga solib talqin etilishi, ya’ni dinamik rivoji bilan xarakterlanadi. Falset usuliga ijrochi asarning dinamik rivojini ta’minlashda, uning ma’lum nuqtalari, jumlalarida murojaat etadi. Odatda, bu uslub asarning daromad, peshdaromad, miyonxat, dunasr, avj, katta avj kabi tarkibiy qismlarida uchraydi. Ashulaning sustlashgan, past ovoz talab etuvchi bo‘laklari shu usulda ijro etilib kelgingan.

---

<sup>49</sup> Falset usulini, ayni paytda, xonanda Tavakkal Qodirov ijrosi misolida tasavvur qilishimiz mumkin. Lekin, bu xonanda faqatgina ushbu usul bilan chegaralanmay, balki qolgan usullardan ham qisman bo‘lsada foydalanadi.

O‘zbekiston vohalari ashulachilik san’atining o‘ziga xoslik tomonlari ko‘p bo‘lib, ularning har biri o‘zgacha dunyodir. Falset usulini ko‘proq Farg‘ona-Toshkent ijrochiligidagi (ashula va katta ashula) ayniqsa Xorazm vohasi namoyandalari Komiljon Otaniyozov, Ro‘zmat Jumaniyozov, Quvondiq Iskandarov, Rahmatjon Qurbonovlar ijrosidagi suvoralar talqinida kuzatish mumkin.

Yuqorida keltirilgan har uchchala uslubda ijro etuvchi namoyandalar azaldan barcha mahalliy zonalarda faoliyat yuritib kelganlar. Bu omil nafaqat muayyan ijrochi, balki mahalliy, qolaversa o‘zbek musiqasi janrlari talqiniga xos bo‘lgan usullardandir. Janr xususiyatlari doston, maqom, katta ashula namunalari ijrosi bilan bog‘lik bo‘lsa, ularning ommalashgan joylari, an’analari vohaviy jihatlar bilan sug‘orilgan.

Xususan, Farg‘ona vodiysi hofizlari ijrochilik an’analarining negizida faqat bir ashulachilik uslubi turadi deyish noo‘rindir. Chunki, og‘zaki an’anaga mansub bo‘lgan musiqa merosimizning ijro jarayonlari o‘ziga xos shart sharoit, joy, makon bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga musiqa san’atining namoyandalari bir qator janrlarning targ‘ibotchisi sifatida faoliyat ko‘rsatganlar. Aksariyat hollarda zamon va makon bilan bog‘liq musiqa san’atiga xos namunalarni – bastakor asarlari va bastakorlar ijodlarini, zamon ruhiyati bilan sug‘orilgan asarlarni ijro etishga uringanlar. Shu bois ustozona musiqa ijrochilar talqinida *shiddat*, *zavq-shavq*, *joziba*, *yuqori tembr*, *badihago’ylik*, *sayqal* kabi jihatlar munosib tizimini topishi uchun ikki-uch ashulachilik uslubini bilish va undan samarali, munosib foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishlari o‘rinlidir. Chunki, har bir ashulachilik

uslubi o‘ziga xos ijobiylari va salbiy tomonlariga ega. Ularning ijobiylari xususiyatlardan foydalanish ijrochilikda o‘z samarasini ko‘rsatadi. Shu bilan birga musiqiy namunalarning ichki xususiyatlari, rivojlanish jarayoni, tabiat (dinamikasi), shiddati ma’lum darajada bu xususiyatlardan foydalanishni taqozo etadi. Bu o‘rinda Farg‘ona vodiysi ijrochilik an‘analarida “guligi” bilan “ishkami” ashulachilik uslublaridan foydalanish keng ommalashgan.

Ashula ijrochiligi odatda, tovushni qay darajada **t a l q i n e t i** sh omiliga asoslanadi.

**T o v u sh** – turli sharoit va vaziyatda o‘zgacha talqin etiladi. Uni shunchaki ijro (tarannum) etish mumkin, lekin, uni mayin, latif, serjilo sayqallar bilan tus berib, harakatlari ma’nodor, g‘oyali va mazmunli, undan oldingi va undan keyin keladigan tovushlariga aloqador (davom ettiruvchi, aloqachi va davomiga intizor) holda talqin etish ham mumkin. Shuning uchun bu jarayon asarni **t a l q i n** etish uslubi (ijro saviyasi), **i c h k i v a t a s h q i d u n y o s i -** (ijro mohiyati) ni ochib va **l a d t i z i m l a r i n i n g** mutanosib shakllanishida – (ijro tarkibi) kabi o‘ziga xos tomonlari ahamiyatlidir.

Odatda, bevosita ovoz talqin etish ham ijrochilik amaliyotida, yuqorida qayd etganimizdek, uch ko‘rinishda uchraydi. Jumladan:

- shunchaki talqin etiladigan;
- muhim bir ovozga (ustozi yoki ko‘ngliga mos ovoz sohibining talqinga) taqlid etiladigan;
- o‘z ovozini har tomonlama parvarishlab, turli ijro uslublarning eng go‘zal jihatlarini o‘zlashtirgan holda o‘z ijrosini sug‘orib, doimo

izlanish va rivojlanishga asoslangan holda shaxsiy talqingga erishgan ijrochilar.

Mumtoz musiqa ijrochilik an'analarida, aksariyat hollarda uchinchi toifadagi xonandalar azaldan ko'proq uslub yaratishga (va o'zlaridan keyingi davrda ijro uslublari zaminida faoliyat ko'rsatuvchi shogirdlar ergashtirishga), mustaqil ijod etishga, musiqiy merosning mutnazam rivojiga hissa qo'shib kelganlar.<sup>50</sup>

Har bir tovushning mukammal talqini – uning musiqiy balandligini aniqlab, sof va amaliy voqe'lik bilan bog'lab, sirtqi va tashqi his orqali ovoz vositasida kuylashdan iboratdir. Mazkur omilni taniqli musiqashunos olima Yu.V.Kats o'zining ilmiy tadqiqotlarida "talqin mashaqqatlari" (tarj. B.S.) deb belgilaydi va uni xarakterlovchi 4 holat bilan bog'liq ekanligini izohlaydi. Ya'ni, "Talqin etuvchining shaxsiy imkoniyatlari (masalan, eshitish qobiliyati, musiqaviy eslash qobiliyati, ovoz talqinining miqdori, saboq darajasi kabi tabiiy iste'dodlari va b.) - qabul qilish normalari ..."

Yuqorida keltirilgan omillar mumtoz ashulachilik uslubining "i j r o s a v i ya s i" bilan bog'liq bo'lish muammolarini o'z ichiga oladi. Ijrochilik uslubi ijroda asarning ichki va tashqi xususiyatlarini ochib berishda xonandadan nafaqat mukammal musiqiy tovush ijro etilishini, balki badiiy, falsafiy g'oyalar bilan sug'orilishi taqozo etiladi. Chunki, bu jarayon ham o'ziga xos qator muammolar bilan xarakterlanadi.

Ashula ijrochiligi bizga ma'lumki, so'z va kuyning mutanosib talqiniga xos, ularning har birini alohida yondoshish bilan ifoda

<sup>50</sup> Shaxsiy ijro uslubiga erishgan va o'z ijodlari bilan xalqqa tanilgan mumtoz musiqa san'ati namoyandalari haqida I- bo'limda ma'lumot berilgan.

etilishiga asoslanadi. Tovushlar majmuasida vujudga kelgan musiqiy kuy alohida o‘z ma’nosiga ega bo‘ladi. O‘z o‘rnida unga bog‘lanib so‘z ham muhim g‘oyani ifoda etadi. Ashulachi esa kuy va so‘zning birligini ta‘minlagan holda har ikki omilni yashirin mazmunini ovoz talqinida *kuylash orqali ochib berishi lozim*. Bu jarayon xonanda talqinining har bir amalga oshiriladigan xarakterlari bilan bog‘liqdir. Bir tovush sadosidan boshlab kuy harakatining barcha jabhalaridagi tovushlar munosabati muhim va alohida ahamiyat kasb etadi. Ijroda musiqa tovushlarining oraliqlari (intervallari) va keyingi harakatlar alohida ma‘nolarga egadir.

Ijrochilik mohiyatini ko‘rsatishda xonanda har bir asarni ichki dunyosini tushunib uning obraziga tayyorlangan holda kira olishi va shu obrazni ijodkor tasavvur qilgandek yarata olishi (ovozi talqinida) muhim. Shu bilan birga ovoz imkoniyatlarini, sifatini ko‘rsatishda avvalo o‘z ijrosini o‘zi tinglashi va o‘z bilimi doirasida to‘g‘ri idroklashi lozim. Bu jarayon musiqa san‘atida muhim omillardan bo‘lgan, ayniqsa cholg‘u va ashula ijrochiligida katta ahamiyatga ega bo‘lgan ijro bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan qator o‘ziga xos xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Ijro asar ruhiga (obraziga) kirishi va o‘z imkoniyatlarini ko‘rsatishdagi muhim omillar - deb belgilaydi olima Yu.V.Kats:

- 1) So‘z matni jumlalarining (ijrodagi) yakuni;
- 2) Kuy tuzilmalarini tarkibiy ravonligi (simmetriyasi);
- 3) So‘z bo‘linishlari . . .
- 4) Musiqiy kuy bo‘laklari (frazalari);
- 5) Tinish jarayonlari (pauzalar) ...

- 6) Nafas olish joylari (uslublari) ...
- 7) Kuyda tovush cho‘zimlarini uzaytrish (uslubiyotlari);
- 8) Kuydagи metro-ritmik tuzilmalarini aniq qaytarish;
- 9) Kuyda ma’lum bo‘laklarning boshqa balandlikka ketma-ket va aniq qaytarish (sekvensiyalari);
- 10) Og‘zaki matndagi tinish belgilari...
- 11) Asarning kadans davralari;
- 12) Kuyda metro-ritmik tuzilmalarini o‘zgarishlar bilan qaytarilishi.<sup>51</sup> ( Tarj. B.S.).

Muallif qayd etgan sifatlarni xonanda nazarida tutib, mumkin darajada rioya qilsa, **xonish** omilidagi ijro, har tomonlama bu jarayonning mohiyati nuqtai nazaridan mukammal ifodasini topadi.<sup>52</sup>

Ijrochilikda muhim bo‘lgan sifatlarini alohida olganda, har biri o‘ziga xos ahamiyatga egadir. Chunki, asarning umumiyligini ifoda etishda musiqa va so‘zning mazmuni, ularning ohang vositasidagi talqini, kuy rivojining pog‘onalari, dinamikasi muhimdir va o‘zining ijroviy qonuniyatlari hamda jihatlariga egadir. Har bir kuy va so‘z jumlalarning boshlanish tugallanishlari, kuyning metro-ritmik jihatlarni o‘zaro uyqashligi, xonandaning bilimi va imkoniyatlari darajasini anglatadigan tamonlaridir. Ana shu jarayondagi barcha xususiyatlar uyqash holda asarning ichki va tashqi dunyosini ifoda etish uchun lozim bo‘lgan musiqiy omillardir.

---

<sup>51</sup> Кац.Ю.В. Основы (моделирование) формирование музакального анализа. Рукопись, Биб. ТДК им. М.Ашрафи. Инв. № 2794. Т., 1986г. 103 с.

<sup>52</sup> Ijro saviyasi, mohiyati va tarkibiy xususiyatlarning sifatlariga ijrochilik maktablarining ijro uslubini ochib berishda yondashamiz.

Musiqiy asarning talqini, so‘zdan (matndan) mustasno holda, o‘zining ichki qonuniyatlariga bo‘ysunishi hammaga ayon. Bu qonuniyatlar *tovushqator*, *usul*, *tuzuk*, *turg‘un tovushlar va kuyning tarkibiy shakllari* bilan izohlanuvchi tomonlari bilan xarakterlanadi. Bu jarayonni biz “ijro tarkibi” deb qabul qilamiz.

Odatda, har bir musiqiy asar ma’lum tovushqator tizimida harakat qiladi. Harakatlarning qay darajada ifoda topishi asarning bastakori tomonidan belgilanadi, qolaversa ijrochi talqinida jonlanadi.

Ijro jonlanishi tovushlarning lad tarkibdagi o‘zaro bog‘lanishga asoslanadi.<sup>53</sup> Lekin, bu bog‘lanishda har bir kuy bo‘laklari (jumlalari) alohida va asar doirasida jumlalarning bir butunlikda tarkib topishida tovushqatorning asosiy va yondosh tovushlarning mutanosib tarkib topishi muhim mezondir. Bu ma’noda xalq va mumtoz ijodiyot janrlari o‘z tarkib (shakliy tarkib) lariga egadirlar. Xalq musiqa ijrochiligidagi, ayniqsa badihago‘ylik, erkin talqinga asoslangan ijro turlarida asar tarkibi qisman bo‘lsada o‘zgarishga uchraydi. Lekin, tarkibiy qismning asosiy tizimini shakllantiruvchi turg‘un tovushlar, harakatdagi turg‘un tovushlar, ularning rivojlanish jarayoni va tugallanish jabhalariga asoslangan holda gavdalanadi. Bu albatta ijro tarkibining negizini tashkil etadi.

Har qanday musiqa asarining talqinida yuqorida ko‘rsatilgan ijro saviyasi, mohiyati va tarkibiy sifatlari qanchalik to‘la ifodasini topsa ijro o‘zining shunchalik mukammal ko‘rinishini topadi.

---

<sup>53</sup> Lad – bu yechilishga intilgan tovushlarning o‘zaro bog‘lanish tarkibi.(Y.V.Kas)

## FARG'ONA VODIYSI HOFIZLIK MAKTABLARI.

Shaxsiy ijrochilik uslubini yaratishga tuyassar bo'lguvchi har bir xonanda, avvalo talqin bilan xarakterlanuvchi ijobi jihatlarini o'ziga xos shaklda kashf etishi lozim. Bu jarayonda namoyandalar "ijrochilik" mezonidagi, hofizlik san'atini egallash davridagi barcha amallar bilan bog'liq bosqichlarini o'tashi va doimiy izlanishi, idrokhanishi va har bir amalga ijobiy yondoshishi muhimdir. Hofizlik maktablarini yoritishda, yuqorida keltirilgan an'anaga xos bosqichlar asosida tahlil etish nuqtai nazaridan yondoshamiz.

Xonandaning san'atga bo'lgan iste'dodini yo'naltiradigan va shakllantiradigan, uning ma'naviy dunyosiga ta'sir etadigan mezon – uning yashash sharoiti va doimo uni o'z og'ushida saqlovchi davr musiqa namunalaridir. Ma'lumki, Farg'ona vodiysi mumtoz musiqa janrining yorqin namunasi bo'lgan "katta ashula"ning keng ommalashgan diyori. Xalqning turli anjumanlarida, qadriyatlar bilan bog'lik marosimlarida, to'y tomoshalarida o'z zamonasining yirik hofizlarini xonishlari bilan ta'minlagan namoyandalarning o'ziga xos talqinlari – eng ta'sirli, badiiy va estetik imkoniyatlarga boy jihatlar hisoblanadi. Tabiiy iste'dod egalarining bundan ozuqa olishi, oqilona ijobi etilayotgan mumtoz musiqa namunalarining sehrli sadolari inson qalbida unga munosabat, intilish, ishq uyg'otishi muqarrar.

Tug'ma iste'dod sohiblari bo'lgan, o'z zamonasining yetuk san'at namoyandalari darajasiga erishgan Sodirxon hofiz, Jo'raxon Sultonov va Rasul qori Mamadaliyevlarni musiqa san'atiga yetaklagan omillar ham ana shu xalq anjumanlaridagi ustozlar xonishlarining sehrli

ohanglar tarannumidir. Shu bilan birga, yashash sharoitlari, ijodiy muhit va e'tibor ularning aynan shu sohada faoliyat ko'rsatishlariga zamin yaratgan.

Hofizlik san'atini mukammal egallash turli mezonlar, ya'ni ijrochi uchun muhim bo'lgan davralarni o'tashi bilan xarakterlanadi. Shulardan, an'anaviy ijrochilik shakllanish davri (ya'ni hofizlik shakllanish davri) ushbu jarayonning ustoz-shogird saboqlari tarkibidagi xonanda o'zlashtirishi zarur bo'lgan "a m a l" bilan uzviy bog'liqdir. Bu amallarni o'zlashtirishda xonanda uchun asosiy omil – ustozning ijrochilik san'atida erishgan talqin uslubi, o'rni va bilimi bilan bog'liq saboq jarayonidir.

Ustoz-shogird jarayonini har bir san'atkor ma'lum darajada mukammal o'zlashtirishi lozim. Odatda, ustoz-shogirdlik jarayoni faqatgina aytilib kelinadigan og'zaki an'anadagi musiqa namunalarning amallarini o'zlashtirish yoki ustozdan og'zaki uslubida o'rganish bilan chegaralanmaydi. Balki, uning shogirdlik davri qancha dovom etsa, shuncha muddat davrida o'z ustozni yonida ijrochilik bilan bog'liq barcha tadbirdarda qatnashib, ijrochilik san'atini amaliy jarayonda o'zlashtirishi ham muhim holdir. Shogird o'z ustozining kasbiga, odob axloqiga, muomalasiga va talqiniga tegishli barcha xususiyatlarini ko'zi bilan ko'rishi, qulog'i bilan eshitishi va takrorlashi, o'rnak olib o'zlashtiirishi, uning ijrochi sifatida shakllanishida katta ahamiyatga egadir. Shu bilan birga bu davr boshlanishi<sup>54</sup> va tugallanish (nihoyasiga

<sup>54</sup> Shogirdlikni niyat qilgan har bir iste'dod egasi, o'z kasbining mohir ustozlaridan biriga (o'zi yoqtirgan) mehr qo'yadi. Uning roziligin olish uchun ustozini oldiga boradi. Ustoz xayrixohlik bildirganidan so'ng, "uni eti sizniki, suyagi bizniki", "sizning dargohingizda odam bo'lib chiqsin" qabilidagi muomalalar bilan ustoz tarbiyasiga topshirilgan.

etish)<sup>55</sup> kabi o‘ziga xos an’analari bilan xarakterlanadi. Saboq davri qaysi bir shaklda bo‘lmasin ana shu boqsichlardan (o‘rganish, o‘zlashtirish, takominllashtirish, faoliyat va ijod etish) o‘tadi. Shundagina hofizlik darajasiga erishiladi. Ma’lum ijro uslub yaratilishi, uning faoliyati davomida va ijrochiligi amaliyotida muayyan ijro talqinida erishgan hamda bu jihatlar faqatgina uning o‘ziga xos tomonlari bilan bog‘liqdir.

---

<sup>55</sup> Saboqning nihoyasi, ma’lum sohani zarur darajada egallab, kerakli tajriba orttirilgandan keyin, ustoz nazdidagi saboq shogird tomonidan o‘zlashtirilganiga ishonch hosil bo‘lgandan so‘ng, davrining bir nechta ustoz san’atkorlari ishtirokidagi o‘ziga xos imtihon sinovi shogirdlik davrining so‘ngi bosqichidir. Shu bilan birga xalq orasida “ustoz fotihasi”ni olish va unga hurmat yuzasidan, ko‘p yillik xizmatlari uchun “sarpo kiygizish” tadbiri bilan bog‘liqdir.

## SODIRXON HOFIZ.

Ashula ijrochiligi Markaziy Osiyo xalqlarining xususan, o‘zbek va tojik xalq sozanda va xonandalarining o‘tmishdan turli ko‘rinishlarda ommalashgan ijod sohalaridan biridir. Ovoz vositasida talqin etish, ya’ni hofizlik san’atini mukammal egallagan, o‘z ijrochilik faoliyatida mustaqil ijro uslubi va bir qator shogirdlar misolida maktab darajasiga erishgan namoyandalardan biri Sodirxon Bobosharifovdir.

“12 yoshda otadan yetim qolgan Sodirxon bolalarga xos yashash tarzida ko‘proq tengqurlari davrasida chiroyli xonishlari va mazmundor so‘zlari bilan ajralib turar, jarangdor va jozibali ovozini ko‘proq katta yoshdagagi ijrochilar talqiniga taqlid etishga urinar edi. Kunlarning birida, Xo‘jand muzofoti Rummon<sup>56</sup> qishlog‘ining ziyoli kishilaridan biri Qozi Buzruk xo‘ja<sup>57</sup> uning xonishidan xabar topadi va o‘z tarbiyasiga (onasining ruxsati bilan birgalikda) oladi”<sup>58</sup>. Buning asosiy sabablaridan biri—Sodirxonning latif, kuchli va ta’sirli ovozi, tug‘ma iste’dodi, cheksiz qobiliyati edi. Said Buzrukxon boladagi bu jihatlarni uning xonishidan, ko‘rsatgan muomalasidan anglatdi va uning kelajagini ko‘ra bildi. Ilmu ma’rifatning qadrini bilgan Said Buzrukxon Sodirxonning tarbiyasiga alohida e’tibor bilan yondoshadi va nafaqat musiqa, balki o‘z davrining ta’lim jarayonida zarur bo‘lgan bir qator

<sup>56</sup> Rummon – Xo‘jand shahri yaqinidagi qishloq. Sodirxonning ustozlari yashab ijod etgan joy.

<sup>57</sup> Qishloq qozisi /Said Buzrukxon/. U ko‘p ilmlardan xabardor davrining ziyoli kishilaridan edi. Maqom ilmini ham ma’lum darajada bilgan. Tartib intizomli jiddiy shaxs. Cholg‘u sozlarini mohirona chertgan.

<sup>58</sup> Muallifning 1991 yil aprel oyi, Xo‘jand, Rummon, Qo‘qon, Beshariq, Oltiariq tumanlarida o‘tkazgan ilmiy ekspedisiya materiallaridan. Sodirxon shogirdlaridan biri Marufxo‘ja Bahodirov bilan suhbatdan.

ilmalarni o'rgatadi. Sodirxon o'z ustozidan avvalo, "qiroat" ilmidan saboq oladi. Chiroyli va yoqimli ovoz sohibi bo'lgan Sodirxonga "Hadis" ilmidan ham saboq berib, Qur'oni Karim oyatlarini ravon, burro, ifodali o'qish yo'llarini va ilmini o'rgatadi. Ma'lumki, bu uslub azaldan hofizlik deb yuritilgan. Shu bilan birga ustozi Sodirxonga she'riyatga katta e'tiqod bilan yondoshishini, har bir mutolaa qilayotgan badiiy namunani mazmuniga tushunib, yod olish, ko'proq shu davrning ommalashgan asarlariga o'z e'tiborini jalb etish lozimligini uqtiradi. Musiqa san'atini to'la tasavvur etish va amalda mashg'ul bo'lishi uchun unga musiqiy cholg'ulardan tanbur sozi ijrochiligidan saboq beradi, an'anaviy musiqaning murakkab usullarini, ularning ijrodagi jihatlarini o'rgatadi. 20 yoshgacha Sodirxon o'ta qattiqqo'l, jiddiy xarakterli Said Buzrukxon ta'limini oladi. Shogirdlik davrida u faqat ustozi qatnashgan majlislar, xonaqoiy<sup>59</sup> o'tirishlarda birga ishtirok etadi.

---

<sup>59</sup> X o n a q o h – maxsus tayyorgarlik bilan uyuştırılıp o'tkazılacağı /tadbir/ joy. Bunday maskan "korxona" deb ham yuritildi. Mazkur tadbirlar Eshonlarning muridlari tomonidan uyuştırılıp, barcha zarur va kerakli ashyolar, mutaxassislar, "narsalar" bilan ta'minlangan. Yig'inga asosan shinavandalar, ziyojolar, hofizlar taklif etilgan. /tadbirni – mayishat, tariqat, haqiqat qabilida o'tkazishgan/. Majlisda yo'lboshchi va nazoratchi Eshon bo'lib, qatnashchilarga ilmu tariqatdan (ma'ruza, dars sifatida) "va'z" o'qigan. Va'zxonlikning tanaffuz paytlarida hofizlar tomonidan ma'noli so'zlar bilan aytılgan ashulalarini tinglangan. Xonaqohlar ko'proq Xo'jand va Qo'qonda uyuştırılıp. /Toshkentda xonaqoyi korxona Shayxontohurda joylashgan. M.Axmedov. / O'rta Osiyo eng obro'li va hashamatli honaqoyi korxona Turkiston (hozirgi Jatbul yaqini)da joylashgan bo'lib, "S ultoni Orifi'm" deb yuritilgan / M.Bahodirov suhbatidan/.

Honaqoyi hofizlar diniy va tarbiyaviy ma'nodagi masnaviy, na'd, marsiya, g'azal, qasida, she'rlarini ohangga solib maxsus uslubda talqinda ijro etadigan ijrochilar.

a) M a s n a v i y – juft qofiyali baytlardan iborat bo'lgan she'r shakli. (Ensiklopedik lug'at). Jumladan, aa, bb, vv... Oldingi dostonlar masnaviy shaklida ijod etilgan. Masnaviyalar asosida pand nasihat, aql-odob borasidagi asarlar yaratilgan. Sanoyi, Attor, Rumiylarning masnaviyalar yangi yo'nalish tasavvuf masnaviyalarini vujudga keltirdi. Masnaviyalarni ohangga solib ijro etish – masnaviyxonlikdir.

b) N a ' t – ta'rif, vasf etish. Payg'ambarlarning hayoti, ijodining tavsifi, ta'rifi. Dimiy mazmunga asoslangan bo'lib, sodda va ravon talqini bilan ajralib turadi. Musiqada esa, na'tlarni ma'lum ohangda ijro etilishi demakdir.

Ustozi Sodirxonga o‘z yo‘nalishlari va unga mumkin bo‘lgan imtihonlarda ishtirok etishga ruxsat berish bilar birga boshqa tadbirlarda qatnashishni ta’qiqlagan. Sodirxon ko‘proq xonaqoyi davralarda ishtirok etgan san’atkorlar bilan muloqatda bo‘lib, ularning ijrolari va xonishlari bilan tanishadi. Shogirdlik davri nihoyasida xonaqoyi hofizlarga xos *masnaviyxonlik*, *marsiyaxonlik*, *na’txonlikka* asoslangan ijrochi qabilida gavdalanadi va xonaqoyi hofiz sifatida shakllanadi.

Sodirxon – keng diapozonli, latif, kuchli tembr ovoz sohibi bo‘lgan. Uning talqini asosan ashulachilik uslubining “*ishkami*” yo‘nalishida shakllangan bo‘lib, ijro jarayonida farg‘ona vodiysi ijro an’analarida keng ommalashgan “*guliguli*” uslubidan ham keng foydalangan<sup>60</sup>. Uning ushbu jihatni asarning barcha qismlarida, jumlalarida shiddatli va kuchli ovozni keng nafasda qo‘llashida, so‘zlarni burro, tushunarli talaffuz etishida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga ijrochilikni Qur’oni Karim oyatlari qiroatidan boshlab, maddohlik san’atini turli ko‘rinishlarini (janrlari: *na’txonlik*, *masnaviyxonlik*, *sarnaqsh* va *marsiyaxonlikni*) amaliy o‘zlashtirib maqom ijrochiligi

---

v) M a r s i ya – marhum xotirasiga bag‘ishlab yozilgan she’r (O‘zbek tili izohli lug‘ati). Kuyga solib xonish qilish – marsiyaning musiqiy ifodasi.

Yuqorida keltirilgan janrlar musiqa vositasidagi talqini, o‘ziga xos uslubga ega. Odatda, ular ushshoq, navo tuzuklari asosida ko‘proq ijro etilgan bo‘lib, talqin uslubi falsafiy g‘oyalarni aks ettiruvchi ohang majmuasida, ohista va erkin usulda talqin etiladi. Ijro jihatlari va xarakterlovchi omillar haqida keyinroq so‘z yuritiladi.

<sup>60</sup>O‘rta Osiyo xalqlarining eng sevimli ashulachilari bu qorin bo‘shlig‘iga asoslangan “*ishkami*” uslub ijrochilari. Ular chuqur nafasga asoslangan, butun diapazon mobaynida sof, nozik ovoz sadolari bilan ajralib turadilar... Shu tufayli ochiq havoda ular tarannum etgan navolar yengil tarqaladi... Xonandalarning o‘zlari bu uslubni ehtiyyot qilganlar, maxsus gumbazli binolarda o‘z ovozlarini aksini tinglab mashq qilganlar. Shu bois uning ikkinchi atamasi ishkami-honaqiyi ya‘ni gumbazli binolarda, atamasi kelib chiqqan.

X o n a q i y i – xonandalar tinglovchiga aniq yetkazadigan go‘zal va burro so‘z talqinlari, ijro etilayotgan asarni ma’nosini ifodali talqin etishlari uchun ardoqlanilgan. /Mullaqandov D/ ( Tarj.B.S)

bilan bog'lagan Sodirxon, ashula talqinida ovoz yo'nalishini o'z tafakkuriga bo'ysundira olgan va bu san'atga erishgan. Kamolotga yetgan davrida u har bir asar ijrosiga ijodiy yondoshib o'z uslubida ijro etishga uringan.

O'tmish hofiz va xonandalarining azaliy (yashirin) an'analari doirasida turli jihatlar shakllangan bo'lib, ular qiyosiy ijod, o'zining ovoz imkoniyatlarini ko'rsatib beruvchi sifatlar bilan sug'orilgan asarlar yaratish, talqin etish kabi omillar bilan xarakterlanadi. Albatta, har bir ijro uslubi o'zining xarakterlovchi muayyan tomonlariga ega bo'lган. Ana shu xarakterli sifatlar negizi ijrochining imkoniyat darajasidagi iste'dodi, sabog'i va talqinining mahsulidir. Hofiz xonandalarni doimiy izlanishga chorlaydigan va o'ziga xos imtihon (nazorat) vazifasini o'taydigan an'analardan biri – maxsus uyuşhtiriladigan anjumanlardir. Odatda, xonandalarning kashf etilishi, ijodi va talqini saviyasini namoyish etuvchi tadbir – xalq ommaviy anjumanlari bo'lган. Sodirxonning "X o n H o f i z" nomini olishiga ham ana shunday tadbir sababchi bo'lган.<sup>61</sup> Albatta nuqson siz latif ovoz sohibi, har bir asarga ijodiy yondoshib, yangi-yangi (ijrolarda) jilolar, rang va sayqal berib ijro etadi.

Sodirxon ijro uslubi erkin talqinga asoslanganligi qayd etildi. Ma'lumki Farg'ona-Toshkent ijro uslubining negizi, erkin ijro mezonlari asosida shakllangan. Vodiya xos barcha janrlar hamda ijro

<sup>61</sup>Samarqandda mashhur san'atkori Hoji Abdulaziz Abdurasulov tomonidan 1920-yili hofiz-xonandalarning musobaqa sifat anjumani tashkil etilgan. Anjumanda Ho'jandan tashrif buyurib, ishtirok etib bir qator asarlar ijro etgan. Sodirxon bu chiqishlarida o'zining barcha ijrochilik imkoniyatlarini ko'rsatgan. Yuqori saviyadagi mohirlikni va yangi ijro uslubini guvohi bo'lган Hoji Abdulaziz unga "Siz hofizlarni Xonisiz" deb jamiyki anjuman qatnashchilariga e'lon qiladi. Hofiz nomiga berilgan bu o'ziga xos "unvondan" so'ng Sodir Bobosharifov nomiga "xon" qo'shib Sodirxon hofiz deb atala boshlangan./M.Bahodirov./

namunalarida qaysidur darajada bu xususiyat o‘z ifodasini topishining sababi ham shundadir. Shu bois bo‘lsa kerak, Farg‘ona vodiysi ijrochilik an’analari o‘ziga xos ahamiyatli o‘rinni egallahsha, ijro uslubi bir qator xarakterli ichki va tarkibiy xususiyatlarni o‘zida ifodalashi lozim. Bu xususiyatlar xonandalik san’atining asar talqini jarayonida muhim bo‘lgan m e t r o - r i t m i k asosi, k u y r i v o j i, j u m l a l a r s h a k l i, n a f a s u s u l i va n a m u d q o‘llash omillarida o‘z aksini topadi.

Sodirxon hofiz ijrochilik uslubining xarakterli jihatlari quyidagi unsurlarda namoyon bo‘ladi:

a) Avvalo, so‘z talqiniga katta e’tibor bilan qarab, uning mazmuni asosida, rukni doirasida burro va tushunarli ifoda etadi;

b) Kuy tuzilmalari, jumlalariga har tomonlama ijodiy yondashadi. Kuy ohanglarini hanglar hisobiga uzaytirish uslubini har bir jumlada kutish va ko‘rish mumkin. Aynan ana shu kuy mavzusiga qo‘shgan qo‘shimcha hanglar ham ma’lum darajada Sodirxon uslubining xarakterlovchi omili sifatida gavdalanadi. Kuy tuzilmalarining ichki simmetriyasi ularning jumlalar hajmi jihatidan o‘zgaruvchan;

v) Ijro jarayonida keng ko‘lamli uzun nafasdan foydalanadi. So‘zlar bo‘linishida faqat kuy rivojigagina emas, balki so‘z vaznlariga ham katta e’tibor berib, so‘zlarning bo‘linishiga imkon bermasdan talqin etadi. Kuy tuzilmalari ko‘p hollarda bir bayt g‘azal ijrosi hisobidan to‘rtga bo‘linadi. Ya’ni, bir jumla ko‘proq, ikki kichik bo‘lak (fraza)lardan tashkil topadi. (Bu ko‘pchilik xonandalarga xos nafas ishlatish uslubi). Xonanda o‘z uslubi xususiyatini namoyish etishda

nafaqat, ikki bo'lak (fraz), balki, uch bo'laklarni bir nafasda talqin etish ko'nikmasiga ega bo'lgan. (Bir nafasda 1,5 bayt ijro etilgan asarning nota namunasi).

Fo - g'on - ki mur - g'i di - la m say - di - - tif - li.....  
6  
no - do ni Ki bo - lu par - shi - ka - nad

Odatda, o'tmish hofizlarining ijrochilik an'analarida bunday holatlar kam uchraydi. Sodirxon ijrochilik maktabining bu amaldan foydalanishi (to'g'rirog'i bunday murakkab elementlarni mahorat bilan uddasidan chiqishi) bir qator zamonaviy mashhur xonanda va sozandalar tomonidan faxr bilan tilga olinadi.<sup>62</sup> Kuy bo'laklarini nisbatan "qatra" ko'rinishida ko'proq cholg'u jo'rnavozligida qo'llaydi. Asarda, cholg'u jo'rnavozligi ham o'ziga xos badiha yo'sinida tarkib topadi. Goh qisqa, bir-ikki takt yoki bir-ikki usul talqinida tarkib topsa<sup>63</sup>, gohida ikki – to'rt jumla hajmida sodda kuy rivoji tarzida badiha topadi. Albatta, bu jarayon ma'lum qismidan keyingi jiddiy bo'limga tayyorgarlik vazifasini o'tash bilan birga cholg'u ijrochiligining ovoz talqini bilan bog'liq xislatlarini ochib beradi;

g) Yuqorida ta'kidlaganimizdek Sodirxon hofiz ijro yo'li erkin talqinga mansub. Bu xususiyat asar talqinidagi metro-ritmik jihatlarida

<sup>62</sup> Sodirxon hofiz uslubining yana bir qiziq tomoni bir, bir yarim qator g'azal matnini bir nafasda ijro etadi. (Sozanda va bastakor O'Imas Rasulov bilan suhbat materiallaridan).

<sup>63</sup> "Qashqarchai Ushshoq" asarining nota namunasiga qarang. Asarda cholg'u ijrosi deyarli qisqa (ko'pchilik mumtoz variantdag'i ijroga xos va ommalashgan) va bir xarakterda, ya'ni asosiy tovush talqinida kuy usulini ifodalashdan iborat.

ham yorqin ifodasini topadi. Mumtoz musiqa asarlarini ayniqsa, Shashmaqom tarkibidagi namunalarni ijrochilik omillari, mumtoz uslubning har tomonlama tartibli, tarkibli, mukammal va murakkab ko‘rinishidir.

Shashmaqomning barcha (ijod, ijro) omillari uning tizimiga daxldor qoidalariga amal qilishni taqozo etiladi. Shu bois maqomot doirasidagi musiqiy namunalar har bir sozanda - xonanda, ijrochi yoki bastakor uchun ham saboq, ham mohirona ijro, ham ijod manbaidir. Ustozona musiqa san’atida maqomot asoslarini kerakligicha idroklay olmasdan ijod etish mushkildir. Sodirxon hofiz Shashmaqom asoslarini, musiqiy talqinini mukammal egallab o‘z vohasida keng targ‘ib etgan san’atkor. Shu bilan birga Shashmaqom sho‘balarini ostida bir qator turkum asarlar ijod etgan bastakor hamdir. (ilovada asarlarining to‘liq ro‘yxati joy olgan).

“Sodirxon ustoz – deb eslaydi hofizning shogirdi Marufxo‘ja Bahodirov – nihoyatda usulga pishiq, Shashmaqom sho‘balarini Buxoro uslubida ham ijro etishga sazovor bo‘lgan san’atkor. Lekin, o‘z asarlarini Shashmaqomdan farqliroq holda ijod etadi va ijro qiladi. Bu farq albatta o‘z-o‘zidan tushunarli. Har bir bilimdon hofiz ashula aytishda ozgina bo‘lsa ham o‘zini ko‘rsatadigan sifatlarini ijo jarayonida bo‘rttiribroq ko‘rsatishga harakat qiladi. Ana shu sifatlarni bevosita asarning metro-ritmik jihatlariga taalluqli tomoni – bu muayyan usulga bo‘ysunmaslik edi. Sodirxon hofizga – “nimaga siz asaringizni talqin yoki qashqarcha deb nomlaysizu – uning usuliga amal qilmaysiz – deyishganida, Sodirxon hofiz – “unda Shashmaqom bo‘lib qoladi” deb javob berar ekanlar. Shuning uchun bo‘lsa kerak unga

mansub bo‘lgan bastakorlik faoliyatidagi asarlarida Shashmaqomga xos usul ravonligi yo‘q”.<sup>64</sup>




Darhaqiqat, Sodirxon hofizning ijrochilik uslublarida o‘ziga xos metro-ritmik tizimi mavjuddir. U albatta, hofizning ijro uslubini xarakterlovchi va mushkil tomonlaridan biridir. Chunki, odatga ko‘ra, muayyan musiqiy asar agar ma’lum usul yoki sho‘ba namunasida yozilsa, usulga itoat etmaslikka asosi yo‘q. Ashula ijrochiligidida bir emas balki, uch jarayon usuli bir vaqtida bir-biri bilan mutanosib holda uyg‘unlashib ijro etiladi. Ya’ni, *kuy usuli, so‘z vazni va usul rukni* (doira vositasida ifoda etiladigan usul).<sup>65</sup> Ko‘p hollarda ana shu uchinchi – ya’ni doira usuliga asoslangan mezon ashulachilar tomonidan o‘ziga xos erkin ijro etiladi. Odatda, xonanda o‘z uslubiga moslab talqin etadi va imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Misol tariqasida Sodirxon hofizning (talqin) “Talqini Ushshoq” asaridan bir namuna tahlil qilamiz:


The musical score consists of three staves of notation. The first staff starts with a treble clef, a '24' time signature, and a key signature of one sharp. It has lyrics: 'Na-do-nis-tan-ki sub-hi' followed by 'ish-ra tam-ro-sho-mi-g'am'. The second staff starts with a bass clef, a '23' time signature, and a key signature of one sharp. It has lyrics: 'bu - dast' followed by 'Pai yak'. The third staff starts with a bass clef, a '24' time signature, and a key signature of one sharp. It has lyrics: 'no' - shi man o - mo - da' followed by 'sad ne - shi si - tam bu - dast'.

Asarga metro-ritmik jihatdan nazar solinsa, uning nota namunasida ma’lum usulga itoat etmasligining guvohi bo‘lamiz. 4, 2, 3 hissadagi (chorakdagi) o‘lchovlarning o‘ziga xos almashinib kelishi

<sup>64</sup> Muallifning 1991 yil aprel oyidagi Xo‘jand ilmiy ekspedisiyasi materiallaridan.

<sup>65</sup> Doira usuliga odatda so‘z va kuy usuli ergashadi (moslashadi).

tartibli, kuy rivojining usulga bo‘ysunmay, erkin harakatini ko‘rsatadi. Lekin, 9, 10, 11 taktlarda bu asar aynan “talqin” usulining (“talqin”) erkin ijrosiga asoslanganligini anglab olish qiyin emas. O‘ziga xos uchlik (triol) larda nota ifodasini topgan kuy, ijrochi talqinida sekinlashish va tezlashish uslubi negizida yashirin “talqin” usulidan foydalanadi.<sup>66</sup> Bizga ma’lum, “talqin” 3/8, 3/4 o‘lchovli usul bo‘lib, 4,5 chorakdan tarkib topgan. Ijroda bir takt – usul ikki o‘ziga xos bo‘lakga bo‘linadi. 3/8  va 3/4  birinchi bo‘lagi nisbatan tez, ikkinchisi (choraktali cho‘zimli) ravon harakatli bo‘lakka go‘yoki tayyorlanayotgandek. Ana shu xislat (talqin usulining sifati) har bir ijrochida o‘ziga xos ko‘rinishda tarkib topadi. Ayrim xonandalar (va Shashmaqom) talqinida usul mutanosibligi shartli ravishta ravon – bir tekisda ifodalangan bo‘lsa, ko‘proq badihaga asoslangan ustozona ijro yo‘llarida erkin ifodasini topadi. Shu bois biz misolda berilgan 9,10 taktlardagi 4 hissali () nota ifodalarini shartli ravishda




<sup>66</sup> Ijro jarayonida muntazam harakatning o‘ziga xos sekinlashishi yoki tezlashishi barcha vohalarning hofizlari ijodida keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, “s u v o r a”, “t a l q i n”, “c h a p a n d o z”, “y o v v o y i” va k a t t a a s h u l a l a r ijrosida bu usul munosib ifodasini topadi.

<sup>67</sup> Sodirxonning talqin yo‘lidagi Ushshoq namunasi juda o‘ziga xos. U barcha talqinlarga o‘xshaydi.

Talqin usuli yashirin holda kuy ichidan joy olgan. Asarni bu tomoni ancha mushkil. Lekin, usulga tushirish mumkin. Agar talqin usuliga to‘la-to‘kis tushirilsa Sodirxon uslubiga xos bo‘lmay qoladi. Shashmaqom tarkibiga (“kirib qoladi”) xos bo‘ladi. Bu asarning Sodirxon uslubiga xarakterli tomonlari ham shunda... (Marufxo‘ja Bahodirov suhbatidan).

Metro-ritmik omilning erkin qo'llanishi Sodirxon ijro uslubida yana bir ko'rinishda o'z aksini topgan. Bu ko'rinish asarning (ko'proq) avj qismlarida usuldan vos kechish bilan xarakterlanadi. Bu jarayon, asarning avj bo'laklarida usulning sekinlashishi (usul sur'atining sekinlashishi va nisbatan ohistalik va urg'u bilan talqin etilgandan so'ng) yana qayta o'z izmiga tushishi Xorazm Suvora ijrochilik an'anaside munosib joy olgan bo'lsa, Sodirxon uslubida bu amal o'zgacha tarkib topadi. Sodirxon hofiz ijodining deyarli barcha namunasida bu usuldan foydalangan bo'lib, asarning ma'lum qismini, usulsiz, qariyb bir balandlikda badiiy ifoda vositasida talqin etadi. Ayni paytda kuyning mazkur bo'lagi ham o'ziga xos tugallangan g'oyaviy (fikrli) musiqiy jumlanı tashkil etadi. Bu omil uning "Qashqarchai Ushshoqi Sodirxon" asarida quyidagicha ifodasini topgan:



Mazkur misolda musiqiy jumla uch qismdan iborat bo'lib, (*a, b, s*) asarning eng yuqori pog'onasida talqin etiladi va bir nafasda bo'linmay ijro etiladi. Jumlaning birinchi bo'lagi bir balandlikda (*Lya* tovushida 50-bet) o'ziga xos talqin etilsa, ikkinchi bo'lagi "vatad-i majmu"<sup>68</sup> bahri asosida rivoj topadi. Uchinchi "hang"<sup>69</sup> usulida jumlanı (musiqiy kuy fikrini turg'un tovushga tomon bosqichma-bosqich harakat bilan yechib) yakunlaydi. Ana shu qisqa jumlaning o'zida xonanda ohang turkumining o'ziga xos uch ko'rinishini ijroda qo'llaydi. Ko'rinishi sodda bo'lgan bu kuy tarkibiga nazar solinsa, so'z

<sup>68</sup> Vatad-i majmu – vaznidagi usullardan biri bo'lib, muayyan shaklga ega.

<sup>69</sup> "Hang" – so'zsiz kuylash.

bo‘g‘inlariga mutanosib holda kuy bo‘g‘inlarining silsilasi tashkil topganini ko‘ramiz.

Odatda, nazmiy so‘zlar musiqiy ohanglarda badiha uslubida o‘qilsa bunda ko‘proq ifodali o‘qish sifatlaridan foydalaniladi. Badiiy o‘qishning o‘ziga xos ruknlari, vaznlari kabi maxsus tarkiblari mavjud. Agar ana shu omildan kelib chiqib qaralsa, jumlaning birinchi bo‘lagi

(♪ ♪ ♪ ♪ ♪ ♪) ikkinchi bo‘lagi 4 marotaba ♫ ♫ ritmik tarkibdan iborat bo‘ladi. Demak, mazkur misolda *fasilaye kubra*, *fasilaye surga* va *vata d-i majmu* larning ketma-ket kelishi ( ◻ ◻ ◻ - I ◻ ◻ - I ◻ - ( ◻ - ◻ - ◻ - ) va undan so‘ng bu harakatning o‘ziga xos furovardi o‘ylangan g‘oyani uch marotaba tasdiqlab yakunlanishida o‘z ifodasini topgan. Bu fikrni xonanda “hang” orqali ifodalab beradi. Shu musiqiy namunanining namud qismidan keyin va furovard qismidan oldin badihago‘ylik asosida yana bir jumla keladi. Bu jumlaning vazifasi, o‘rni oldingidan o‘zgacha, ya’ni tarkiban va ohang jihatlama – furovard qismiga tayyorlashdan iboratdir. O‘ziga xos “koda” uchun zamin sifatida xizmat qiladi.

16

Mar - du - mon go' - yanu - ki Xus - rav Buz - pa - ros - ti me - ku - ni - d

Hofizlar tomonidan qo‘llaniladigan bu uslub amaliyotda “yo v v o y i y o‘l” (talqin) deb ham yuritiladi.<sup>70</sup> Yovvoyi uslubning negizida erkin-badihago‘ylikka asoslangan talqin orqali, ijrochi shaxsiy uslubi yo‘lida o‘ziga xoslik xususiyatlarini ko‘rsatishga harakat qiladi. Ayni

<sup>70</sup>“Yovvoyi” – uslub haqida I-qismida kengroq yoritilgan.

holda Sodirxon uslubiga xos bo‘lgan jihatlar – asarning yuqori pardalarida ovozdan mohirona foydalanish, kuy ohang asosida badihago‘ylik mahoratini ko‘rsatish, avj qismini yanada keng ko‘lamligini ko‘rsatish, uslubga xos uzun nafas ishlatish omilini ustalik bilan qo‘llash;

d) Sodirxon ijro uslubining xarakterlovchi omillaridan yana biri asarning tarkibiy qismlariga o‘ziga xos yo‘nalishda qo‘srimcha shoxobchalar yordamida rang berishdan iborat. Bu omil Shashmaqom ijrochiligidagi asarning tarkibiy qismlari bo‘lmish “daromad”, “miyonxat”, “dunasr”, “avj” va “furovard” jabhalarining umumiyligi shaklidagi mutanosiblik qoidalariga to‘la amal qilmasdan, kuyni rivojlantiruvchi, sayqal beruvchi (qo‘srimcha kuy bo‘lagi) ohanglarni unga qo‘sish bilan izohlanadi. Aniqroq tasavvurga ega bo‘lish uchun biz “Sodirxon Ushshog‘i” musiqiy namunasidagi jumlalarni taktlar sanog‘iga bo‘lib chiqamiz:

4 – 4 – 2 – 9 / 8-1 / - 2 – 16 / 8-8 / - 4 – 7 – 8 – 4 – 10 / 8-2 /  
- 1 – 9 / 8-1 / 8/shahd/ - 4 – 8 – 2 – 9 / 8-1 / - 2 – 13 / 8-5 /  
- 14 / 8-6 / - 4 – 17 (8-9/shahd-badiha) – 4 – 10 / hang/ - 16/8-8/<sup>71</sup>.

Asarning umumiyligi hajmi 192 taktdan iborat bo‘lsa, shundan:

- 33 takti cholg‘u talqini;
- 159 taktlari esa ovoz talqinida ijro etiladi;
- 159 taktning 96 takti asarda mujassam topgan VI “x a t” ning so‘z matni asosida ijro etilsa;

<sup>71</sup> Doira ichiga olingan sonlar cholg‘u talqinidagi kuy bo‘lagining takti sanog‘i; alohida yozilgan sonlar – ovoz vositasidagi ijro etilgan jumla taktlarning sanog‘i(hajmi); Qavs ichiga olingan sonlarning birinchisi – asarni so‘z bilan talqin etiladigan asosiy bo‘laklari, ikkinchi son –oldingi ashula bo‘lagini “shahd”, “hang”, “badihago‘ylik” uslublari asosida rivojlantirilgan qismlarning takti sanog‘i.

- 63 taktlar qo'shimcha hisoblanib, "shaxd", "hang", "badihago'ylik" uslubida rivoj topadi.

O'z o'zidan ko'rinish turibdiki, ijrochi asar talqinida asosiy g'oyani (xatlar) badihago'ylik uslubi asosida rivojlantirishga alohida ahamiyat beradi. Aynan shu omil yordamida shaxsiy ijob yo'lini ifoda etishga harakat qiladi.

Asarga tahlil nuqtai nazaridan yondoshadigan bo'lsak, ijrochining *soz talqini*, *jo'rnavozligi*, *so'z talqini* (so'z bo'linishi, ohangga asoslanishi, badiiy nutq asosida talqin etilishi), *tovush cho'zimlarini o'zlashtirilishi*, metro-ritmik tuzilmalarini o'zgarish bilan qaytarishlari kabi xususiyatlarni yaqqol sezish mumkin.

Sodirxon hofiz ijob jarayonida cholg'u sozini asosan ikki maqsadda qo'llaydi:

**Birinchidan**, ashulaning ovoz talqinidagi qismlarida jo'rnavozlik qilib ovoz vositasidagi sadoni tanburdan taralgan ohang bilan boyitish, va so'z bo'g'inlari munosabatidagi keskinlikni (harakatni) sadolanish nuqtai nazaridan yumshatish;

**Ikkinchidan**, asardagi har bir o'zgaruvchan tonikani kuy usulida ifoda etish – ya'ni, doimiy ijroni o'ziga xos tarzda kuzatib turish vazifasidir.

Yuqorida zikr etganimizdek, ashula ijrochiligi uslubida Sodirxon so'z matnini aniq, burro va ravon talqin etadi. Kuylashda qo'llaniladigan "sayqal", "bezak", "qochirim" usullaridan meyorida foydalanadi. Odatda, ashula ijrochiligining sayqal bezaklari Sodirxon uslubida ohang bo'laklari va jumllalari ko'rinishida turkum tarzda ko'proq tarkib topadi. Bu jarayonda u yuqorida ko'rsatganimizdek

badihago‘ylik usuli asosida “sh a x d”<sup>72</sup> va “hang” ijro uslubidan keng foydalanadi.

An’anaviy ashula ijrochiliga xos bo‘lgan “shaxd” uslubini qo‘llashda Hofiz – uch maqsadni ko‘zlaydi:

1) Ovoz yurg‘izishni kuy ohangida mashq qilish (ovozni sozlash jarayoni, “raspevka”);

2) Musiqiy namunada navbatma-navbat keladigan avj qismlariga o‘zini va tinglovchilarni tayyorlash;

3) Hofizlik mahoratini ko‘rsatish.<sup>73</sup>

Ma’lumki, xalq musiqa ijrochiligi amaliyotida hofizlar ko‘p hollarda ovoz talqin etish a’zolarini sozlamasdan, tayyorgarliksiz (mashqsiz) kuylashga duch kelgan. Bunday hollarda, ijrochilikning g‘arb madaniyati vokal ijrochiligi asosidagi ijro uslubida maxsus tayyorgarliksiz (raspevkasiz) ijrolar amalga oshirilmaydi. Aks holda ko‘zlangan natijaga erishilmaydi. Ustozona musiqa ijrochiligida esa, o‘tmish hofizlar bu omilni an’anaga moslab shakllantirganlar va o‘ziga xos tarzda ijro amaliyotida qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilganlar. Shu bois xonandalar ijroning boshlanish qismlarida, asarning ladi, usuli asosida ovoz yurgizish maqsadida bu tadbirdan keng foydalanganlar. Bu jarayonni uning ijro uslubi va ijodiy asari bo‘lgan “Qashqarchai Ushshoqi Sodirxon” misolida quyidagicha kuzatish mumkin:

<sup>72</sup> “Shaxd” – tojik xalq musiqa ijodiyotida mavjud “falaq” janri talqinida qo‘llaniladigan ijro uslubi. O‘tmish hofizlarning ovoz sozlash maqsadida foydalangan usullari (Begmatov S. //Rajabiyyonlik//)

Shaxd uslubi bilan xonish boshlash “xonaqoyi” ashulachilarga xarakterlidir. Bu uslub sekin – asta tinglovchini sozlashdir. (M.Bahodirov)

<sup>73</sup> Begmatov S. Ushshoq (Sodirxon Hofiz va Yu.Rajabiy talqinlarida), //Rajabiyyonlik ilmiy anjuman materiallari. T., 1994 y.35-36 -b.



Ushbu musiqiy namuna Sodirxon hofiz shogirdlaridan biri, ijrochilik maktabi davomchisi, Xo‘jandlik Hofiz Ma’rufxo‘ja Bahodirov ijrosida yozib olingan. Bu asar talqini yuqorida keltirilgan “shaxd” uslubiga yorqin namuna bo‘la oladi. Unda xonanda “hang” yo‘lida “shaxd” uslubini ochib bergan.

Asarning ushbu qismini o‘ziga xos to‘rt bo‘lakka bo‘lish mumkin. Birinchisi, – cholg‘u sozida asarning lad tizimi, tonligining asosiy tovushi va uning usuli jihatini ko‘rsatib bersa, (1-2 takt) ikkinchi bo‘lagi ovoz talqinida bu holni tasdiqlaydi (3-4 takt). Shu bilan birga ovoz talqini ijrochi ovozini sozlashda va tinglovchini diqqatini jalb etish nuqtai nazaridan ham ahamiyatga egadir. Kuyning uchinchi bo‘lagi cholg‘u usuli bilan tanishishdan so‘ng ma’lum ritmik tuzilma yordamida tovushqator pog‘onalari bo‘ylab, bosqichma-bosqich yuqoriga (kvinta pog‘onasigacha) harakat qilib (6-7 takt, sekvensiya uslubida yuqoriga uch bo‘lakli harakat), o‘ziga xos sodda ritmik tuzilma yordamida yana asosiy tovushga qaytadi (7-8 takt, pastga ikki harakat). Tovushqatorning har bir bosqichlari o‘ziga xos ichki (kontrast) ziddiyatga ega bo‘lgan va ma’lum ohangga asoslangan ritmik tuzilma yordamida alohida urg‘u bilan ko‘rsatiladi.

“Shaxd” uslubining harakat davomida shiddatli tus olishi, dinamika jihatdan kuchayishi, asosiy pog‘onalarning bo‘rttirib ijro etilishi va nihoyat asosiy tonga (bosqichga) qaytish harakatlari bu asarda ma’lum darajada o‘z aksini topadi. Bu harakatlar o‘zgacha ko‘rinishda 10, 11, 12 –taktlarda rivoj topib, asarning “daromad” qismi tarkib topishiga imkon yaratib beradi.

O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, bu misol Ovro‘pocha uslubda ashula talqiniga tayyorgarlik jarayonida foydalanadigan amaliy mashqlarga xosdir. (Faqat qisqa muddatda ham ruhiy va ham jismoniy o‘zini tayyorlash amali deb tushunish lozim). Vokal ijrochiligidagi ashulachi ritmik kuy tuzilmalari ohangida ovozni yuqori pardalargacha ma’lum muddat ijro etib, o‘zini va ijro a’zosini sozlaydi. Biz ko‘rib chiqqan musiqiy namunada Hofiz bu amalni o‘ziga xos tarzda qo‘llaydi va unda nafaqat ovoz sozlash, balki tinglovchilarni sozlash asarga kirish kabi vazifalarni ko‘zlaydi. Chunki, bu misolda ohang jihatdan tuzilgan ritmik majmuuning to‘rt xil ko‘rinishdagi namunasi o‘rin olgan. Shu bilan birga harakatlar ham o‘ziga xos to‘rt yo‘nalishda o‘z ifodasini topdi.


Mumtoz musiqa ijrochilar odatda, ushbu yo‘nalishdagi musiqa asarlariga imkoniyatlari doirasida namud qo‘sib ijro etishgan... — “har bir hofiz ashula yo‘lini puxta va chiroyli ijro etish uchun o‘z ovozining imkoniyatlari doirasida unga ma’lum o‘zgarishlar kiritadi. Hofiz ovozining kuchli va baland pastligiga qarab ashulada mavjud bo‘lgan kuy bo‘laklarini qisqartirib yoki ularga namudlar kabi qismlar kiritishi mumkin. Masalan, Buxorolik hofizlar Qo‘qon Ushshog‘i Segoh, Ushshoq, Uzzol va Muxayyari Chorgoh namudlarini qo‘sib aytgan

bo‘lsalar, Farg‘ona vodisida esa faqat namudi Segoh bilan cheklanganlar. Tojikistonda unga hatto Zebo Pari avjini ham qo‘sib ijro etganlar”.<sup>74</sup> Bu o‘ziga xos murakkab amal bo‘lib, faqatgina ustozona musiqaning mohir, bilimdon ijrochilari uni o‘z ijro talqinlarida imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qo‘llaganlar. Buning negizida ham bilim va tajribaning alohida o‘rni va ahamiyati mavjud.

Ijrochilik amaliyotida, asarning eng yuqori cho‘qqisi bo‘lmish har bir avj qismiga maxsus tayyorgarlik tadbiri ko‘rilgan. Bu tadbir albatta yana ijrochi imkoniyati darajasida amalga oshirilgan bo‘lib, Sodirxon hofiz ijrochilik uslubining deyarli barcha ijrochilik namunalarida qo‘llanilganligini guvohi bo‘lamiz. Lekin, har ko‘rinishda u turli sifatlardan tarkib topadi, mohiyati darajasida esa o‘ylangan g‘oyani ochib berishda ta’sirini ko‘rsatadi. Jumladan: “Qashqarchai Ushshoqi Sodirxon” deb nomlanuvchi musiqiy namunada quyidagi ko‘rinishda keladi:



Xuddi shu omilni biz Sodirxon hofiz ijodiga mansub yana bir asar, “Ushshoqi Sodirxon”da ham kuzatamiz. Bu asarda biz yuqorida qayd etilgan ijro omili quyidagi ko‘rinishda keladi:



<sup>74</sup> I.Rajabov. “Maqom masalalariga doir”. T., “Fan”, 1963 y. 269- b.

“Qashqarchai Ushshoqda” keladigan bu “shaxd” cholg‘u peshravidan keyin kelib, navbatdagi “namud” qismiga tayyorlash vazifasini o‘taydi. Chunki asar tonligining to‘rtinchi bosqichi vaqtinchalik (yoki ko‘chma) turg‘unligi cholg‘u bo‘lagida tasdiqlanadi. Lekin, namud qismi 3 – 4 – bosqichlaridagi o‘ziga xos harakat va ohanglardan tuziladi. Shu bilan birga, namud qismining asar g‘oyasiga mos keltirish uchun, ovoz talqinidagi kuy bo‘lagi “shaxd” yordamida unga zamin yaratib beradi. Shu bois cholg‘u talqinidan so‘ng ovoz vositasida hofiz shaxd yo‘lida bir jumla ijro etadi.

Ikkinchi misolda, “Ushshoqi Sodirxon” asaridagi “shaxd”ning o‘zgacha ko‘rinishida kelishini guvohi bo‘lamiz. Unda “shaxd” hanglar yordamida asarning yuqori pardalarida, badihago‘ylik uslubida asarning asosiy g‘oyasini yana bir bor bo‘rttirib ko‘rsatadi va furovard qismiga bog‘laydi. “Shaxd”ning ko‘rinishi ma’lum qismiga tayyorlash vazifasi bilan birga, ijrochining ustozona mahoratini talqin etishi bilan ham xarakterlanadi.

Hofizlik mahoratini ko‘rsatish omili mumtoz musiqa namunalari talqinida (xususan Shashmaqom) asarning barcha qonun qoidalari asosida mukammal ijro etish bilan xarakterlansa, shaxsiy ijro yo‘llari asarlarga turli tus berish uslubiyatlaridan keng foydalangan holda asar talqinini gavdalanantirish o‘rinli bo‘ladi. Mashhur Hofiz Marufxo‘ja Bahodirov bu omilni Sodirxon hofiz ijrosi misolida quyidagicha izohlaydi: – “xalq orasidan chiqqan, ijodkor, o‘z kasbini namoyish etuvchi har bir san’at namoyandalari o‘zini ko‘rsatish uchun, o‘ziga xos – bevosita amalda kimligini ta’riflay oladigan tomonlarini ko‘rsatishga harakat qilganlar. Bu holat o‘tmish hofizlarida ham bo‘lgan. Albatta,

biz shu holni Sodirxon hofiz ijodida ham ko‘ramiz... Ayniqsa “shaxd”, “hang”larida. (M.Bahodirov).

Ijro mahoratini ifoda etish maqsadida “shaxd” asar ijrosi tizimining barcha nuqtalarida, jumlalarida qo‘llanilishi mumkin (bu albatta asar mazmunidan kelib chiqib rivojlartirish va turli og‘ishmalar qilish jarayoni bilan bog‘lanilishi muhimdir). Ana shularning bir turi jumla yakunining o‘ziga xos “cho‘zilishi” hisobida gavdalanadi. Bunda odatdagi kvadrat tuzilmalardan chekinish hosil bo‘ladi. Sodirxon ijro uslubining xarakterlovchi eng yorqin namuna “Ushshoq” asarining daromad qismidan o‘rin olgan:

Ba-yon-ki bu - r - di Yu - suf Di - li Zu - lay - ho -  
8  
ro. jona - man

Ushbu misolda “shaxd” uslubi, musiqiy jumлага ulanib ham davomchi, ham yakunlovchi sifatida tarkib topib, unga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, ya’ni 9-taktga kelib o‘z yechimini (kadans) topgan jumlanı o‘ziga xos rivojlantirib boyitadi. “Shaxd”ning bu ko‘rinishida xonanda o‘zbek ashulachiligidagi ko‘p uchraydigan kvarta, tersiya oralig‘idagi sakrashlarni qo‘llab, uslubiga xos tarzda moslangan holda talqin etadi. O‘ziga xos bu qism ikki bo‘lakdan iboratdir.

Birinchi bo‘lakda xonanda ma’lum ritmik tuzilmani tersiya va sekunda intervallari oralig‘ida yuqoriga tomon silsila (sekvensiya) uslubida harakatlantiradi. Ritmik tuzilma o‘zbek ashulachilik san’atining xarakterli qoidalariga asoslangan. Unda har bir sakrash (yuqoriga) bosqichma-bosqich quyi harakat bilan tasdiqlanadi,

yechiladi. Xonanda uch cho‘zimli tovushlar yordamida o‘ziga xos ohang (sado) majmuini ifoda etadi va shu ohang majmuini bir butunlik sifatida qabul qilib, silsila tarzida yuqoriga tomon harakatlantiradi.

Bu harakat ijroda xonanda tomonidan ashulachilikning eng ommalashgan va ko‘p jihatli “kuylanish”<sup>75</sup> (opevaniya) uslubida talqin etiladi. Asarning bu qismida qo‘llanilgan “shaxd” xonandaning ovoz imkoniyatlarini keng ko‘lamliligi, ser sayqalligi, texnik jihatlama mohirligini ko‘rsatib, nihoyatda keng nafas egasi ekanligi va ijrodagi mohirlik sifatlarini namoyish etishga qodirligini ko‘rsatadi. Bu jihatlar Sodirxon ijrochilik uslubining xarakterlovchi muhim tomonlaridan biri hisoblanadi.<sup>76</sup>

Sodirxon hofiz ijro uslubining t a r k i b i y jihatlari uning asarlarida va musiqiy namunalarini talqin etishda o‘ziga xos ifodasini topadi. Talqin jihatlarini biz Sodirxon ijodiga mansub ikki asar, ya’ni “Ushshoq” va “Qashqarchai ushshoq” ashulalari misolida kengroq ko‘rib chiqishni lozim topdik.<sup>77</sup>

<sup>75</sup> “K u y l a n i sh” (opevaniya) – xalq ashula ijrochiligi talqinida muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan biridir. Shu bilan birga ijrochilik mezonida har bir xonandaning uslubini namoyish etishda keng qo‘llaniladigan, asoslanadigan omildir...

- “...kuy harakating il-turi – kuylanish (opevaniya)... “kuylanish” pastdan, yuqoridan va har ikki tomondan (aylanma) kuylanish turlari uchraydi”(Y.G.Kon).

- “Kuylanish” uslubi va sifatlari musiqa ijrochiligidagi rang – barang shakllarda ko‘p ko‘llaniladi. Ularning o‘ziga xoslik tomonlari va vazifalari haqida tahlil qismida kengroq to‘xtalamiz.

<sup>76</sup> Aynan shu keltirilgan “shahd” haqida M.Bahodirov fikri: “– O‘tmish hofizlari o‘zarो tez – tez ko‘rshib, ijod, suhbat ishtiyoqida bir-birlari bilan mutazam uchrashib turganlar.O‘zlarini yangi ijodlaridan qatnashchilarni bahramand etib, yangi bastalangan asarlardan ijro etishgan. Shunday paytda hofizlar, har biri o‘zining “men” degan joyini ko‘rsatishga harakat qilgan. Ya’ni har biri o‘zining ijrosiga xos jihatlar asosida kuylagan. Ushshoqi Sodirxon ham ana shunday sirga ega. Sodirxon bu asarda o‘zini usta xonandaligini ko‘rsatish uchun bor nafasidan foydalanib, ashula jumlasiga sersayqal “shahd” qo‘sib, o‘z imkoniyatlarini ko‘rsatgan. (1992 y. Meros turkumidagi “Ushshoq” teleko‘rsatuvidan).

<sup>77</sup> Bu ikki asarni tinglashimizdan maqsad, har ikkisi Sodirxon ijodiga mansub bo‘lib, “Ushshoq” asari bu maktab ijrochiligining eng yorqin va mumtoz asarlar namunasida

Ustozona musiqa namunalariga diapazon jihatidan nazar solsak, ularning ikki oktava oralig‘ini tashkil etishi kuzatiladi. Shashmaqom asarlarida o‘z ifodasini topgan bu omil musiqashunos olim I.Rajabov tadqiqotlarida nazariy asoslangan. Shu bois maqomlarning mukammal ijrosi keng diapazonli ovozni talab etishi bir qator manbalarda qayd etilgan. Bunga albatta, maqomlarning nota misollari ham yorqin dalildir. Misol sifatida Yu.Rajabiy tomonidan notaga tushirilgan Rost maqoming Birinchi guruh sho‘balaridan “T a l q i n i U sh sh o q” asarining ijro tovushqatorini keltiramiz:<sup>78</sup>



Ushbu misoldan ko‘rinib turibdiki, asarning ijro diapazoni kichik oktava *do* (S) dan ikkinchi oktava *do* (*S<sub>2</sub>*) oralig‘ini o‘z ichiga oladi.

Sodirxon hofiz ijrochilik an’anasida yaratilgan va ijro etiladigan asarlar ham o‘ziga xos ko‘rinishda tarkib topgan. Ayniqsa bu omil ularning tovushqator tizmlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Quyida Sodirxon Hofiz tomonidan yaratilgan asarlarning tovushqator tizimlarini keltiramiz:<sup>79</sup>


---

yaratilgan. Shu bilan birga uslub shakllanishidagi asosiy asar sifatida gavdalangan. “Qashqarchai Ushshoq” esa maqom sho‘balariga asoslangan.


<sup>78</sup> O‘zbek xalq musiqa . T., 1959 y. U-j. 223-229-b.

<sup>79</sup> 1,2,3,4,5,6 –misollar N.M.Zubkov va YE.A.Prokofyevlar tomonidan notaga olingan asarlarning tovushqator tizimlaridir. (Asarhoi muntaxobi Sodirxon (Bobosharifov), Stalinobod, 1949 g. 14 – 44).

1. Talqin:




2. Dilxirosh:




3. Chorgoh Munojat:



4. Segohi duyum:



5. Segohi seyum:



6. Savti ufar:



7.Ushshoq<sup>80</sup>:



8.Qashqarchai Ushshoq:



Misollardagi tovushqator tizimlari Sodirxon ijodi va ijrosidagi asarlarning deyarli barchasi oktava hajmidagi talqindan dalolat beradi. Bu hol qanday omil bilan xarakterlanadi.

Ustozona xalq musiqa san'ati zamon, makon, sharoit kabi mezonlar bilan bog'liqligi yuqorida qayd etilgan edi. Bu har bir vohada shakllangan ijrochilik uslublarida ham o'ziga xos tarzda ifodasini

"Mashhur xonandalar: Hoji Abdulaziz, Mulla To'ychi, Sodirxon hofiz, Domullo Halim kabi san'atkorlar maqom yo'llari asosida yaratgan bunday variantlarni katta mahorat bilan ijro etibgina qolmay, ular asosida ko'plab ashula yo'llarini ijod etdilar... – deb ta'kidlaydi mashhur musiqashunos olim I.Rajabov, – ... xalq bastakorlari murakkab qiyofadagi maqom yo'llarining necha yuzlab variantlarini hatto, eng oddiy tinglovchiga ham yetib boradigan darajada qayta ishlab ularning ta'biga moslashtirdilar" /I.28.226.268/.

<sup>80</sup> 7, 8 misollar Sodirxon ijro maktabi namoyandasini M.Bahodirov ijrosida yozib olinib, muallif (B.S.) tomonidan notaga tushirilgan asarlarning tovushqator tizimlari (ilovada to'liq kuy berilgan).

Mavjud ilmiy tadqiqotlarni inobatga olib, musiqiy asarlarning nota misollariga asoslangan holda, Sodirxon ijrochilik uslubining tarkibiga xos an'analarni quyidagicha izohlaymiz:

Sodirxon o'z talqinida ovoz imkoniyatlarining asosan yuqori pardalaridan foydalanadi.<sup>81</sup> Uning ijrosida (maqom ijrochiligidagi) "daromad" va qisman "miyonxat" kabi tarkibiy bo'laklar – pardalar qo'llanilmaydi. Bu jarayon, yuqorida keltirilgan musiqiy namunalarning tovushqator tizimlari misolida o'z aksini topgan.<sup>82</sup>

Farg'ona vodiysida ijrochilik an'analari (katta ashula namunalari bundan mustasno) shakllangan va talqin yo'li nafaqat Sodirxon uslubida, balki mazkur yo'nalishga mansub boshqa ko'pchilik xonandalar ijro yo'llarida ham o'z aksini topgan. Avvalambor, xonishning jarayonida ovoz diapozonining yuqori pardalarga asoslanishi maqom ijrochiligidan farqli o'laroq, o'ziga xos uslub mezoni bilan xarakterlansa, ikkinchidan, ijro jarayonining turli sharoitlarini taqozo etgan holda ko'proq, ochiq joylarda ijro etilishi, teran mazmunli so'zlar asosida olinishi, tinglovchiga eshitilarli va tushunarli bo'lishi kabi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

– "Hofiz kuy va unga aytildigan she'r mazmunini his qila bilishi, uni eshituvchiga yuksak mahorat bilan to'g'ri yetkaza olishi bunda muhim rol o'ynaydi"<sup>83</sup> deb xonandalarning maqom yo'llaridagi ijro jarayonining ahamiyatini bayon etadi I.Rajabov. Ana shu "yuksak

<sup>81</sup> Farg'ona vodiysi hofizlarining ijro an'analarida bunday holat oddiy hisoblanadi. Ovozning daromad qismidagi bir oktava deyarli ishlatilmaydi. Yuqori pardalarda ijro etish shu davr hofizlariga qulay bo'lgan. Shu bois asar ham yuqori diapozonga moslashtirilganligi uchun, asar deyarli bir oktava oralig'ida yuqori pardalarda ijro etilgan.

<sup>82</sup> Bu fikrni bayoni to'la tasdiqini topishi uchun, Sodirxon ijodidan bir yoki ikki misol emas, balki uning sakkizta asarining tovushqator tizimi asoslari ko'rsatildi.

<sup>83</sup> Rajabov I. "Maqomlar masalasiga doir, T., 1963 y. 270-271 b.

mahorat”ni to‘la ifoda etish maqsadida ko‘proq yuqori diapozonni qo‘llash an’anaga aylangan bo‘lishi ehtimol. Hofiz ovoz qizitish, tinglovchilarni tayyorlash maqsadida “shaxd” uslubidan ko‘proq foydalangan bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas.

Sodirxon ijro uslubining xarakterlovchi tomonlari, “Qashqarchai Ushshoq” asari misolida (maqomlarning ashula bo‘limiga xos xususiyatlar doirasida) tahlil qilib ko‘ramiz. (ilovaga qarang).

Maqomlarda – “Ashula bo‘limining har bir qismini aniqlovchi va uning xususiyatlarini belgilovchi omil doira usuli hamda ritmik tuzilishi hisoblanadi”<sup>84</sup> deb ashula ijrochiligining muhim tomonlaridan biri bo‘lgan usul – ritmik jihatlariga e’tiborni qaratadi musiqashunos olim O.Matyoqubov. “Qashqarchai Ushshoq” asari usul va ritmik

jihatlama Shashmaqom sho‘balariga asoslangan. Asar “q a sh q a r ch a” usulida ijro etiladi. Ritmik jihatdan kuy mazkur tuzilma asosida shakllanib rivojlangan. Maqomlarda muntazam talqin etilishi zarur bo‘lgan usul (ritmik tuzilma) asar davomida to‘rt marta o‘z holatini o‘zgartiradi. Ya’ni, 10-12 taktlar, 67-70 taktlar, 88-91 taktlar va 101-104 taktlar – I k k i martta “Hang”lar hisobiga, i k k i marta badihago‘ylik talqini hisobiga o‘zgaradi. Usuldan chetlanish mezonlari har ko‘rinishda alohida-alohida tizimda tarkib topadi.

Xonanda asarda o‘z uslubini sifatlovchi omillar misolida, erkin ijro – talqinining to‘rt ko‘rinishini namoyish etadi. Ilk qo‘llashda, asarning o‘ziga xos daromad qismini h a n g orqali “Sh a x d” uslubi bilan ko‘rsatib, (asar usulini, ohangini, tovushqatorini...), yana bir

<sup>84</sup> Matyoqubov O. Og‘zaki an’anadagi professional musiqa asoslariga kirish, T., 1983 y. 18,52.

maxsus “shaxd” ya’ni usuldan chetlanib, tinglovchi uchun “bir zum diqqat talab” ohangda asarning asosiy qismini boshlashdan darak beruvchi, bosqichma-bosqich yuqoriga “kvarta”ga harakati bilan izohlaydi. Bu ko‘rinishda ikki takt (11-12 tt) usuldan qochish tadbirini namoyish etadi.

Ikkinchi ko‘rinishda (67-70 tt) xonanda badihago‘ylik ijro uslubini namoyish etadi. Jumlaning 1-2 taktlarida usulni cho‘zilgan ko‘rinishida ijro etib, 3-4 taktlarda undan chetlanadi va keyingi keladigan “hang” yordamida yana usulga tushib oladi. Oqibatda kuyning nafaqat usuli yoki ritmi, balki “metr” jihatidan (o‘zgarish hisobiga) o‘zgartiradi.

Uchinchi ko‘rinishda (88-91 tt) “hang” uslubidan foydalanib, tinglovchini tayyorlash maqsadida, birinchi ko‘rinishning teskari usulini qo‘llaydi. Bu jumla o‘ziga xos “namud” ko‘rinishiga ega bo‘lgan bo‘lakni tayyorlash vazifasini bajaradi. “Hang”dan oldin, cholg‘u talqinida “sozlash” jarayoni o‘tadi. Lekin, xonanda kuy usulini saqlagan holda, “shaxd” uslubida, ovoz talqinida kuyning asosiy turg‘un bosqichlarini uqtirib, yondosh tovushlarga asoslangan yangi jumlaning o‘ziga xoslik, latif tomonini bo‘rttirib ko‘rsatib beradi.

To‘rtinchi ko‘rinishda (101-104 tt), badihago‘ylik talqiniga asoslanib, asarni yana bir erkin ijro bilan boyitadi. Shu bilan birga, bu jumla ham undan oldingi namud qismini kuy bilan bog‘lashda, “namud”ni alohidaligini ko‘rsatish va “namud”siz ijro etsa ham bo‘ladi degan bir sirli yondoshish maqsadida talqin etilgan deb izohlash mumkin.

Asarning negizida va ijo davomida “qashqarcha” usuli saqlanadi va xususiyatini ifoda etadi. Shu bilan xonanda “qashqarcha” namunasida o‘zining shaxsiy ijo talqiniga xos jihatlarni va sifatlarni namoyon etadi.

Ashula ijrochiligidagi she’r va kuy vaznlarining bir-biriga mos kelishi asosiy mezonlardan biridir. Maqomlar tarkibidagi har bir Saraxbor, talqin, nasr, soqiynoma va shu kabi qismlari o‘z kuy metromitik jihatlari asosida ma’lum vaznli she’rlar bilan talqin etiladi<sup>85</sup>. I.Rajabov “Maqomlar masalasiga doir” risolalarida keltirilgan “Qashqarcha” sho‘basining “ramali musammani maxfuz”:

Foilotun – foilotun – foilotun – foilun.

- u - - i - u - - i - u - - i - u -

She’r o‘lchoviga asoslanishini yozadilar<sup>86</sup>

“Qashqarchai Ushshoq” asarida xonanda 14 bo‘g‘inli birinchi misra, 13 bo‘g‘inli ikkinchi misraga asoslangan Xusrav g‘azalini kuya solgan. Quyida g‘azalni birinchi misrasining she’r o‘lchovi bilan mutanosibligini solishtirib ko‘ramiz:

Ko-fi-ri ish-qam mu-sul-mo-ni ma-ro dar-kor nest,

- u - - i - u - - i - u - - i - u -

Har ra-hi man-tor gash-ta ho - ja-ti zun – nor nest.


- u - - i - u - - i - u - - i - u -

Misolda ifoda etilishicha, garchan so‘z vazni she’r o‘lchoviga risoladagidek to‘g‘ri kelmasa ham ohang (she’r ohangi) jihatidan “Ramali musammani maxfuz” vazniga mos tushadi. Bu hol ashula

<sup>85</sup> She’r o‘lchoviga asoslanishini yozadilar (I.Rajabov).

<sup>86</sup> Rajabov I. “Maqomlar masalasiga doir, T., 1963 y. 277 s.

ijrochiligidida mavjud. Xususan, bu haqida I.Rajabov...— “bir ashula yo‘lini turlicha vazndagi she’rlar bilan ijro etilishi musiqa amaliyotida juda ko‘p uchraydigan hodisadir”<sup>87</sup> deb, Bayotlarni 3 turli vazndagi she’rlar bilan aytishli misolida ko‘rsatib bergenlar.

Yuqoridagi fikrni inobatga olib, asarning so‘zi va uning ma’nosini mazkur kuya mos kelganligini ta’kidlab, kuyning ham she’r vazni rukni asosida tarkib topganini guvohi bo‘lamiz. Kuyning ritmik tuzilmasi  shaklida tarkib topgan, u kuyning jumlesi doirasida shakllangan va she’r vazniga moslashtirilgan.

Ko‘rilgan tahlilda asarning ritmik jihatni, so‘z matni maqom asarlariga xos tarzda mutanosib ifodasini topganligini ko‘ramiz. Ashula ijrochiligidida kuy ritmik tuzilmalarini bir-biri bilan bog‘lanishi, jumlalarning talqinidagi jihatlarni ko‘rsatishda, xonandalar amaliyotida “Hang”lardan foydalaniлади. Musiqashunos olim Otanazar Matyoqubov “hang”larni ashula ijrochiligi xususiyatlaridan biri sifatida belgilaydi va “hang” deb, she’r bo‘g‘inlarining cho‘ziq (ya’ni, bir qancha tovushlarni o‘z ichiga oluvchi) ohanglar bilan kuylanishiga aytildi — deb ta’kidlaydi.


O‘z o‘rniga qarab hanglarni ikki asosiy turga ajratish mumkin:  
- Birinchisi — she’rning asosiy bo‘g‘inlariga to‘g‘ri keluvchi hanglar.

<sup>87</sup> Rajabov I. “Maqomlar masalasiga doir, T., 1963 y. 271 s.

- Ikkinchisi – she'r matnidan tashqari bo'lgan qo'shimcha bo'g'inlar, so'z yoki bir butun jumlalarga solib aytiladigan hanglar. Masalan: "dod", "jon", "voy", "banda" va h.k. Hanglarning bu turi, odatda, asosiy kuy jumlalari tugab bo'lgandan keyin keladi. Ular ba'zan alohida jumlalar, hattoki, yirik tuzilmalarni tashkil qilishi mumkin" /I.21.54/ deb izohlaydi. Sodirxon ijro uslubi shakllanishida hanglarning barcha turlari uning talqinida o'z ifodasini topadi. Bundan tashqari "shaxd" uslubi ham hangning bir turi deyish mumkin. Shu bilan birga, uslub ijro talqinida jumlalarning, kuy bo'laklarining nihoyasida (kadans yechimlarida) xonanda oxirgi tovushi (tonikani) bo'rttirib ko'rsatish bilan ifodalaydi. Ko'p hollarda bu jarayon, jumla yoki kuy bo'laklariga qo'shimcha takt ulanishi va ovoz talqinini shiddatli ifoda etilishi bilan xarakterlanadi. Buni biz quyidagi misollarda aniq ifoda topganligini ko'ramiz: IV-xat oxiri. "Ushshoqi Sodirxon" asari tasvirida I –xatning birinchi bo'lagi, III-xatning birinchi va ikkinchi bo'laklari, IV-xatning jumla yakuniy qismi, IV-xatning ikkinchi bo'lagining yakuni va h.k.

Kuy jumlalari bo'laklarining yakuniy (oxirgi qismlarini) tovushlarini ifodaliroq, shiddat bilan ijro etish ustozona musiqa ijrochiligining o'ziga xos sifatlaridan biri bo'lib, hofizning ovoz imkoniyatlari ko'lami kengligini ko'rsatadi. Mumtoz (musiqa san'ati) ashula ijrochiligining asosiy xususiyatlarini ifodalashda asarning tarkibiy tuzilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Asarning tarkibiy qismlarining shakllanishida, odatda, so'z matni shaklining tarkiblari orasida o'ziga xos umumiylilik hosil bo'lishi taqozo etiladi. (I.Rajabov, F.Karomatov, O.Matyoqubov...) .Ular majmuasida hosil bo'lgan jumlalar azaldan o'ziga xos qismlarga bo'linib, ma'lum

atamalar bilan nomlangan. – “Maqomchi hofizlar ashulaning tarkibiy qismlarini *daromad*, *miyonxat*, *dunasr*, *namud* iboralari vositasi bilan tushuntirib kelganlar. Bu esa ashula shaklini tushunishni yengillashtiradi”<sup>88</sup>. She’r va kuy shaklining umumiy ifoda topishida, har ikki omildan (keng ma’noda) kelib chiqib tarkiblanadi. – “Maqom ijrochilari bir bayt she’r bilan aytildigan bo‘lagi x a t, uning yarmi (ya’ni bir misra she’rga mos keladigan qismi)ni esa n i m x a t (ya’ni yarim xat) deb yuritadilar”<sup>89</sup>. Ashula asarning (Shashmaqom ashula yo‘llarini) kuy shakli bo‘laklarini O.Matyoqubov quyidagi shakl asosida ifodalaydi<sup>90</sup>:



Sodirxon ijro uslubi doirasida asarning tarkibiy tuzilishini yuqorida keltirilgan, maqom ashula bo‘limining tuzilishiga qiyosiy holda ko‘rib chiqamiz. Asarning tahlilini kengroq tasavvur etish uchun


<sup>88</sup> Rajabov I. “Maqomlar masalasiga doir, T., 1963 y. 184-b.

<sup>89</sup> Matyoqubov O. Og‘zaki an’anadagi professional musiqa asoslariga kirish, T., 1983 y. 54-b.

<sup>90</sup> Daromad, miyonxat, dunasr, avj, namud kabi tarkibiy qismlarning vazifalari, o’rni, mohiyati kabi jihatlari I.Rajabov, F.Karomatov, O. Matyoqubov tadqiqotlarida yoritilgan.

musiqiy namuna – kuy asosidagi ovoz harakatlarining tasviridan foydalanamiz (68 sahifaga qarang).

Asarning kuy rivoji nuqtalarini umumiyl ko‘rinishini shaklan ifoda etadigan bo‘lsak, taxminan quyidagi tasvir yuzaga keladi. Shakl asardagi x a t bo‘laklarning (ko‘p qo‘llanilgan) bosqichlariga asoslangan. Lekin, asarda har bir x a t turg‘un tovush bo‘lmish *Si bemol* (*B*) va faqat IV- x a t *Mi bemol* (*es*) bosqichiga albat tarzda qaytgan.(sxema 70 bet)



Maqom ijrochiligidagi, odan bo‘yicha dunasr va avj (namudlar silsilasi) qismlarida shunga o‘xshash jarayon uchraydi. Alovida asar sifatida ijro etilganda esa ustozona musiqa namunalaridagi shakldan farqli o‘laroq tarkib yuzaga keladi. Yuqoridagi fikrni davom ettirib (avj qismida ijro etilishini), asarning tovushqator tizimini qiyoslash mumkin. (61 sah. 8misol) “Qashqarchai Ushshoq” tovushqator tizimi oktava oralig‘ida tarkib topgan va eoliy lad tizimiga asoslangan. Ladning asosiy turg‘un tovushlarini, o‘zbek musiqasiga xos bo‘lgan I-IV va V bosqichlar tashkil etib, kuy jumlavari tuzilishida yetakchi

tovushlar sifatida qo'llaniladi<sup>91</sup>. Ladning shunday tarkib topishi biz (60 sah) Talqini Ushshoq tovushqator tizimining yuqoriga (ikkinchi qismida) pardalari majmuida ko'ramiz. Agar biz shaklda berilgan maqom ashulalari qismlarining tarkibiy tuzilishi asosida yondoshsak, Talqini Ushshoq namunasining yuqori qismida dunasr (kvinta oralig'ida) va undan keyingi pog'onalarda avj bo'laklari ijro etiladi.

"Qashqarchai Ushshoq"da esa bu ko'rinish asar shaklida keladi va umuman daromad va miyonxat pardalar qo'llanilmagan. Lekin, o'ziga xos ashula shakliga asoslangan. Uning tarkibi VI-xatdan, ya'ni 6 jumladan iborat bo'lib, qo'shimcha (hang va shaxd) qismlari ham asarda alohida o'rinn tutadi. Xatlar, asarning tarkibiy shakli jihatidan sifatlansa, I-xat tayyorlash – daromad, II, III, IV-xatlarning daromad va avj qismlari bilan bog'langan "Miyonxona" deb nisbiy ma'noda olinishi mumkin. V-VI-xatlar namud va avj bo'laklarini tashkil qilishadi. Garchand, maqom ashulalari tarkibiy qismlaridek tovushqator oralig'i munosabatlari jihatidan to'g'ri kelmasada, vazifasi nuqtai nazaridan tarkiblanish mumkin. Birinchi xatning daromad qismiga xarakterli bo'lgan tomoni, unda asarning asosiy pardasi, tovushqatori, g'oyasi va xarakterini ochib bergan jihatlar aksini topgan. Kuy ma'lum metro-ritmik tuzilma shaklida tovushqatorning kvinta oralig'ida rivojlanadi. Jumlaning ichki tarkibiy tuzilishi, davriya shaklida bo'lib,  $a - v - s$  – o'ziga xos ikki nimxatdan iborat. Jumla tarkibining harflar namunasi  $a-v;$   $s-v$  ko'rinishidagi tizim bilan

<sup>91</sup> O'zbek musiqasidagi asosiy turg'un tovushlarni ahamiyatini Y.G.Kon quyidagicha ta'riflaydi: "I-IV va V bosqichlar doimo o'zgartirilmay qoladi, aynan shular, atrofida kuy rivojlanadigan ladning asosiy mag'zini tashkil qiladi" /tarj.B.S/.

ifodalanadi. Jumla o‘zining barcha tarkibiy tuzilish xususiyatlari bilan qaytariq tarkibidagi davriya shakliga xosdir.

Qaytarish, ya’ni ikkinchi n i m x a t ning birinchi kuy bo‘lagi yangi (materialda) ohangda ijro etilsa, ikkinchi bo‘lagida, birinchi nimxatning ikkinchi qismi to‘la – to‘kis qaytariladi. Bu uslub, nafaqat bir jumla tarkibida, balki asar davomida saqlanadi. (Chizmada berilgan tasvirning, kuy rivojini harflarda ifodalangan qismiga qarang). Umumiyoq ko‘rinishda quyidagi tartib tizimi vujudga keladi:

$$A-B - C-B^I - D-B^2B^2a - D^IB^3 - B^3a - E - B^5 - F - B^6 - B^7$$

$A-B; C-B$  /  $E-H^4/-B^5$

Tasvirda har bir harf (belgi) asarning qaysi “x a t”i yoki badiha qismiga to‘g‘ri kelishi va bu qismlardagi ovoz harakatining aniq ifodasini ko‘rib, tasavvur qilish mumkin. Ko‘rinib turibdiki, asardagi keyingi II – IV x a t lar ham aynan x a t tarkibiy tuzilishi tizimida shakllanib rivojlanadi.

Tarkibiy qismlarni tashkil qiluvchi x’atlardan munosabati, o’rnini va vazifasiga kuy rivoji doirasida yondoshadigan bo’lsak II – IV x’atlari bir vazifada va V-VI x’atlari esa boshqa bir vazifada gavdalanadi. II-IV x’atlari 2 va 4 bosqichlar turg‘unligiga asoslangan bo’lib, deyarli bir musiqiy (materialni) tuzilishni turli variantda talqin etilishi demakdir.

Har bir xatning (II – IV) alohida jumla sifatida shakllanishi, ketma-ket kelishi, bir musiqiy tuzilmani turli bosqich va ohanglar majmuasida boyitilishi, biri ikkinchisidan farqliroq tarkib topishini asosiy (materialning) kuy tuzilmasining o‘ziga xos variatsiyalari deyish mumkin.

II- x a t kuyning yangi jumlesi sifatida, tovushqatorning 3-bosqichini (tuzuk turg'un tovushi namunasida) tasdiqlab birinchi x a t ni badiiy, ohang va kuy jihatlama rivojlantirgan. III-xatda shu tarzdag'i ohang va rivojlanish qisman o'zgarishlar hisobidan qaytariladi.<sup>92</sup> Ya'ni ma'lum kuy tuzilmasi (jumlasini) bir pog'ona ko'tarib, yangicha tus berib talqin etiladi. Bu jarayon tuzukning IV-bosqichini tasdiqlash bilan bog'liq.

IV-x a t boshqa jumlalarga nisbatan o'zgacha maqsadni va vazifani bajaradi. Jumlada ilk bor (aynan shu kuy bo'lagida) kuy ladi o'zgartiriladi. Tovushqatorning 3-chi bosqichini (0,5 t) ko'tarib, 4 - bosqichga yetakchi tovush sifatida qo'llaniladi. Jumla kuyning 4 - bosqichidan boshlanib, uning tasdiqini mavjud ohanglar majmuasida ifodalaydi va shu bosqichda yakunlanadi. Jumlaning o'ziga xos tomonlari o'zgargan 3 - bosqich ohang jihatlari va uning munosabatida (4-bosqichni turg'un tovush sifatida bo'rttirishida) namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, o'zidan keyin keladigan avj (sifatli) jumlalarga sadoli (intonatsion) va tovushqator jihatidan tayyorlashdan iboratdir.

Asarning lad xususiyatlarini o'zgarishi uchinchi – jarayon – namud qismiga tayyorlash omilida takrorlanadi. Ma'lumki, mumtoz musiqa namunalarining ko'proq dunasr va avj qismlarida boshqa asarlardan bo'laklar namuna sifatida ishlataladi (I.Rajabov). Shu bilan

<sup>92</sup> Bu o'rinda xonanda "x o n a q o y i " musiqa namunalariga xos bo'lgan uslubni qo'llagan degan fikrga kelish mumkin. Chunki, Sodirxon "Xonaqoyi hofiz" sifatida tarbiyalangan, shakllangan va tanilgan. Ikkinchidan qo'llanilgan ijro harakati maddohlik ijro san'atiga xos. Ya'ni, bir nechta baytlarni ma'lum jumla ohanglarida (qisman badiha berib) talqin etish. Demak, bu o'rinda Sodirxon uslubida "Xonaqoyi" ijro uslubining jihatlarini kuzatish mumkin.

birga avj qismlarining 4 - 6 bosqichlari ham “n a m u d” qo‘llash uchun xarakterlidir (I.Rajabov). Bu o‘rinda “Qashqarchai Ushshoq” asari namud ishlatish sifatidan ham ma’lum qonuniyatlar chegarasida amalga oshirilgan. Jumlaning, kuy jihatni esa to‘la namud emas, balki namudning qisqa ko‘rinishini tashkil etadi. Bu bilan xonanda, “Qashqarcha”ning Ushshoqga xosligi yana bir bor ta’kidlanadi: V – x a t avj qismini “namud” misolida izohlasa, VI – x a t kulminatsion jarayon sifatida talqin topadi. Xonanda uslubida bu omilni ifoda etilishida jumladan oldin va keyin “sh a x d” hanglarini keng qo‘llaydi. Bu albatta asarni hayajonli kulminatsion qismini yanada to‘laroq va ifodaliroq talqin etishda o‘z hissasini qo‘sadi. – “Kulminatsiya” – bu nuqta emas, balki butun bir mezon, yuqori pardalardagi alohida tuzilma<sup>93</sup> - degan edi B.G.Kon.

Asarning eng ifodali jarayonlaridan biri bo‘lgan avj qismidan so‘ng (kuya) an’anaviy ohanglarning rivojlangan majmuasida “furovard” qismi asar g‘oyasini nihoyasiga yetkazadi.

Berilgan nota misolida va ovoz harakatining tasviridan ko‘rish mumkinki, asarda o‘zbek mumtoz musiqa ijrochiligiga xos bo‘lgan qaytarishlar yuqoriga kvarta va kvinta intervallari oralig‘iga sakrashlar, yuqoridan pastga bosqichma-bosqich harakatlarning ko‘pligi har bir jumla (xat va nimxatlar), albat tarzda (IV xatdan tashqari) asosiy tovushga qaytarishlari, cholg‘udan foydalanish darajalari kabi jihatlar yaqqol namoyon bo‘ladi. “Qaytarishlar” o‘zbek ashula va kuy ijrochiligidagi eng ko‘p qo‘llaniladigan xususiyat (I.Rajabov,

<sup>93</sup> Кон Ю. Некоторые вопросы ладового строения узбекской народной песни и его гармонизации, Т., «Фан», 1970 г. 20 с.

F.Karomatov) desak, ijro jarayonidagi sakrashlar va ma'lum xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Odat bo'yicha, musiqa ijodiyoti va ijrochiligidagi har qanday intervalga sakrash qarama-qarshi tomonga bosqichma-bosqich harakat bilan davom ettiriladi yoki nihoyasiga yetkaziladi.

Lad xususiyatlari darajasida, o'zbek musiqasini o'rgangan Y.G.Kon tovush sakrashlarini quyidagicha ta'riflaydi. O'zbek musiqa ijrochiligidagi, -“kvarta, kvinta va oktava oralig'larida yuqoriga sakrashlar ko'proq uchraydi... Eng ko'p qo'llaniladigan sakrashlar bu kuchsiz hissadan kuchli hissaga sakrash”<sup>94</sup> - kabi turlarini ta'kidlab o'tadi. Sodirxon uslubida sakrashlarning har qanday ko'rinishi turli vaziyatlarda rang-barang talqin etiladi. Buni nafaqat “Qashqarchai Ushshoq” misolida balki, “Ushshoqi Sodirxon” asarida ham kuzatish mumkin.

Y.G.Kon o'z tadqiqotlarida ko'rsatib bergen barcha turdag'i sakrashlar va ularning keyingi harakatlari, ma'lum kuy g'oyasi asosida amalga oshirilib, xonanda tomonidan lozim bo'lgan sharoitlarda qo'llaniladi. Masalan: 14-taktda xonanda birinchi nimxatni yakuni va ikkinchi nimxatning boshlanish ohanglarida qo'llagan. Kuy jumlasiga va rivojiga xarakterli bo'lgan kvarta oralig'iga sakrash munosib ifodasini topgan. Sodirxon uslubiga xosligi esa, uning so'z va kuuning nimtaktilar mobaynidagi tinish, ya'ni uzlusiz rivojlantiriladi. Shu bilan birga nafas yurg'izish omilida ham bu omil uzlusiz kuzatiladi.

Yuqoridan pastga bosqichma-bosqich harakat Sodirxon ijro uslubining ko'p qo'llaydigan tadbirlaridan biridir. Sayqalli

---

<sup>94</sup> Shu manba, 19 s.

sadolantirish jarayoni ham aynan shu omil vositasida o‘ziga xosligi va rang-barangligini namoyon etadi. Shu bilan birga asarning aksariyat jumlalarining asosiy turg‘un tovushga qaytish mezonida ham bu omil muhim ahamiyat kasb etadi.

Xonanda uslubiga xos asarlarning aksariyatida kuy jumlalarining asosiy tovushga qaytish omili qo‘llanilgan. Bunga birinchi sabab – asarning yuqori pardalarda ijro etilishidir. Ikkinchidan, tovushqatorning faqat oktava oralig‘idan foydalanganligi sababli, har bir jumla kuy rivoji jarayonida o‘z yechimini topadi. Bu jarayon musiqa ilmida “k a d a n s d a v r a s i” deb yuritiladi.

Sodirxon ijodidagi “Qashqarchai Ushshoq” asarining I, II, III, IV, VI x a t lari “Ushshoqi Sodirxon” asarining I, III, V, VI – x a t larida yorqin ifodasini topgan. Ijro jarayonida xonanda, go‘yoki (har bir jumlada) turli ohanglar orqali ma’lum fikrni nihoyasiga yetkazadi. Keyingi jumlalarda shu fikr davom ettirilib, u ham yakunlanadi va davom etadi. Bu o‘ziga xos musiqiy fikrlar silsilasi kuuning umumiy shaklida o‘ziga xos tarkibini topadi. (chizmada berilgan tasvirga qarang).

Musiqiy ohanglarni tarannum etishda, xonanda o‘z ovozi imkoniyatlari darajasida ma’lum yo‘nalish kashf etadi. Sodirxon ijro uslubi ustozona musiqa namunalari amaliyoti taqozo etadigan keng nafasli talqin bilan bog‘liq. (nafas yo‘llari ko‘rsatilgan qismining – 2, 4, 5, 11, 14, 15, 18, 20, 22 bo‘laklariga qarang). Uning ijro talqinini ajralib turadigan jihat, nimxat tarkibidagi kuy bo‘laklari, alohida nimxat va bir va bir yarim nimxat oraliqlaridagi kuy bo‘laklarini bir

nafasda ijro etish uslublari ko‘rinishida o‘z aksini topadi. (Bu jarayonning uslubga xarakterli jihatlari yuqorida zikr etildi).

O‘zbek ustozona ijrochiligining –“Milliy va o‘ziga xos tomoni kuy umumiy qonuniyatlar bilan chegaralanmay, eng avvalo, uning sadolanish xarakterida, rang-barang sinkopalari bilan kuy ritmikasida, urma cholg‘ularning mushkul usullarida va metrikasida o‘z aksini topadi”<sup>95</sup>.

Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarini ilmiy tadqiq etgan olim O.Ibrohimov Sodirxon faoliyatiga o‘zining nuqtai nazaridan quyidagicha baho beradi. “Maqomlar va katta ashulani mohirona ijro etgan taniqli hofiz Sodirxon Bobosharifov (1847-1931), Farg‘ona-Toshkent ashulachilik matabining buyuk yutuqlarini o‘zida namoyon etadigan, noyob mumtoz ashulachilik san’atining benazir namunasini yaratadi” (O.Ibrohimov). (tarj. B.S.)

Yuqorida keltirilgan o‘ziga xos ijrochilik xususiyatlari, jihatlari, jarayonlari Sodirxon hofizning mumtoz xonandalik san’atida mustaqil talqin uslubini xarakterlovchi muhim omillar sifatida qayd etish mumkin. Sodirxon hofiz talqini eng avvalo erkin yo‘nalishda va jiddiy sharoitda shakllangan. Uning ijrochilik uslubi negizida esa maddohlik san’atining ichki xususiyatlari muhrlangan. Shaxsiy ijrochilik uslubining shakllanishida, uning ijodi va ijrosi bilan bog‘liq faoliyati davomida zamon va makon bilan bog‘liq mezonlar muhim ahamiyat kasb etdi. Buni biz uning talqinida Farg‘ona vodiysining Qo‘qon ijrochilik maktabi bilan bog‘liq bo‘lgan hofizlik san’atining go‘zal

<sup>95</sup> Кон Ю. Некоторые вопросы ладового строения узбекской народной песни и его гармонизации, Т., «Фан», 1970 г. 26 с.

an'analari, o'zbek-tojik musiqa ijrochiligidagi yirik ustozona shakli bo'lmish maqomlarning ijro an'analari, har ikki ijro variantlari o'z aksini topganida ko'ramiz. Qolaversa Sodirxon hofizning mustaqil ijro uslubida ijro etiladigan har qanday musiqiy namunalarda yuqorida keltirilgan o'ziga xos xususiyatlarni, an'analarni munosib o'rinnegallaganligini ko'ramiz. Va bu xususiyatlar negizida, Sodirxon Bobosharifov ijodini Farg'ona vodiysida shakllangan va ma'lum yo'nalish, xususiyat va an'anaga ega bo'lgan ilk ijrochilik uslublardan deyish mumkin.

## JO'RAXON SULTONOV

Katta iste'dod egasi, xalq va mumtoz musiqamizning mohir ijrochisi, sirli va kuchli ovoz sohibi, xalq hofizi va ustoz san'atkor Jo'raxon Sultonov hofizlik san'atida yorqin iz qoldirgan namoyandalardan biri sifatida musiqa ijrochilik tarixidan o'rinni olgan.

Jo'raxon Sultonovning san'atga kirib kelishi, avvalo tabiiy iste'dod, qolaversa, uning san'atkorlar oilasida dunyoga kelishi, mashhur xonanda va sozandalar maskani Marg'ilon shahridan ekanligidadir. Balkim, xonadonidagi muntazam o'tkazilib turilgan san'atkorlarning mushoiralari uning qalbini rom etgan bo'lsa ham ajab emas. Qolaversa, uydagi xonishlar, choyxonalarda, to'y hashamlaru turli xalq anjumanlaridagi san'at namoyandalarining ijrolari, ular bilan muntazam va bevosita uchrashuvlar, muloqotlar, iste'dod egasi bo'lgan zukko hamda shirin nafas Jo'raxon qalbida xonanda bo'lish istagini uyg'otdi<sup>96</sup>. Natijada ota onasining maslahati bilan Marg'ilonlik ustoz san'atkorlar Boltaboy hofiz Rajabov va Mamatbuva Sattorovlardan xonandalik sirlarini o'rganishga kirishadi. Xonandalik san'atining ustozona namunalaridan saboq ola boshlaydi.

Xonandalik ta'limini olish davrida Jo'raxon akaning eng qiziqqan va katta ishtiyoy bilan intilgan paytlariga to'g'ri keladi. O'z ustozlari Boltaboy Rajabov va Mamatbuva Sattorovlardan xonandalik san'atini jiddiy o'rganadi. Katta ashula ijrochilik mahorati, ijro sirlarini, talqinidagi erkinlik, keng ko'lamlilik, badihago'ylik san'ati kabi qator xususiyatlarni qunt va mehr bilan o'zlashtiradi. Albatta, bu jarayonda ustozlarning ijrochilik uslublari asosiy zamindir. Odatda, katta ashulani

<sup>96</sup> Alimbayeva K., Axmedov M., Narodniye muzikanti Uzbekistana, T., 1959 g. 48 s.

faqat nazariy o‘rganish bilan o‘zlashtirish mumkin emas. Bu janr talqini xonandadan muntazam amaliy mashg‘ulotlarni talab etadi... Shu bilan birga faqat yakka ijro emas, balki jo‘rnavozlik – “hamnafaslik talqini ham muhimdir. Chunki, katta ashula ijrochiligining ichki (yashirin ma’noda) o‘ziga xos omillari o‘zaro musobaqa amallarini o‘zida mujassam etadi. Bu jihat shogirdning ustoz ijrosiga hamnafas sifatida intilishi, ustoz ijrochilik an’analari shogird tafakkuriga (qalbiga) singishi, mohir xonanda sifatida shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Shunda saboq oluvchi shogirdning iste’dodi, zukkoligi, xotirada saqlash qobiliyati, ovoz xususiyatlari va imkoniyatlari, ovoz tusining balandligi, so‘z talaffuzlarini ravonligi va burro bo‘lsa mustaqil talqinida har bir asarni ijodiy yondoshib dadil ijro etish sifatlarini tezkorlik bilan egallashi mumkin.

Jo‘raxon Sultonov darhaqiqat iste’dod egasi edi va ushbu kasbga xos bo‘lgan barcha jihatlarini aynan ustozlarining ibratli faoliyati va hayotga bo‘lgan munosabatlariga havas bilan yondoshadi, eng go‘zal an’analarini o‘zlashtirishga harakat qiladi, mehrlaridan bahra oladi va o‘zi uchun katta maktab sifatida qabul qiladi. Shu bois bo‘lsa kerak, saboq davrining pirovardida Farg‘ona vodiyisiga xos bo‘lgan katta ashula ijrochilik an’analari zaminida tarbiyalanib, katta ashulachi hamda mohir xonanda sifatida voyaga yetadi. U o‘z ustozlarining ijrochilik an’analarini qunt bilan mukammal o‘zlashtirdi. Ijodiy kamolotga erishish jarayonida Erka qori Karimov, Berkinboy Fayziyev, Sherqo‘zi Boyqo‘ziyev, Akbar Haydarovlar kabi o‘z zamonasining yetuk ashulachi – hofizlari bilan birgalikdagi faoliyati ijodiy tajriba davri bo‘ldi. Davrining ustoz san’atkorlari bilan kechgan

hamkorlikdagi amaliy faoliyati uni, ijroda o‘ziga xos talqinini topishida munosib ta’sirini ko‘rsatdi. Shu bilan birga “. . . Muxiddin Qori Yoqubov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Mulla To‘ychi Toshmuhamedov singari ustoz san’atkorlar va jamoat arboblari bilan tanishish hofizning ijodiy kamolotiga katta tasir ko‘rsatadi”.<sup>97</sup>

Bevosita katta ashula ijrochilik an’analari ta’sirida shakllangan xonanda, ustoz san’atkor, mumtoz musiqa bilimdoni Mulla To‘ychi Toshmuhamedov rahnamoligida maqom yo‘llarining ijrochilik an’analarini o‘zlashtirishga muyassar bo‘ladi. Uning ko‘p yillar davomidagi ijrochilik amaliyotida yuzaga kelgan ijro talqini, o‘ziga xos ijro uslubga ega bo‘lishida alohida ahamiyat kasb etadi. Natijada ustoz, katta ashulachi va hofiz sifatida tanilishiga asos bo‘ladi. “U katta iste’dod egasi, - deb yozadi musiqashunos olim Rustambek Abdullayev o‘zining tadqiqotlarida - xalq va ustozona musiqaning mohir ijrochisi va o‘ziga xos talqin etuvchi (interpretatori) edi. Va nafaqat katta ashulachi, balki, turli dunyoqarashli oliyjanob inson sifatida ham keng tanildi. Katta ashula ijrochiligidagi yutuqlari uchun uni xalq “**katta ashulachilarning piri**” deb atashadi”<sup>98</sup>.

Shu bois bo‘lsa kerak katta ashulachilik san’atini mukammal o‘zlashtirgan Jo‘raxon Sultonovning shaxsiy ijrochilik uslubida, katta ashulaning tarkibiy (janr) xususiyatlari asosiy omil sifatida gavdalanadi. Shakllanish jarayonida xalq ijodining mumtoz yallalari, ustozona musiqaning vohaviy yo‘llari, xususiyatlari va ijrochilikning turli jihatlari o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

<sup>97</sup> Shu manba...

<sup>98</sup> Shu manba...

O'zbek ashula ijrochiligining Shashmaqom, maqom yo'llari, yovvoyi maqom<sup>99</sup>, likobiy, patnisaki<sup>100</sup> namunalarini mohirona talqiniga erishgan xonanda, shaxsiy ijob uslubida, har bir janrga xos bo'lgan omillardan keng foydalanadi. Uslubini mukammallashtirishda asoslanadi. Asosiy maqsad - shaxsiy ijob uslubning bekamu-ko'st ustozona shaklda qaror toptirish bo'lgan bo'lsa ajab emas.

Uning har bir janrni xarakterli xususiyatlarini ustalik bilan o'z uslubida jamlanishi muhimligini qayd etish lozimdir. Chunki, xonanda va bastakorlik ijodiyotida Jo'raxon Sultonov mumtoz musiqa ijodiyotiga mansub o'nlab asarlar yaratganligi bilan ma'lum. Bu asarlarning har biri ma'lum janrlarga xos qonun qoidalar asosida tarkib topgan. Bu xususiyatlar uning o v o z imkoniyatlaridan foydalanish uslubida, talqinidagi so'z matni, kuy tuzilishi, kuy va so'zning mutanosibligi, metro-ritmik va tarkibiy tuzilishlarida namoyon bo'ladi.

Jo'raxon Sultonov keng diapozonli, yangroq va ochiq ovoz sohibi bo'lgan.<sup>101</sup> Talqinida ko'proq darajada mumtoz ashulachilik ijob uslublarining "ishkami" va "guligi" turlariga asoslangan<sup>102</sup>. Kuchli va baland ovozga katta mahorat ila, aniq va sersayqal kuylash, shiddatli

<sup>99</sup> Yovvoyi maqom – katta ashula uslubida maqom sho'balarini ijob etish. (R.Abdullayev, kond. Dissertasiyasi).

<sup>100</sup> Likobiy yoki patnisaki iboralar –katta ashula atamasining xalq orasida ommalashgan sifatdosh nomlari.

<sup>101</sup> Jo'raxon Sultonov keng diapozondagi kuchli tenor ovozga ega edi. (K.Alimbayeva, M.Axmedov. «Narodniye muzikanti Uzbekistana» T., 1959 g. 50 s.) "... Jo'raxon Sultonov eng baland notalarda "o q" tovush ataluvchi ochiq ovozda kuylar edi" (D.Mullaqandov "O nekotorix osobennostyax i vidax uzbekskogo natsionalnogo peniya" 20 s.).

<sup>102</sup> D.Mullaqandov – "Jo'raxon Sultonov "guligi" ashulachilik uslubining eng xos namoyandalaridan hisoblanadi" deb yozadi. Lekin, D.Mullaqandov, J.Sultonovning (ayrim sabablarga ko'ra) ovoz talqin etish a'zosi hastalikka uchragandan keyingina bu fikrga kelgan bo'lishi mumkin. Chunki, J.Sultonov ovoz talqin etishini o'z tadqiqotlarida taniqli musiqashunos olim R.Abdullayev quyidagicha izohlagan: –"U, kuchli va baland ovozga ega bo'lib, ijob jarayonida "guligi" va "ishkami" ashulachilik uslubidan keng foydalangan holda rang-barang ajoyib, o'ziga xos talqin etar edi" (R.Abdullayev, diss. 24 s.).

talqin uning ijrodagi asosiy aytish mezonidir. Mahorat, sof parda, ibratlari va maromidagi sayqal, shiddatli talqin barchasi uyg‘unligida rosmana ustozona ijro talqini gavdalanishi muqarrardir. Bu jihatlarni hofizlik san’atining eng go‘zal va mukammal an’analarini mujassam etgan talqin sifatida e’tirof etish o‘rinlidir.

Har qanday ijroning ham tartibi va o‘ziga xos omillari bo‘lishi muqarrardir. Jo‘raxon Sultonovning ashula aytish jarayonida nafaqat **asarning avj** qismlariga katta e’tibor qaratish, balki musiqiy namunalarning daromad pog‘onalarida ham kuchli mayin ovoz bilan talqin etgan. Asar matnining so‘zlarini to‘g‘ri talaffuz orqali ifodalashga katta e’tibor berib, ularning mazmunidan kelib chiqib, ongi ravishda talqin etadigan dard, ohanglarini ovoz jarangi bilan moslashtirishga harakat qilgan.

Odatda, katta ashula ijrochiligidagi asarning so‘z matnlarini go‘zal ohanglarda ifoda etish asosan badiiy nutqga yaqinroq tarzda amalga oshiriladi. Ijro jarayonida so‘zlarning burro, ifodali (kerak vaziyatda) sayqal va jilolar bilan bezab kuylagan. Bunda albatta, xonandaning adabiy merosni, uning ichki qonuniyatlarini tushunib, munosib idroklash ham muhimdir.<sup>103</sup> Xonanda ijroda ko‘proq mumtoz shoirlar asarlariga murojaat etib, musiqiy janrlarning ichki xususiyatlari asosida

<sup>103</sup>“Jo‘raxon Sultonov tarix, adabiyot, madaniy meros masalasiga qattiq qiziqar, yoshlarni ham o‘qib-o‘rganishga chorlardi” (K.Alimbayeva, M.Axmedov 50 s.).

Jo‘raxon Sultonovning shogirdlaridan, xalq hofizi Orifxon Hotamov eslaydilar: -“ustoz aytar edilarki, - ashulachi birinchi galda adabiyotni mukammal bilishi kerak”, Men – Jo‘raxon akaning doim eski manbalar, shoirlarning she’riy to‘plamlarini ishtiyoq bilan, sinchiklab qarab chiqishlariga ko‘p e’tibor berar edim. O‘zları adabiyotni yaxshi bilar edilar. She’r tanlashda va uni kuyga solishda beqiyos san’atkor edilar. Masalan: A.Navoyning “Yigitlikda” nomli g‘azaliga ashula bitganlar. Asar har tomonlama juda mukammal. Lekin, man hanuzgacha bu g‘azalni biror-bir kitobda ko‘rmaganman. Jo‘raxon aka qaysi manbadan olgani menga ham qorong‘u...” Muallifning 1994 yilning noyabr oyida Orifxon Hotamov bilan suhbatidan.

munosib g‘azal namunalarini tanlashga katta e’tibor bergan. Albatta, so‘z matnining vazni, bahri kuy tuzilishlarining tarkibiy shakllari bilan mutanosib ifoda topishi asarning (ashula) muhim tomonlaridan hisoblanadi.

Xonanda ijro dasturi rang-barang. Xalq ijodiyotining sara namunalarini, ustozlar repertuarini, an’ana shaklida avlodlardan o‘tib kelayotgan asarlarni o‘zlashtirib ijro etishni tinglovchilar oldidagi xonandalik burchi sifatida bilgan. Shu bois bo‘lsa kerak, uning talqinida musiqa san’ati namunalarining turli janrlaridagi namunalar o‘ziga xos tarkibda ifodasini topgan. U avvalo, har bir asarning janrlik xususiyatlari katta e’tibor bilan yondoshadi. Ijrochilik yo’llarinining b a d i h a g o‘ y l i k (erkin ijro misolida) va m u m t o z (tarkibiy jihatlarga asoslangan) talqinlariga alohida ahamiyat berib, har birini amaliyotda o‘z o‘rnida qo’llaydi. Ijroda kuy va so‘z matnlarining mutanosibligi va metro-ritmik tuzilmalarining hamohangligi ana shu ijrochilikning muhim hisoblangan ikki yo‘li – mezoni negizi asosida tarkib topadi.

Jo‘raxon Sultonovning *ijro uslubiga xos bo‘lgan omillar* o‘zining keng ko‘lamliligi va shiddatliligi bilan xarakterlanadi. Barcha musiqiy jihatlarni o‘zida mujassam etib quyidagi omillar uning ijrosiga xos ekanligi namoyon bo‘ladi. Jumladan:

-xonandaning keng ko‘lamli nafas ishlatishida;

-kuy bo‘laklarini (frazalarini) o‘ziga xos katta ashula uslubida va meyorli badiha bilan boyitib ijro etishida;

-kuyda tovushlar, bo‘laklar va jumlalarning kontekst va ohang mazmunlari asosida uzaytirishda;

- asar xarakteriga asoslanishida (*bunda musiqaning va matnning alohida mazmuni va mutanosibligi muhim ahamiyatga ega*);
- qaytarishlarni metro-ritmik jihatdan aniq va o‘zgarishlar asosida amalga oshirishda;
- cholg‘u sozidan foydalanishi va cholg‘u qismlarini o‘ziga xos (*qisqa usul ko‘rinishida yoki kuy jumlasini to‘liq*) talqin etilishida;
- cholg‘ulardan kerak joyida unumli va (*voz kechish ham*) munosib foydalanishlarida:

Shular bilan birga asarni texnik jihatdan mohirona ijro etish, tinglovchi qalbini rom etuvchi ohanglar bilan purma’no so‘zlarni aniq ifodalab tarannum etish, unga har tomonlama ijodiy yondoshishi ham muhim omillardan hisoblanadi.

Jo‘raxon Sultonovning ijrochilik uslubini (uning ijro dasturidan va ijodidan kelib chiqgan holda) ahamiyatli uch talqin jarayoni bilan bog‘lash o‘rinlidir:

- Birinchidan, - e r k i n i j r o;
- ikkinchidan, - b a d i h a g o‘y l i k ka asoslangan;
- uchinchidan ma’lum u s u l v a v a z n g a asoslangan ijrolar.

Lekin talqin negizida xalq musiqa an’analari, yetuk ashulachi va hofizlarning o‘ziga xos yo‘llari, tabiiy iste’dod va mukammallikka, yangiliklarga intilish kabi xususiyatlarga tayanish asosiy mezon sifatida mujassamlangan. Har bir asarga o‘ziga xos yangicha talqin bilan yondashishi xonandaning ijro uslubi xususiyatlari sifatida gavdalanadi. Ayniqsa, bu jarayon maqom yo‘llaridagi “Yovvoyi Chorgoh”, “Dugoh Husayniy”, “Dilhiroj”, “Savti Suvora”, “Sodirxon Ushshog‘i” kabi asarlar ijrosida yaqqol namoyon bo‘ladi.

munosib g‘azal namunalarini tanlashga katta e’tibor bergen. Albatta, so‘z matnining vazni, bahri kuy tuzilishlarining tarkibiy shakllari bilan mutanosib ifoda topishi asarning (ashula) muhim tomonlaridan hisoblanadi.

Xonanda ijro dasturi rang-barang. Xalq ijodiyotining sara namunalarini, ustozlar repertuarini, an’ana shaklida avlodlardan o‘tib kelayotgan asarlarni o‘zlashtirib ijro etishni tinglovchilar oldidagi xonandalik burchi sifatida bilgan. Shu bois bo‘lsa kerak, uning talqinida musiqa san’ati namunalarining turli janrlaridagi namunalar o‘ziga xos tarkibda ifodasini topgan. U avvalo, har bir asarning janrlik xususiyatlari katta e’tibor bilan yondoshadi. Ijrochilik yo‘llarining badihag‘ylik (erkin ijro misolida) va mumtoz (tarkibiy jihatlarga asoslangan) talqinlariga alohida ahamiyat berib, har birini amaliyotda o‘z o‘rnida qo‘llaydi. Ijroda kuy va so‘z matnlarining mutanosibligi va metro-ritmik tuzilmalarining hamohangligi ana shu ijrochilikning muhim hisoblangan ikki yo‘li – mezoni negizi asosida tarkib topadi.

Jo‘raxon Sultonovning *ijro uslubiga xos bo‘lgan omillar* o‘zining keng ko‘lamliligi va shiddatliligi bilan xarakterlanadi. Barcha musiqiy jihatlarni o‘zida mujassam etib quyidagi omillar uning ijrosiga xos ekanligi namoyon bo‘ladi. Jumladan:

-xonandaning keng ko‘lamli nafas ishlatishida;

-kuy bo‘laklarini (frazalarini) o‘ziga xos katta ashula uslubida va meyorli badiha bilan boyitib ijro etishida;

-kuyda tovushlar, bo‘laklar va jumlalarning kontekst va ohang mazmunlari asosida uzaytirishda;

- asar xarakteriga asoslanishida (*bunda musiqaning va matnning alohida mazmuni va mutanosibligi muhim ahamiyatga ega*);
- qaytarishlarni metro-ritmik jihatdan aniq va o‘zgarishlar asosida amalga oshirishda;
- *cholg‘u sozidan foydalanishi* va *cholg‘u qismlarini o‘ziga xos (qisqa usul ko‘rinishida yoki kuy jumlasini to‘liq) talqin etilishida*;
- *cholg‘ulardan kerak joyida unumli* va (*voz kechish ham munosib foydalanishlarida*):

Shular bilan birga asarni texnik jihatdan mohirona ijro etish, tinglovchi qalbini rom etuvchi ohanglar bilan purma’no so‘zlarni aniq ifodalab tarannum etish, unga har tomonlama ijodiy yondoshishi ham muhim omillardan hisoblanadi.

Jo‘raxon Sultonovning ijrochilik uslubini (uning ijro dasturidan va ijodidan kelib chiqgan holda) ahamiyatli uch talqin jarayoni bilan bog‘lash o‘rinlidir:

- Birinchidan, - e r k i n i j r o;
- ikkinchidan, - b a d i h a g o‘ y l i k ka asoslangan;
- uchinchidan ma’lum u s u l v a v a z n g a asoslangan ijrolar.

Lekin talqin negizida xalq musiqa an’analari, yetuk ashulachi va hofizlarning o‘ziga xos yo‘llari, tabiiy iste’dod va mukammallikka, yangiliklarga intilish kabi xususiyatlarga tayanish asosiy mezon sifatida mujassamlangan. Har bir asarga o‘ziga xos yangicha talqin bilan yondashishi xonandaning ijro uslubi xususiyatlari sifatida gavdalanadi. Ayniqsa, bu jarayon maqom yo‘llaridagi “Yovvoyi Chorgoh”, “Dugoh Husayniy”, “Dilhiroj”, “Savti Suvora”, “Sodirxon Ushshog‘i” kabi asarlar ijrosida yaqqol namoyon bo‘ladi.

“Sodirxon Ushshog‘i” biz oldingi bo‘limda Marufxo‘ja Bahodirov ijrosidagi namunasini ko‘rib chiqgan edik. Lekin asar Jo‘raxon Sultonov talqinida o‘ziga xos ifodasini topganligi uchun qisqa bo‘lsada unga murojaat etib o‘tishni lozim ko‘rdik.

Jo'raxon Sultonov talqinida asarlar o'ziga xos ko'rinishini tashkil etib, erkin ijroning katta ashula uslubiga xos tarzidagi ifodasini topadi.<sup>104</sup> Asar Sodirxon ijro namunalaridagi mohiyatini, asosiy tarkibiy jihatlarini saqlagan holda Jo'raxon Sultonov ijro uslubida yangicha yondoshish, joziba, sayqal va ravnaq topadi.<sup>105</sup> Quyida ana shu asarning Jo'raxon Sultonov ijrosidan namuna keltiramiz:

10 Ba yak-ka - rash-na Za-lay - ho va - shi di - li-mo - ro - ey

18 chu-no-ni bu - r - di... Yu - suf Di-di Za-lay-ho ro -

27 cy o yo - rey

27 Fi'gon-ki mur - g'i di-la-m say - di tif - li Na - do ne-st bo-lu

34 par-ish-ka-nad Mur-g'i rish-ta bar-po-ro.....

<sup>104</sup> Xalq hofizi Orifxon Hotamov bu ijro haqida quyidagi fikrlarni bildirdilar: -“Jo‘raxon aka Sodirxon hofiz uslubini yaxshi bilgan va ijodidan ko‘p asarlar ijro etgan. Jumladan “Ushshoq” asarini usulga solib nisbatan itoat ettirib ijro etgan. Sodirxonnini o‘zi usulga itoat etmagan. Kuyni cho‘ziq, sekinlashtirgan – tortish usullaridan keng foydalangan.

<sup>105</sup> Jo'raxon Sultonov ijrosidagi "Ushshoqi Sodirxon" asari O'zRadio fondidagi namunasidan muallif tomonidan notaga tushirilgan. Misolda II x a t keltirilgan.

Asar an'anaviy Ushshoq usulida boshlanadi va har bir jumla, kuy bo'laklarining mobaynida keskin ifodalash yo'sinida takrorlanib turiladi. Erkin ijro, asosan, kuy jumlalarining bo'laklarga bo'lib muntazam tartib topuvchi usuldan chetlangan holda o'ziga xos ko'rinishda ifodasini topadi. Har bir jumla ravon erkinlikda boshlansa, ularning yakuniy qismlari (tugallanishi) usulga moslashtirilgan holda ulanadi va yakun yasaladi. Jumlalar ijrosi xonanda tomonidan hosil qilinadigan "s u n ' i y" to'xtash tadbiri bilan boshlanadi (nota misolida V - belgi bilan ko'rsatilgan 3, 8, 18, 33, 36, 40 – taktlar).

Bu "to'xtash" jarayoni kuy usuli ifodasidan keyingi erkin jumlaning chegarasidir. Farg'ona vodiysi katta ashula janriga xos uslubni xonanda "Sodirxon Ushshog'i" asarida yangicha bir yondoshish bilan qo'llaydi.

Asarning 22, 36, 38, 40, 41 - taktlaridagi belgilar jumlanı erkin talqin etilgan taktlarini ko'rsatadi. Asarning tuzilish tarkibiga binoan birinchi "x a t" xonanda tomonidan sakkiz takt cho'zimi doirasida ma'lum tizim asosida ijro etiladi. Bu albatta asarning asosiy mavzusi, kuyi, ladi, usuli kabi zarur bo'lgan jihatlarini ko'rsatib beruvchi ("x a t") omillaridir. Navbatdagi II- "x a t" – 33-41 taktlarda kuyning metronimik tuzilmalari erkin talqin etish hisobiga o'zgacha ifodasini topgan. Jumla katta ashula ijro an'analariga xos badihago'ylik yo'lida, kuyning asosidagi so'z matni, usuli va kuy usullari mutanosib holda erkin talqin etiladi. Oqibatda, kuyning umumi shaklidagi, bir tekisda tarkib topishi lozim bo'lgan (doyra) usuli o'zgartiriladi.<sup>106</sup> Kuy ma'lum

<sup>106</sup> Mumtoz musiqa ijrochilari ya'ni xonanda – hofizlarning yana bir o'ziga xos ijro yo'llaridan – bu erkin talqingga asoslangan asarlarni doyra cholg'usisiz ijro etishdan iboratdir.

cho‘zimlar bilan birga harakatchan va faol yo‘naladi. Bu jarayon ayniqsa asarning avj bo‘laklarida keskin ifoda etiladi. 26-30 taktlarda esa, Sodirxon uslubiga xos “hang”ning “Sh a x d” ko‘rinishi o‘rniga, yana katta ashulaga xos bo‘lgan “h a n g” qo‘llash usulida – tovushqator tizimidagi (kvinta oralig‘idagi) tovushlarni k u y l a n i sh i jro uslubi orqali ifoda etiladi.

“Sh a x d” usulida kuy asosini ma’lum ritmik tuzilma tashkil etgan bo‘lsa, bu asarda miyonpardadan asosiy tovushga tushish, ya’ni jumlan nihoyasini qayd etuvchi qo‘sishimcha furovard ko‘rinishida tashkil topgan.

Mumtoz asarlarning yorqin namunasi bo‘lgan “Sodirxon Ushshog‘i” Jo‘raxon Sultonov ijro uslubida Farg‘ona vodiysining o‘ziga xos ijro xususiyati bilan sug‘orilgan bo‘lib, yangicha xarakterdagi talqinini topadi. Mumtoz ashulalarni yovvoyi uslubda (usul erkinligida) ijro etish, Jo‘raxon Sultonov shaxsiy talqinining xarakterli jihatlaridan biridir.

Xonanda uslubining xarakterli tomonlari uning ijodiga mansub asarlarida ham o‘z ifodasini topadi. Ijodkor bastakorlik faoliyatida ko‘proq ustozona musiqaning murakkab t a l q i n , n a s r , s a v t usullarida va o‘ziga xos erkin rivoj topadigan asarlar yaratgan. (ilovaga qarang). Mumtoz usullar asosida yaratgan asarlarning bastakor uslubidagi xarakterli tomonlarini xonandaning ijodiga mansub “B o‘l m a s a” asari misolida ko‘rib chiqamiz.

---

Bu uslub ham hofizlar amaliyotida keng ommalashgan. Bu omil mazkur asarga ham tegishlidir.

Odatda, xalq xonanda va bastakorlari o‘z ijodlarida ustozona musiqaning *savt*, *talqin* kabi usullariga ko‘proq murojaat etishgan. Musiqa ijodiyotining ushbu yo‘li haqida Ishoq Rajabov quyidagi tushunchani keltirganlar: “Talqin doyra usuliga turli ritmik asosda bo‘lgan ashula yo‘llari o‘ng‘aylik bilan tushaveradi. Shuning uchun boshqa doira usullaridagi kuy va ashulalarni talqin doira usuliga tushirib ularning variatsiyalari amaliyotda ko‘p ishlataladi. Bastakor – melodistlar ijodida *chapandoz* va *talqin* doira usulida ishlangan musiqa asarlarining ko‘plab uchrashi fikrimizning dalilidir”.<sup>107</sup>

“Bo‘lmasa” ashula namunasi ham talqin doira usuliga asoslangan bo‘lib, Habibiyning muxammasiga o‘ziga xos shaklda kuy bog‘langan.<sup>108</sup> Kuyning tarkibiy tuzilishi jarayonida asos qilib olingan so‘z vazni va shakliga amal qilingan. Muxammasning har bir misrasiga kuyning ma’lum jumlesi – “x a t” ko‘rinishida tuzilgan. Eng muhim jihatlaridan biri muallifning ashula uchun yaratgan ohang mavzusidir.

Asar o‘ziga xos 5 x a t dan iborat bo‘lib, Muxammasning har bir misrasi bitta x a t ga to‘g‘ri keladi. Shaklda bu jarayon A V A S V harflari bilan qayd etilgan. Musiqiy namunada ifoda etilishicha kuyning asosiy qismini I, II, IV xatlar tashkil etadi. III va V xatlar kuy rivoji uchun zarur omil sifatida qo‘llaniladi.

Har bir x a t – musiqiy jumla, tarkib jihatidan o‘ziga xos ikki bo‘lakka bo‘linadi. Bu jarayon shaklida a – v – s – d – a<sup>1</sup> - v<sup>1</sup> – e - v<sup>2</sup> - c – v<sup>3</sup> tizimida kuy tuzilishi va rivoji asosida ifoda etilgan.


<sup>107</sup> Rajabov I. “Maqomlar masalasiga doir”, T., 1963 y. 202 b.

<sup>108</sup> Asarning nota ifodasi Jo‘raxon Sultonov ijrosida yozib olingan va O‘zRadio fondida saqlanayotgan namunasi asosida muallif tomonidan xatga tushirilgan.

Asar – *eonyi* ladida yaratilgan. Uning asosiy turg‘un tovushlari xarakterli bo‘lgan I, IV va V bosqichlarida joylashgan. Diapozon jihatidan I oktava va kvinta (kvartdetsima) oralig‘ini o‘z ichiga oladi ( $G^k$ -  $D^2$ ). Aynan shu tovushlar oralig‘i Jo‘raxon Sultonovning amaliy ijrosida eng ko‘p qo‘llagan ovoz diapozonining bosqichlarini tashkil qiladi.<sup>109</sup> Qayd etish joizki, kuyning tarkibiy tuzilishi jihatlarida turg‘unlik jihatlari bilan rivojlanish jarayonida uzlusiz zanjirni tashkil etgan turg‘un bosqichlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Asar matni musiqiy asarlarning talqinlarida aytildigan *ramali musammani mahfuz* she’r vaznida yozilgan muxammas namunasi asos qilib olinib, kuy ritmi bilan hamohang (mutanosib) tarzda ifoda etilgan. Ya’ni,

Say-ri gul-zor is -ta -man gul say -ri ra’-no bo‘l-ma-sa




Say-ri gul - zor - is-ta - ma - m - gol...  
say-ri - ra' - no - bo'l - ma - sa - Baz - mi - suh

15 kuy usuli va so‘z usulining mutanosib ifoda etilishi, asarning shakl jihatidan tarkib topish tizimini ham (simmetrik) ravon jihatlarini ta’minlaydi. Va har bir “x a t” (jumla) kuyning qaysi bo‘lagida

<sup>109</sup> “Jo‘raxon aka ovoz diapozonini musiqa tili bilan aystsak – “Re” dan – “Re” gacha (gohida – “Mi” gacha) ikki oktava mobaynida muqim bo‘lgan. Lekin, ashulalarni ko‘proq “Sol” va “Lya” pardalaridan boshlab aytar edilar” (Orifxon Hotamov suhbatidan.)

joylashmasin, shaklan o‘zgarmaydi – muayyan holda talqin etiladi.

Quyidagi shaklda asarning tarkibiy bo‘laklari tizimi ifoda etilgan:<sup>110</sup>



Kuy shaklining rivojlanish jarayoni maqomlarning asosiy sho‘balaridagi kabi ko‘rinishda tarkib topgan. Har bir x a t kuy harakatida ma’lum vazifani bajaradi. Ya’ni 1-x a t daromad ko‘rinishida asarning asosiy xarakterini ifodalab, kuyning bosh turg‘un bosqichini ko‘rsatadi. 2-x a t – Miyonxona vazifasida keladigan bu qism – asarning asosiy ohangini o‘ziga xos tarzda rivojlantiradi.

Musiqa namunasining melodik rivojida, xususan kuy II jumlada Katta ashula janriga xarakterli bo‘lgan oktava oralig‘iga (kutilmaganda) sakrab, kuy harakati bosqichma-bosqich xilma-xil kuylanish usullari bilan asosiy turg‘un tovushga qaytadi. Shu bilan

<sup>110</sup> Shaklda asarning bir muxammas so‘z matnining talqinidagi tarkibiy tuzilishlari aks ettirilgan. Ya’ni, musiqa tili bilan aytganda kuyning besh jumlesi demakdir. Asarning to‘liq ijrosida bu jarayon uch (3) marotaba (kuy qaytarilqlari hisobga olinmaydi) qaytariladi. Qaytarishlarida kuy saqlanib so‘z matnlari o‘zgaradi.

birga II - x a t daromad qismining III – xat ya’ni, Dunasr bilan o‘ziga xos bog‘lanishiga ham ta’sir etadi. Va bu harakatni yana bir omil – dunasrga tayyorlash deyish ham mumkin.

III – x a t Dunasr vazifasini to‘la ifodalaydi. Kuy rivoji ham o‘z o‘rnida boshlanish ko‘rinishining o‘zgargan variantida tashkil topgan.

IV - x a t – avj qismiga xos xususiyatlarni o‘zida mujassam etib, asarning eng yuqori pardalarida tarannum etiladi. Shu bilan birga kulminatsion jihatlarni namoyon etadi. V – x a t – furovard. Asar kuyning yana qaytib asosiy bosqichga va o‘ylangan g‘oyani nihoyasiga kuy harakati orqali yetkazish demakdir.

Asarning cholg‘u qismlari xonishdagi ohanglar, ya’ni kuychan (melodik) tuzilmalar yo‘nalishida tarkib topgan bo‘lib, ovoz talqiniga muqaddima sifatida tayyorlab beradi (1 – 8 taktlar). Shu yo‘sinda asarning dunasr qismiga ham o‘ziga xos tayyorlash jarayonini o‘tab (36-38 taktlar) xonishga kuy harakati tizimida jo‘navozlik vazifasini ham bajaradi. Qolaversa cholg‘u bo‘limi, asar rivojida keladigan va yana ikki marotaba yangi so‘z matnlari talqini bilan qaytariladigan jarayonda ham bog‘lovchilik vositasi vazifasini bajaradi. (67-73 taktlar).

O‘tkazilgan tahlildan shuni xulosa qilish mumkinki, xonanda o‘z uslubini ifoda etishda maqom sho‘balarining tuzilish tarkibi qiyofasidan kelib chiqib, katta ashula kuy rivoji xususiyatlariga asoslangan holda, asarni o‘ziga xos ashula yo‘lida shakllantiradi. Muxammas doirasida tarkibga kelgan shakl, qisqa muddat ichida, asarning barcha tovushqator pog‘onalarini kuy jumlalari vositasida ijrochi tomonidan ishg‘ol etib, kuylanib o‘tiladi. Bu jarayon ijrochidan

amaliyotda chiniqqan ijrochilik mahoratini, talqinda – tez moslashadigan ovoz xususiyatini, katta mahorat, mohirona ijro texnikasi va bilim talab qiladi.

Muxammas shaklidagi matnning to‘la ijrosi, go‘yoki bir nafas ichida talqin etilgandek. Ular orasidagi bog‘lovchi cholg‘u qismi esa nafasning bir zumga tinishini ifodalagandek. Katta ashula ijrochilik uslubiga xos bu tarkibiy rivojlanish jarayoni “*t a l q i n*” misolida metro ritmik mutanosib holda aksini topgan. Xonanda bu asarning metro ritmik asosida deyarli badiha uslubidan foydalanmagan. Badiha, *miyonxona, dunasr* va *avj* qismlarining so‘z talqini jarayonida usul tizimidan chiqmagan holda o‘ziga xos ifoda etilgan. Badihago‘ylik san’ati xonanda ijro uslubida keng qo‘llanilgan usul sifatida xarakterli bo‘lib, uning alohida asarlarida yorqin namoyon bo‘lishini e’tiborga olish lozimdir.

Erkin ijroga asoslangan har bir musiqiy namuna tarkibiy shakli doirasida badiha usulining turli jihatlaridan foydalanish imkoniyatida ijro uslubining o‘ziga xos tomonlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki, xonanda ijro mahoratini o‘z imkoniyati darajasida namoyon etish uchun badihago‘ylik uslubi kerakli sharoit yaratib beradi. Jumladan, Sodirxon hofiz badiha uslubini ko‘proq maddohlik yo‘liga asoslab ifoda etgan bo‘lsa, Jo‘raxon Sultonov ijro uslubida bu mezon katta ashulaning ijro yo‘li muhim omil sifatida gavdalanadi. Bunga yorqin misol sifatida xonandaning “*O h k i m*” asarini keltirish o‘rinli bo‘ladi (asarning to‘liq nota namunasi ilova qismida berilgan). Musiqiy namuna Furqat g‘azaliga bastalangan.

Asar – olti “x a t” –jumlalardan iborat bo‘lib, asosiy negizini I va II x a t lar tashkil etadi. III va V xatlar ijro va tuzilish jihatidan metro ritmik usulga asoslangan. I – x a tning aniq takrori ko‘rinishida keladi.

IV va VI x a tlar metro-ritmik jihatidan - e r k i n badihali talqin hisobiga II – x a tning qisman o‘zgarishlar bilan ijro etilgan variantidir ( $V^1$ ,  $V^2$  ).

Odatda, ashula namunalari ko‘p holatlarda cholg‘u daromadidan boshlanadi. Ushbu asar esa katta ashulaning xarakterli xususiyatlaridan andoza olgandek – sozlanish “h a n g” orqali so‘zsiz talqindan boshlanadi.



Asarning boshlang‘ich jumlesi uch taktdan iborat bo‘lib, asar uchun muqaddima vazifasini o‘taydi. Xonanda kuy tizimlariga asoslangan “h a n g” jumlesi orqali tinglovchini asarning ichki dunyosiga boshlaydi. Darhaqiqat asarning asosiy g‘oyasi birinchi “x a t” da mujassamlangan bo‘lib, kuy rivoji tarkibining o‘ziga xos “daromad” va “miyon parda” jihatli qismlarini tashkil etadi. Shaklda ko‘rsatilgan (A) jumlni ikki “n i m x a t”ga (A-V) va 4 bo‘lakka (a-v-s-v) bo‘lish mumkin. Chunki har bir bo‘lak ma’lum kuy tizimlarini tashkil etib, jumla tarkibida muhim jarayonni bajaradi.

Oh - kim

12 rahim ay - la-mas ho-lim... ga ja no - nim me-ning

kay - di ba... has - rat a - ti da kuy - ma-gan jo - num me-ning

Bu kuy bo'laklarini tugallangan nuqtalariga asoslanib kuy shaklining to'liq tarkibiy tuzilishini shakllantirish mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan asarning ushbu qismida, cholg'u peshravi orqali ikkinchi jumлага o'tiladi (to'g'rirog'i birinchi jumla ikkinchisiga ulanadi). Cholg'u bo'limi bir ohangda asoslangan ikki jumlani bog'lash vazifasini bajaradi.

II - x at o'zining barcha tuzilish, ohang rivoji, ma'nosi va g'oyasi bilan I - x a t dan farq qiladi (ijro omili jihatidan). Lekin, har qanday qarama-qarshilik yaratiluvchi omil, go'zallikning manbasi sifatida ushbu asarda ham o'z imkoniyatlarini namoyish etgan. Chunki, II xatning tarkibiy tuzilishi katta ashulaga xos tarzda ijro etiladi. Bu bo'limni "Katta ashulaning cholg'ular jo'rligida ijro etiladigan varianti deyish ham mumkin".<sup>111</sup>

<sup>111</sup> Katta ashula janrining cholg'u jo'rligida ijro etish uslubini ilk bor Jo'raxon Sultonov o'z ijodida qo'llagan (R.Abdullayev).


18 Katta ashula

yig'-la - may-mu go'-sha - i - zul-mat a - ro tong - ot gun eha  
 23  
 So'r - ma-sa bir-tun ke - lib sham'i sha-bis - to - nim me-ning  
 28  
 sham'i - i sha-bis-ton-nim me-ning

Ko‘rib turganimizdek II- xat yirik bir davriyadan iborat. Odatga ko‘ra davriya ikki “n i m x a t”ga bo‘linib, har biri o‘zining kuy rivojiga egadir. Bu yerda bastakor mumtoz musiqa, ya’ni maqomlar shakliga xarakterli bo‘lgan ayrim qonuniyatlardan chekinganlik jihatlarini ko‘ramiz. Bu albatta ashula taqozo etgan kuy rivoji tamoyili bilan xarakterlanadi. Buni biz “nimxatlarga” alohida bir musiqiy jumlachalar nuqtai nazaridan yondoshilganligini ko‘ramiz. Asardagi davriyalar shakllanishining o‘ziga xosligi ham shundadir. Chunki, bu musiqiy jumlachalar asarning ichki tarkibida o‘z o‘rniga ega va ularni muayyan tartibda joylashganliklarini ko‘rshimiz mumkin. Bunda ular qisqa-qisqa 3 – bo‘laklarga bo‘lingan va birinchi jumla erkin, ikkinchi va uchinchi jumlachalar bir ohangni boshlab rivojlantirganligi hamda yakunlanganligini ko‘rsatadi. Birinchi bo‘lak (yuqoridagi misolning 1-6 taktlari) kuyning avj qismi vazifasini o‘tab, kulminatsion nuqtani bildiruvchi – yuqorigi turg‘un tovush (*lya*)ni tasdiqlaydi. Ikkinci bo‘lak, uni ohang (intonatsion) orqali pog‘onama-pog‘ona asosiy tovushga (maqsadga erishildi degan ma’noda asosiy g‘oyani yakunlovchi ohangda) harakatlantiriladi. Lekin, kuy rivojinинг uchinchi

bo‘lagi –hang vositalari bilan eng yuqori pardaga yana bir chiqib, bosqichma-bosqich asosiy tovushga qaytadi.

II-nimxatning bo‘laklari ham ma’lum janr xususiyatlarini ifodalaydi. Jumladan: I-bo‘lak avj qismini nihoyasiga yetkazib, II-bo‘lak furovard qismiga tayyorlasa, III-bo‘lak ohang majmuasi doirasida asarning asosiy usuliga qaytaradi. Va o‘ylangan fikrni nihoyasiga yetkazadi. (Bu jarayon quyidagi shaklda munosib tizimini topgan). Shaklda yuqorida ko‘rsatilgan ikki “xat” tarkibiy tuzilishining harakatlari tartiblashtirilgan.



Shaklda o‘z ifodasini topgan kuy harakatining tarkibiy tuzilishi asarning ma’lum shaklda –rivojlanish mezoniga –asoslanganligini ko‘rsatib turibdi. Bu omilni “M a k r o” ko‘rinishi, maqom sho‘balari shaklida tarkib topgan bo‘lsa, shu shaklning qisqa muddatda, ya’ni “m i k r o” ko‘rinishini ushbu asarning ikki (II) “x a t” tarkibida qaror topganligini kuzatishimiz mumkin (albatta shartli tarzda).

Asarning to‘liq ijrosida bu jarayon yana ikki marotabi qaytariladi. Qaytarishlar (asosan IV va VI xatlar) erkin talqin etilib, badihago‘ylik yo‘sinda yangicha bezaklar bilan boyitiladi. Shu bilan birga har bir qaytarishlarda xonanda turli iじro sayqallarni ishlatib asarga mohirona tus beradi va iじro imkoniyatlarini boyligini ko‘rsatadi. Bunda asosiy mezon asarning lad va kuy asosida xonandaning mohirona talqin usullarini namoyish etishi, ashula ijrochiligining boy xususiyatlarini yana bir bor ifoda etishidir. Shuni alohida qayd qilish lozimki, yuqorida keltirilgan jihatlarni har bir xonanda asar ijrosida o‘z imkoniyatlarini ko‘rsatishda ham qo‘llashi mumkin. Faqat bu usullarni mohirona bajara olish talab etiladi. Chunki bu jarayon uning ijrochilik saviyasi va mohiyatini mukammal namoyish etishi mumkin.

Kuchli va baland ovozga ega bo‘lgan Jo‘raxon Sultonovning ijrosi katta ehtirosli (emotsional) talqin, aniq sersadoligi va shiddati bilan alohida ajralib turadi. Kuylash jarayonida u asarni o‘ziga xos latiflik va iliqlik, betakror va sof sadolar bilan boyitadi. Shu bilan birga uning ijrosida quyidagi silsila simon mantiqli harakatlar, so‘zlarni aniq va burro ifodalash, kuy jumlalarining bir-biriga ohangdosh bog‘lash kabi jihatlari muhim omillar sifatida gavdalanadi.

Hofizlik san’atining muhim jihatlaridan biri sifatida ovoz imkoniyatlari va uning talqinini yetakchilik qilishi barchaga ayon. Ovozning ijrochi tafakkuriga bo‘ysunishi esa bu o‘rinda juda ahamiyatlidir. Ovozning mukammallik, ko‘pxususiyatlik jihatlariga nazar soladigan bo‘lsak, Jo‘raxon Sultonovning ovozi o‘ta kuchli va ijroda shiddatli xarakterga egaligi bilan xarakterlanadi. Talqindagi ovozning salobati nihoyatda buyuklikka xos ekanligini tinglovchi his

qilishi muqarrar. Aynan ana shu imkoniyatlari xonandaning o‘z zamonasida beqiyos hofiz darajasiga ko‘tarilishiga sabab bo‘lgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Chunki bu omillar uning ijro uslubini shakllanishida, muhim mavqe’ga ega bo‘lishiga, o‘zini yanada aniqroq namoyish etishida katta ahamiyat kasb etgan.

Darhaqiqat, Farg‘ona-Toshkent ijrochilik an’analarini davom ettirish yo‘lida vujudga kelgan musiqa ijrochilik maktablarining orasida Jo‘raxon Sultonov talqiniga asoslangan uslub katta ashula, maqom yo‘llaridagi yirik shakldagi ashulalar va yalla janlarining o‘ziga xos tomonlarini o‘zida mujassam etgan zabardast yo‘ldir.<sup>112</sup>

Jo‘raxon Sultonovning ashula ijrochilik uslubi rosmana Farg‘ona vodiysi ijrochilik an’analariga xos bo‘lgan erkin talqinga asoslangan bo‘lib, unda katta ashula janrining muhim xususiyatlari asosiy mezon sifatida gavdalanadi. Bu jihatlar uning “Guluzorim qani”, “Oh kim”, “Bog‘ aro”, “Bir kelsun”, “O‘zbekistonim”, “Bo‘lmish” kabi asarlarida o‘z ifodasini topganligi bilan namoyon bo‘ladi. Xususan, xonandaning ijro uslubi xalqona mezonlar va mumtozona ijro omillarining uyg‘unligida shakllangan. Ya’ni, maqom sho‘balari va xalq yallalarining turli jihatlari munosib ifodasini topgan. Biz bu jihatlarni uning “Bo‘lmasa”, “O‘limasun”, “Ul kun janon”, “Chaman

---

<sup>112</sup> “ Jo‘raxon akaning ijro uslubi Farg‘ona-Toshkent hofizlari faoliyatidagi birinchi yo‘ldir. Bundan oldin faqat “katta ashula” ijrochilik maktablari bo‘lgan. Shuning uchun ko‘pchilik farg‘onalik hofizlarning ustozlari katta ashulachilardir. Jo‘raxon aka katta ashula ijrochilik maktabidan chiqib, unga ashula va xalq yallalarini qo‘sib, alohida ajralib chiqdi. Ijodida esa ana shu janrlarni eng chiroyli joylardidan foydalanib o‘ziga xos asarlar yaratdi. Asosan yuqori pardalarga asoslangan qo’shiqlarni hamma ham ijro eta olmaydi, faqat baland ovozli va ozgina bo‘lsada tajriba orttirgan hofizlargina ijro etishadi” (Orifxon Hotamov suhbatidan).

yalla”, “O‘lmisham”, “Dilrabolardan” kabi asarlarida ko‘rishimiz mumkin.

Jo‘raxon Sultonov ijro uslubining yana bir muhim tomoni – erkin ijroni cholg‘u jo‘rligida ifoda etishida va jo‘rnavorozlik uslubini an'anaga kirgizganida.<sup>113</sup> Chunki, bu yo‘nalishlar keyingi davrlarda o‘zbek mumtoz musiqa ijrochiligidagi yetakchi oqimlardan biri bo‘lib, ijrochilik amaliyotiga keng ommalashib kelmoqda desak mubolag‘a bo‘lmas.

Cholg‘ular jo‘rligida katta ashula uslubiga xos asarlarni ijro etish, o‘z davrida ustozona musiqa ijrochiligidagi yangi yo‘nalish olib kirgan edi. Ko‘pchilik hofizlar, xonandalar ijro dasturlarini yirik-yirik va erkin talqinga mansub mumtoz musiqa namunalari bilan boyitdilar. Shu bilan birga ashula jo‘rligida alohida tanbur yoki dutor cholg‘usidan foydalangan xonandalar, endilikda bu ikki cholg‘udan bir vaqtning o‘zida jo‘rnavorozlik yo‘lida keng foydalanishni qo‘llay boshladilar. Xonandalarning jo‘rnavoroz bo‘lib ijro etishlarida ham tanburdan keng foydalanildi.

Musiqa san’ati ijrochiligining ko‘p jihatlarini o‘zida mujassam etgan jo‘rnavorozlik uslubi musiqa ijrochiligidagi yangidan yangi imkoniyatlarini namoyon etadi. Bu albatta xonandalardan muayyan ijroviy jihatlarga e’tibor berishligi lozimligini ko‘rsatib beradi. Jumladan:

---

<sup>113</sup> “Oldin jo‘rnavorozlik katta ashulachilar amaliyotida keng qo‘llanilgan. Soz chalib (yallachilar) ijro etadigan hofizlar ijodida Jo‘raxon aka rasm qilgan. Uning hamnafasi, o‘zining shogirdi Ma’murjon Uzoqov. Bu ijro etish uslubi (omil) shundan keyin xonandalar ichida ommalashib ketdi. Buning asosiy sabablaridan biri saviyali murakkab maqom yo‘llaridagi va xalq yo‘lidagi ashulalarni katta davralarda ijro etish. Ilgari ovoz kuchaytiruvchi moslamalar yo‘q edi. Bir hofizga ko‘p muddat xonish qilib turish qiyinchiliklar tug‘dirardi”.

- xonandalarning ijo jarayoniga bo‘ladigan e’tiborini kuchaytirish;
- bir-birini tinglab xonishni boyitish;
- mutanosib nafas olish va uning zaminidagi talqinning bir-biriga mos holda tarannum etilishini ta’minlash;
- asar ijrosidagi agogik<sup>114</sup> ijo etish uslublarida o‘ta diqqatli bo‘lib, ovozlarni sekin va tezlatish mezonlariga e’tibor qaratish va h.k.

Jo‘rnavozlik uslubi xonandalikning yangi qirralarini ochib berdi. Rosmana hofizlarning ijo an’analarida amalda bo‘lgan ijroviy jihatlarni tiklash va an’ana asosida davom ettirib, zamonaviy ijo talqinlarini yaratishga imkoniyati borlar uchun keng yo‘l ochib berdi.

Jo‘raxon Sultonov ijodiy faoliyatining yana bir muhim tarmog‘i bu ustozlikdir. Darhaqiqat, ustoz san’atkor nafaqat xonandalikda, balki o‘zbek madaniyati va san’ati rivojida o‘zining munosib hissasini ko‘rsatib kelayotgan yetuk, bilimdon va mahoratli shogirdlarni tarbiyalab, voyaga yetkazishga muyassar bo‘lgan. Shuni qayd etish lozimki Jo‘raxon Sultonovning ijrochilik maktabi shakllanganligi ustozning ijo an’analarini avlodlar tomonidan davom ettirilayotganidan dalolatdir.

Ustozning tarbiyasini olib, yonlarida yurib hamnafaslik qilib, yetuklik darajasigacha erishgan ustoz san’atkorlar Ma’murjon Uzoqov (Xalq hofizi), Kommuna Ismoilova (Xalq artisti), Orifxon Hotamov (Xalq hofizi), Ochilxon Otaxonov (xalq hofizi), Zokirjon Sultonov (O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist) kabi manzurnafas xonandalar

---

<sup>114</sup> Agogika – musiqiy asar ijrosi jarayonida musiqiy suratning talqin zaruratidan kelib chiqib tezlashishi yoki sekinlashishi.

o‘zbek ustozona musiqa ijrochiligining zabardast namoyandalaridan hisoblanganlar. Hozirgi davrga kelib, Jo‘raxon Sultonov uslubida tarbiya olib ustozlik darajasiga yetgan zamon xonandalari ham talaygina. Sultonali Mannopov, Solijon Mamatov, Qobiljon Yusupov, Mahmudjon Yo‘ldoshev, Mahmudjon Tojiboyev kabi ustoz san’atkorlar shu maktabning namoyandalari qatoridagi ustozlardir.

O‘zbek musiqa san’ati rivoji yo‘lida samarali mehnat va ijod etgan, zamonamizning yetuk sozanda, xonanda va bastakori Jo‘raxon Sultonov o‘z ijrochilik mahorati negizida mustaqil ijro uslubini yaratdi. Keyingi avlod ustozning ijro uslubiga tarbiyalanib mumtoz ijrochilik an’analarini o‘zlashtirganlar. Ijodiy jarayon har bir yetuk san’at namoyandasini mustaqil izlanishga imkoniyatlar tug‘dirishi muqarrardir. Bu rosmana ijodiyot qonuniyatlaridan ekanligini e’tirof etish lozimdir. Zero o‘zbek mumtoz musiqa ijrochilik san’atining namoyandalaridan aksariyatlari ustozlar an’analarini, uslublarini mukammal o‘zlashtirishga erishganlar. Bevosita ijrochilik amaliyotida bir qator xonandalar o‘z shaxsiy ijro uslublarini (ustozlar ijro uslubi zaminida) yaratishga muyassar bo‘ldilar. Jumladan: Rasul qori Mamadaliyev, Orifxon Hotamov, Fattohxon Mamadaliyev va Ochilxon Otaxonovlar. Zamanoviy jarayonda, maqom san’atining rivojiga katta ahamiyat qaratilayotgan bir paytda yosh lekin maqom ijrochiligidagi mehr qo‘yib muvaffaqiyatli o‘zlashtirayotgan ko‘pchilik xonandalar, ustozning ijro uslubini ibrat darajada o‘zlashtirayotganligini e’tirof etish joizdir.

## RASULQORI MAMADALIYEV

Rasulqori Mamadaliyev – zamonaviy o‘zbek musiqa san’atining rivojiga salmoqli hissa qo‘sghan, hofizlik san’atining mohirlik darajasidagi turli qirralarini egallahsga erishgan, milliy cholg‘u ijrochiligidagi, xususan, tanbur talqinida betakror uslub kashf etgan, o‘z faoliyati davomida bir qator zamonasiga munosib shogirdlar tarbiyalagan zabardast ustoz-san’atkordir.

Rasulqori Mamadaliyev ijrochilik faoliyatining shakllanishi, asoslanishi boshqa hofiz va xonandalardan tubdan farq qiladi. O‘ziga xos noyob iste’dod egasining san’at olamiga kirib kelishi – plastinkalarda (munggardishlarda) darj etilgan Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, Sodirxon hofiz Bobosharifov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Levicha hofiz Boboxonov, Domullo Halim Ibodov, Erka Qori Karimov kabi ustozona musiqa san’atining zabardast hofizlarini xonishlari sabab bo‘lgan. Mumtoz ashula namunalarining sehrli ohanglari, purma’no so‘z matnlari uning yoshlik chog‘laridayoq o‘ziga mahliyo eta olgan. “To‘qqiz yoshida Suzoq qishlog‘ida (Qirg‘iziston Respublikasi, Jalolobod viloyatining Suzoq tumani) joylashgan choyxonadagi “patifon”dan Segoh ashulasini o‘rgangan. Va yod olib mohirlik bilan ijro etgan”.<sup>115</sup>(xonanda haqida o‘g‘li Sodiqjon Mamadaliyevning suhbatidan. 1994 y.).

“Ustozlar haqida so‘z ketganda – deb eslaydi shogirdlaridan biri Rahimjon Kamolov (Farg‘ona viloyati, Yangiqo‘rg‘on tumani,

---

<sup>115</sup> 1993 yil, avgust. Muallifning R.Abdullayev bilan birqalikda o‘tkazgan ilmiy ekspedisiya materiallaridan.

Buvayda shahridan) – mening ustozim gramofon, lekin namuna Erka Qori – deb javob qilar edilar”<sup>116</sup> Shu bilan birga, zamonasining yetuk xonandalari ijro etgan asarlar, mumtoz musiqa talqinida erishgan o‘ziga xos uslublar uni musiqa san’atini nazariy hamda amaliy o‘rganishga undagan omillardandir. Chunki, o‘ta kuchli xotira egasi bo‘lgan Rasul qori Mamadaliyev tinglagan har bir musiqa namunasini ijobiy tomonlari va shu bilan birga kamchilliklarini ham osonlik bilan anglab olar edi. Mumtoz musiqamizning turli xususiyatlarini, ijrochilik omillarining mohiyati va zarur qonun qoidalarini o‘z zamonasining bir qator ustozlari rahnamoligida o‘zlashtirdi. Musiqa ilmi bilan bog‘liq, tarkibiy va nazariy jihatlarini ma’lum vaqt davomida taniqli musiqa san’ati namoyandasini To‘xtasin Jalilovdan o‘rganadi.

Rasulqori Mamadaliyev ijodiy faoliyati davomida o‘zining o‘tkir so‘zligi, otashnafas xonishlari, bastakorlik iqtidori va mohir sozandaligi bilan o‘zbek mumtoz musiqa san’ati ijrochiligida o‘zining ijro yo‘lini yaratishga muyassar bo‘ladi. Farg‘ona vodiysida mashhur bo‘lgan ustozi san’atkorlar Mamatbuva Sattorov, Erka Qori Karimov, Hamroqul Qori kabi Farg‘ona vodiysida o‘zining ijro uslublariga ega bo‘lgan san’atimiz darg‘alarining ijro an’analarini o‘zlashtirib, ijodining pirovardida o‘ziga xos jozibalar bilan sug‘orilgan ijrochilik uslubini yaratadi. Ijrochilik faoliyatining ilk qadamlari o‘zbek san’atining mumtoz musiqa ijrochiligida dong taratgan namoyandalari ijro repertuarlarini o‘zlashtirish bilan boshlandi. Ustozlar xonishlarini idroklash va ularga munosib talqin etish Rasulqori Mamadaliyevning ijrolari etaloni edi. Zero mukammallik uning shiori va intilish uchun

<sup>116</sup> Mazkur ekspedisiya materiallaridan.

oliy maqsadi edi. Shu bois uning ijrochilik uslubida o‘ziga xoslik, ustozlarning ijro an’analari, mohirlik va mumtozlik mujassam topgan. Shu bois u ijrochilik faoliyatining ilk damlaridanoq Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llariga mansub “Dugoh Husayniy”, “Bayotlar”, “Segoh”, “Gulyor”, Xorazm suvoralari, xalq bastakorlarning “Eshvoy”, “Bozurgoniy”, “Guluzorim” kabi mumtoz ashulalarni mohirona ijro etib, mumtoz musiqa merosimiz xonandasi sifatida elga taniladi. Davr san’atkorlari, ustoz va izdoshlar uning benazir xonishlari va askiya borasidagi hozirjavobligini inobatga olib o‘zgacha lutf bilan “Qori” deb atasha boshlaydilar. Faoliyati davomida o‘zbek musiqa ijrochiligidagi mavjud ijro yo‘llarini mukammal o‘zlashtirishga erishadi. Bu albatta mavjud maqomot yo‘llari, turli vohalardagi taniqli yetuk maqomxon ashulachi ustoz san’atkorlarning ijro uslublariga xos yo‘llardir. Ijrochilikda kamolotga yetgan davrida u tanbur sozini mohir ijrochisi, xonandalikda ma’lum malakaga erishgan hofiz sifatida shakllanadi.

Qayd etish joizki, Rasulqori Mamadaliyevning o‘zbek mumtoz adabiyotga bo‘lgan munosabati hofizona xislatlar bilan uyg‘un. Adabiy merosni amallarini qunt bilan o‘zlashtishga harakat qiladi.

Nozik didli hofiz va mumtoz adabiyot shaydosi bo‘lgan xonanda o‘z faoliyati davomida o‘zbek mumtoz shoirlarining ijodlarini ishtiyoq bilan o‘rganadi, o‘z ijodida ularning adabiy merosiga takror-takror murojaat etadi. Mumtoz adabiyot namoyandalari, adabiy me’rosi, ijod an’analarini o‘zlashtirishga harakat qiladi. Shu bilan birgalikda U zamonasining yetuk g‘azalnavis shoirlari, xonandalari, askiyachilari bilan yaqindan hamkorlik qilib o‘z faoliyatini mazmunli va samarali

olib boradi. Shoirlardan G‘afur G‘ulom, Sobir Abdulla, Charxiy domla, Chustiy, bastakorlardan To‘xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Muxtorjon Murtazoyev, Imomjon Ikromov, xonandalardan Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Orifxon Hotamov, Ma’rufxo‘ja Bahodirov, Abdulhay Maxsum Qozøqov kabi zamondoshlari bilan doimiy ijodiy munosabatda bo‘ladi. Adabiyotimiz namoyandalarining yaratgan g‘azallarini o‘z uslubida o‘zgacha tus burib talqin etishga erishadi. Ijodiy munosabatlar Rasulqori Mamadaliyev ijodida bastakorlik faoliyatini kamol topishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bir qator mumtozona kuy va ashulalarni yaratishga muyassar bo‘ladi.

Rasulqori Mamadaliyevning ijrosidagi yana bir ijodiy joziba manbai uning mumtoz musiqa namunalarini turli shoirlarning g‘azallari bilan ijro etishidadir. Bu borada xonanda o‘z ijodida ko‘pdan-ko‘p asarlarni turli shoirlarning g‘azallari bilan ijro etib, ijrochilik amaliyotida munosib meros qoldirishga muyassar bo‘ladi. Jumladan: Samarqand Ushshog‘i kuyi asosida yettita g‘azal, Ushshoq (Toshkent) 16 ta g‘azal bilan, Dugoh Husayni 7 ta, Chorzarb 3 ta, Girya 4 ta va Chorgohlar kabi mumtoz namunalar turli so‘zlar bilan ijro etilganligini e’tirof etish joizdir.

Yillar davomidagi saboq jarayoni, merosni o‘zlashritish samaralari, ijrochilik amaliyotidagi yutuqlari mohir san’at namoyandasasi sifatida shakllanishiga asos bo‘ladi. U albatta kuchli xotira sohibi edi. Katta ashula, ashula va yallalar ijrochiliginu munosib egallab, o‘z ijrosini turli xususiyatlar bilan boyitganligi uning ijro repertuarida yaqqol namoyon edi. U o‘zining ijrochilik mahoratini

mustahkamlashda nafaqt Sharq xalqlari musiqiy madaniyati, balki G‘arb musiqa ijrochilik an‘analariga ham befarq bo‘lmanligini alohida e’tirof etish lozimdir. U har qanday mukammal asar ijrosini va umumbashariy ardog‘da bo‘lgan san’at namunalarini topib o‘rganishga hamda ularning mohirlik jihatlarini o‘zlashtirishga harakat qilib mohirona ijrosiga erishardi. Shu bois bo‘lsa kerak, u qardosh xalqlar musiqalarini ko‘p tinglab, sevimli sozi tanburda talqin etar edi. Pirovardida o‘ziga xos ijro uslubini yaratadi. Turli xalqlar musiqa ijro an‘analarini o‘zlashtirishi, ustozlarning ijro yo‘llarini mukammal bilishi albatta xonandaning ijro uslubini umumbashariy jihatlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Ijrochilik san’ati an‘analarining zargarona va ijodiy munosabatda talqin etiladigan unsurlari bir qator xonandalik va sozandalikda muhim bo‘lgan jihatlar xonandaning ijro uslubida asosiy omillar sifatida mujassam topadi. Bu jihatlar Rasulqori Mamadaliyevning ijro uslubidagi asosiy jihatlar sifatida shakllanadi. Jumladan:

- musiqiy asarning benuqson talqini;
- ohang talaffuzidagi soflik;
- so‘z talqinining burroligi va aniqlik;
- matnni mutanosib talqin etish;
- matn mazmuniga xos ohanglar talqini;
- ijrodagi shiddat .

Bu jihatlar xonanda talqinidagi sifatlar bo‘lib, har qanday musiqiy namuna uning ijro uslubida ana shunday xususiyatlar bilan sug‘orilgan holda o‘ziga xos talqinini topadi.

Qayd etish joizki Rasulqori Mamadaliyevning ijro uslubida bevosita asar talqin etish ijrochidan juda katta mahorat talab etadi. Mahoratni namoyon etish uchun esa bir qator tabiiy va saboq davrida o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan hofizona xususiyatlarni o‘zida mujassam etish talab etiladi:

- *yangroq va keng diapozonli ovoz;*
- *so ‘zlarni ma’nolar kesimida burro va tarovatli talaffuzi;*
- *serjilo ohanglarni rang-barang sayqallar bilan bezab shiddatli talqin etish;*
- soz bilan xonishga jo‘r bo‘lishda mohirlik va o‘ziga xoslik jihatlarga ega bo‘lishlik lozim bo‘ladi.

Zero, ushbu uslubda asar ijrosida cholg‘u talqini ham xonishga xos ma’noli, dona-dona va shu bilan birga sersayqal ko‘rinishga ega bo‘lishi muhimdir.

Mumtoz musiqa san’atiga sidqi-dildan mehr qo‘ygan Rasulqori uning betakror talqiniga erishish maqsadida musiqa ijrochiligi bilan bog‘liq barcha ijro uslublarini tubdan, negizidan boshlab o‘zlashtirishga uringan va pirovard samaraga ham erishgan. Samaraning natijasini biz xonanda tomonidan milliy xonandalik, ovoz talqinining turli sohalar bilan bog‘liq unsurlari va an’anaviy qoidalarini mohirona idroklaganligida ko‘ramiz. Shu yo‘ldagi ilk qadamlar Qur’oni Karimning oyatlarini ifodali qiroatidir.

Odatda, Qur’oni Karim oyatlarining har bir harf talaffuzi to‘g‘ri, aniq, burro, jozibali va chiroyli ohangda ifodalanishi lozim. Uning ustiga har bir harf talaffuzi negizida tilning muayyan holatdagi og‘iz atrofiga tekkizish qonuniyatlariga idroklagan holda amal qilish kerak

bo‘ladi. Bir qator musiqiy janrlarning ijrochilik xususiyatlari bilan tanishgan va o‘z ijrochilik amaliyotida ko‘rib chiqqan Rasul qori, Qur’oni Karim oyatlarini ifodali qiroat bilan o‘qish jihatlarini o‘z ijrochilik mezonida (xonandalik yo‘llarida) asosiy omillardan biri sifatida qabul qiladi. O‘z ijrochilik va ijodiy faoliyatida doimiy qoida qabilida unga rioya qiladi. Ikkinchidan mana shu omilni cholg‘u ijrochiligida, soz talqinida ifoda etishga urinadi va erishadi. Ya’ni, cholg‘u ijrosidagi aniq tovushlar talqini, har bir pardadan tarannum etiladigan musiqiy tovushlarning mustahkam, to‘liq sadoli va o‘ziga xos, shu bilan birga mos jiloli ifodasiga erishishdir. Bu o‘rinda sozandalik bilimi, ijrodagi *shiddat* va an’anaga xos xususiyatlarni cholg‘u sozi imkoniyatlarini o‘zida mujassam etishi muhimdir.

Yorqin iste’dod egasi bo‘lgan Rasulqori Mamadaliyev bu jihatlarning davrining ustozlari amaliyotida bevosita ko‘rib, tinglab va birgalikda ijod etib iqror bo‘lish evaziga erishadi. U avvalo o‘z davri ustozlari xonishlarini maroq bilan tinglabgina qolmay balki, asarlarning so‘zlarini yod olib xonish sirlarini hamda tanbur, dutor, g‘ijjak kabi cholg‘ular ijrochiligin qunt bilan o‘zlashtirgan. Zamonasining yetuk hofizlari Madali hofiz, Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Eshmat Haydarov kabi ustoz san’atkorlarning davrasida bo‘lib ijrochilik an’analarini o‘zlashtirgan. Xonandalikni mukammal o‘rganishda unga barcha ustozlarning kuylash uslublari muhim omil bo‘lgan va ular asosida o‘zining bevosita munosabatini ko‘rsatib, ijodiy yondoshib yangicha talqin etish yo‘llarini qidiradi.

Bunga albatta ijrochining o‘zida ham ma’lum iste’dod va shunga loyiq saboq jarayoni va albatta imkoniyat mezonlari bo‘lishi juda

muhimdir. Bizga ma'lumki, Rasulqori Mamadaliyev ijodiy faoliyat davomida o'zining o'tkir so'zligi, otashnafas xonishlari, bastakorlik iqtidori va mohir sozandaligi bilan o'zbek mumtoz musiqa san'ati ijrochiligida o'zining o'rni va shunga mos mahoratga ega bo'lgan. Shuning zamini turli izlanishlar va ustozlarning an'analarini davom ettirish ham asosiy maqsadlaridan biri sifatida doimo uni asarlar ijrosiga yangicha yondoshish tamoyillarini shakllantirgan deyish mumkin. Zero, Farg'ona vodiysining mashhur ustoz san'atkorlari Mamatbuva Sattorov, Erka Qori Karimov, Hamroqul Qori kabi o'z ijro uslublari Rasulqori Mamadaliyev uchun doimo ibrat sifatida bo'lgan. Va buni xonanda doimo e'tirof etib o'tgan. Shuning uchun bo'lsa kerak xonanda ushbu ustozlar ijro an'analarini o'zlashtirib, ijodining pirovardida o'ziga xos jozibalar bilan sug'orilgan ijrochilik uslubini shakllantirishga erishadi.

Rasulqori Mamadaliyev merosini o'rganish faoliyatida yuqorida keltirilgan maqomdon xonandalarning ijrolari muhim ahamiyatga ega bo'lsa, uning mustaqil ijro yo'li shakllanishida katta ashula ijrochiligining mohir namoyandasini Farg'ona vodiysi - Qo'qon maktabining peshqadamlaridan biri – Erka qori Karimovning ijrochilik uslubi alohida o'rinni tutadi. Bundan tashqari Rasulqori nafaqat maqom yoki Farg'ona vodiysi ashula yo'llari namunalarining asoslari bilan qiziqqan, balki qardosh xalqlar qo'shiq ijrochiligidagi talaffuz, kuy rivoji, uslub, ijro texnikalarini ham ishtiyooq bilan tinglab o'z ijrochiligida keng foydalangan. Shu bois uning ijrochilik uslubi shakllanishida va tarkib topishida musiqaning usul jihatlarini mustahkamligi va muhimligi, so'z talaffuzining burroligi va mazmunli

serjiloligi, soz va ovoz talqinining mutanosibligi, texnikaviy jihatlarga boyligi va ijroda shiddat hamda mohirlik yaqqol sezilib turadi.

Farg‘ona vodiysida shakllangan ijob yo‘llarining har biri o‘ziga xoslikka ega. Ma’lum bir uslub darajasiga erishish jarayonida xalq an’analari, ijrochiligi, ustozlar ijob an’analari va talqinlari muhim ahamiyat kasb etadi. XX asr o‘rtalariga kelib, mumtoz xonandalik ijrochilik an’analarda Rasulqori Mamadaliyev uslubi xonandalik amaliyotida o‘ziga xos tomonlari bilan alohida ajralib turganini ko‘rish mumkin. Rasulqori Mamadaliyevning ijob U s l u b i – Farg‘ona vodiysi ijob an’analari, katta ashula, maddohlik yo‘llariga xos bo‘lgan usullar, Jo‘raxon Sultonov ijob uslubi, maqom yo‘llari, turli xalqlar ijrochilik san’atidan bahramand bo‘lgan holda shakllanib, ijrochilik amaliyotini yana yangi talqin yo‘llari bilan boyitdi.

Uning ijrochilik uslubining o‘ziga xosligini alohida qayd etish lozim. Zero, uslub mukammal bo‘lgani, undagi jihatlarning soddaligi va shu o‘rinda ularni mukammallikka erishganligi, muayyan texnikaviy unsurlar o‘rnida qo‘llanilishligi, turfaligi bilan qadr topadi. Uslubining asosiy jihatlari sifatida quyidagi unsurlar qaror topganligini ko‘rsatish mumkin. Ijro uslubining o‘ziga xosligi:

- so‘z talqinining mukammalligi;
- tovush va ularning bog‘lanish silsilasidagi o‘ziga xos kuyylanish;
- asarga beriladigan bezaklarning rang-barangligi va mutanosibligi;
- ijroni shunchaki emas, balki shiddatli talqin etish;

- o‘z ijrosiga ya’ni xonishiga cholg‘uda mukammal jo‘rnavozlik qilish;
- muqobil ovozlar bilan jo‘rovozligi;
- ijroda usulga mukammalligi;
- ijro texnikasini unumli qo‘llashi;
- ijro dasturining rang-barangligi va boyligi kabi jihatlarda namoyon bo‘ladi.

Hofizlik san’atida alohida ahamiyatga molik bo‘lgan so‘z talqini xonandalik mohiyatining asosiy sifatlari dandir. Bu omil Rasulqori Mamadaliyev talqinida mukammal tarzdi ifodasini topganligi uning ashula ijrochiligida namoyon bo‘ladi. Odatda, u har bir asarini teran idrok lab uning so‘z matni ma’nolaridan kelib chiqib musiqiy namunalar ohangida ijro etadi. Va ulardagi g‘oyibona ma’no asosida ifodalashga harakat qiladi. Bu o‘rinda u har bir jumlaning so‘zlariga, so‘zlarining bo‘g‘inlarini o‘ziga xos x a r a k t e r l i qoidalarga asoslangan holda, har bir tovushni (harfni) alohida sayqal bilan bezab ijro etishini alohida e’tirof etish joizdir. Bu omilni ijroda yorqin namoyon etadigan mezon xonandaning burro talaffuzi va shiddatli yorqin ovozi deyish mumkin. Xonandaning purma’no va go‘zal ijrolariga shinavandalarning “*Dovudiy ovoz egasi...*”, “*Zamon bog‘ining xushilhom bulbuli*”, “*Sho‘x chapani ovoz*”, “*Sehrli va qudratli ovoz sohibi*”<sup>117</sup> kabi Rasulqori talqiniga bergen baholari fikrimizni yanada jonlantiradi.

---

<sup>117</sup> -“Menga Rasulqorining so‘zlarni ravon, burro talaffuz etishi, qo‘shiqni turli ochirimlar bilan bezab kuylashi yoqadi” –Xonandaning bir necha yillar davomida hamnafasi, hamkor bo‘lgan taniqli hofiz Kamoliddin Hamroqulov so‘zi. (Sherali Sokin o‘z maqlasida keltirgan. “Iste’dodning olmos qirralari”, //Sovet O‘zbekistoni san’ati . 1979 y. № 5, 8-9 b.)

“Musiqada – deb yozadi taniqli musiqashunos olim Y.G.Kon – birinchi jarayon (kod) tovush hisoblanadi. Ko‘p hollarda odamlar musiqani uyushmagan tovush darajasida emas, balki, .... barqaror sadolar ko‘rinishida qabul qiladilar”.<sup>118</sup> Hammaga ma’lum xonandalikda tovush ovoz vositasida asosan so‘z bilan ifodalanadi. Demak, xonandalik san’atida so‘zning alohida ifodasi emas, balki, jumla tizimidagi so‘zlar majmuasi shaklida ohanglar talqinida qabul qilinadi. Bu o‘rinda, Rasulqori ijroda har bir asar asosidagi so‘z matnining tarkibi va ma’nosini teran idroklagan holda, she’r vazni asoslariga amal qiladi. Musiqa ohanglari orqali ularni bir-biriga mos bog‘lanishi ijrochilik xususiyatlarining asosiy jihatlari sifatida gavdalanadi.

Rasulqori Mamadaliyev noyob iste’dod egasi bo‘lgan. Ijodida muntazam izlanishda, musiqiy merosning yangicha talqinlarini izlab topishda va ma’lum asarni turli vazndagi g‘azallar bilan ijro etishda mohirlik ekanligini kuzatish mumkin. Shu bilan birga bunday ijroviy va ijodiy, nazariy va amaliy unsurlarni o‘rganish uchun hech qachon vaqtini ayamas edi. Zeroki, adabiyot, she’riyatni yaxshi idroklagan xonanda g‘azallarni har xil usul vositasidagi musiqiy namunalarda mushkilligini his etmay ijro etishga qodir bo‘lgan. Bu jarayonda asosiy omil kuy usuli tizimida she’rni ohang bilan ravon va jozibali talqin etishdir.

Musiqa ijrochilik talqinidagi kuy ohanglarini N.Toshtemirov o‘z ilmiy tadqiqotlarida 3 turga bo‘ladi: “a) kuy yoqimli, mungli (yig‘loqi)

<sup>118</sup> Кон Ю.Г. Некоторые вопросы ладового строения узбекской народной песни и его гармонизации. Т., «Фан», 1970 г. 12 с.

ohang; b) nutqiy so‘zdosh kuy ohangi; v) “dil yozdi”(lirik) kuy ohanglari”.<sup>119</sup>

Albatta, har bir tur ma’lum musiqiy janrlarda to‘la ifodasini topadi. Lekin hofizlik, xonandalik san’atida ularni birlashtirilgan (uyqash) holda foydalanilishi munosabatida o‘ziga xos ijro yo‘llari yuzaga kelgan.

Yuqorida keltirilgan Sodirxon hofiz ijro uslubi ko‘proq ikkinchi turdagи maddohlik yo‘li asosidagi nutqdosh ohanglar majmuasiga xos bo‘lsa, Jo‘raxon Sultonov ijro uslubi katta ashulaga xos nutqdosh ohanglar namunasiga ko‘proq to‘g‘ri keladi. Rasulqori Mamadaliyev ijro uslubida har uchchala tur ko‘proq uyqash (sinkretik) ko‘rinishda ifodasini topadi. Uning so‘zlarini burro ifoda etishi nurqdosh ohangiga yaqinroq. Lekin bu omilni sayqallar bilan bezab, shiddat bilan jonlantirib ijro etishida o‘ziga xos yo‘nalish yuzaga keladi. Xonanda ijrochilik jarayonida uzoq cho‘zimli (Jumlalarni nisbatan uzaytiruvchi) hang lardan oz miqdorda foydalanadi. (Bunday amalni Rasulqori talqinida ko‘proq asarning furovard qismlarida qo‘llaganligini uchratishimiz mumkin). Uning ijro uslubi ko‘proq yana shu kuy ohanglarining (har jumlada) yangicha sayqal va joziba bilan muayyan tarkib topishida gavdalanadi. Shu bilan birga o‘zining erkin ijrosi negizida “i s t”<sup>120</sup> uslubiga ko‘proq asoslanadi. Albatta, kuy tizimi rivojiga muqobil tarzda emas, balki asarni uqtirib, (e’tiborni jalb etish

<sup>119</sup> Тоштемиров Н. Узбекское народное песенное творчество Джизакской области, (Дисс) 1988 г. 96 с.

<sup>120</sup> -I s t – t a v a q q u f, m u q o v a m a t, sabr qilish, shoshilmaslik ma’nolarida ishlatalidi.

ma'nosida) ijroda kuylanayotgan asar jumlasini yanada ifodaliroq tarannum etishda qo'llaniladi.

"I s t" – uslubiga (emotsional) his tuyg'uni ifodalash zamirida yondoshadigan bo'lsak, xonandaning qalbidagi his-tuyg'u, ijo etilayotgan ashula dunyosiga kirib ohanglar og'ushiga sho'ng'ib, jo'shqin hayajon bilan (yurak usuli ostida – ta'sirli) ifoda etiladi.

Misol tariqasida xonanda ijrosidagi, nota namunasiga tushirilgan "G a z a l x o n l i k" (Nota namunasi ilovada berilgan) asarini keltiramiz. Quyida musiqiy namunanining taktlarga bo'lingan mezoni raqamlarda ko'rsatilsa (Tagiga chizilgan raqamlar so'zlar bilan talqin etiladigan jumlalar yoki jumlachalar), asarning ohang tuzilish (x a t, n i m x a t larini) bo'laklarini harflar ifodasida bayon etamiz: (Mazkur asar "Hajazi musammani solim" vaznidagi Chustiyning g'azali bilan aytiladi)

A	B	C	E	B	U	U	B
a - v	s-v <sup>1</sup>	c <sup>1</sup> - d	e - c <sup>2</sup>	c - v <sup>1</sup>	e <sup>1</sup> - f	d - v <sup>3</sup>	s <sup>3</sup> - v <sup>4</sup>
4-4-2-4	-4-4-4-4	-4-2-4-6	4-4-2-	-4-4-4	4-4-6/4-4/	4-4-4-4	4-7/4-3/
- - -	- - -	- - -	- - -	- - -	- - -	- - -	- - -

Keltirilgan misolda aks ettirilganidek VII – x a t dan iborat kuyning tarkibiy tuzilishi bir meyorda (simmetrik tarzda) rivojlanadi. (1-xat – 8 takt; nimxat – 4 takt). Faqat, V va VII-taktlarda qo'shimcha 2 va 3 taktlar ifoda etilganini ko'ramiz. VI – xat va avj qismi hisobiga

“i s t” uslubini mohirona qo‘llab va bu fikrni nihoyasiga yetkazish uchun yana qo‘srimcha 2 takt qo‘sadi. Bu 2 takt o‘z o‘rnida hang ijro usuli asosida ijro etiladi. (Quyidagi misolga qarang:)

60  
O-mon-lik it - ti - foq-lik Meh-ri-bon-lik  
64 Men-da jam ul jam Ha-mi-sha  
68 tiz cho'kar bu Qud-ra-tim-ga xo - nu sul-ton-lik

Asarga, musiqiy tahlil nuqtai nazaridan yondoshadigan bo‘lsak, yakunlovchi kadans doirasining asosiy tonga yechilishi 1 taktga uzaytirilgan (uzilgan kadans). Albatta, xatning 8 – taktida yondosh (*lya*) tovushi (vaqtinchalik tonika vazifasida keladigan) *sol* tovushiga yechilishi kerak edi (Ohangning rivoji va tayanishi bo‘yicha). Lekin, biz yuqorida ta’kidlab o‘tgan “i s t” va hayajonli jarayon hisobidan tarkibiy tuzilish o‘zgaradi. Shu bilan birga 6 – xat qo‘llanilgan ijro uslubi evaziga asar dramatik rivojining markaziy nuqtasi (kulminatsion markazi) sifatida ham o‘zini namoyon etadi.

Yuqorida keltirilgan misoldagi tasvir asosida biz, asarning harflar ifodasidagi ko‘rinishidan kuy tuzilmalarini aniq tasavvur etishimiz mumkin. Garchand, birinchi qatorda katta harflar bilan berilgan x a t l a r (A, V, S, E, V, G, G, V<sup>1</sup>) harflar tizimi asarni yangi ohanglarga asoslanishini ko‘rsatsa ham, ikkinchi qatorda kichik harflar bilan qayd etilgan nimxatlar (a-v-s-v-s-d-e-c<sup>2</sup>-c-v<sup>2</sup>-e<sup>1</sup>-f-g-v<sup>3</sup>-s<sup>3</sup>-v<sup>4</sup>) harflar tizimi kuyning asosiy ohangga yondoshganligini namoyon

qiladi. Lekin, biz yuqoridagi fikrimizni isbotlash uchun asar nimxatlarini yana bo‘laklarga ajratib chiqamiz. (Misolda, nimxatlar katta harflar bilan, kuy tuzilma (fraz) – bo‘laklari esa kichik harflar bilan ifodalananadi):

	I			II			III			IV				
A	-	B		C	-	B		C <sup>1</sup>	-	D		T	-	C <sup>2</sup>
a-b	-	c-b <sup>1</sup>	-	d-c <sup>1</sup>	-	c-d <sup>2</sup>	-	d-c <sup>1</sup>	-	e-d <sup>1</sup>	-	i-c <sup>2</sup>	-	I <sup>1</sup> -d <sup>2</sup>
cis-	fis-cis	fis-cis					fis-	-				gis-cis		

	V			VI			VII			VIII				
C	-	B <sup>1</sup>		E <sup>1</sup>	-	F		G	-	B <sup>3</sup>	-	C <sup>3</sup>	-	B <sup>4</sup>
d-c	-	c-b <sup>2</sup>	-	d <sup>3</sup> -c <sup>3</sup>	-	e <sup>2</sup> -d <sup>2</sup>	-	g-b <sup>3</sup>	-	c <sup>4</sup> -b <sup>4</sup>	-	c <sup>5</sup> -b <sup>5</sup>	-	c <sup>6</sup> -b <sup>6</sup>
cis			fis				as-cis					fis-cis		

Misolda kichik harflar bilan aks ettirilgan kuy tuzilma – bo‘laklari ohang rivojining muayyan harakatini aniqlash uchun imkon yaratadi. Unda biz 1 va 2 x a t lar ( A-V-S-V, a-v-s-v-o-s-s<sup>1</sup>-v<sup>2</sup>) asarning asosiy negizini tashkil etishini ko‘ramiz. (Rasulqori Mamadaliyev ijro uslubini bundan ham aniqroq ifodalash yoki ichki sirlarini bilish uchun bunday tadbirni yana ham mikro qismlariga bo‘lib tahlil qilish lozim). Keyingi xatlar esa, asosiy ohangni variatsiyalar hisobidan, yangi qo‘shilgan melodik materiallar hisobidan rivojlantiriladi. Jumladan “v” tuzilma bo‘lagi asarning ijrosi davomida 8 marotaba, “s” tuzilmasi 10 marotaba va “o” tuzilma 7 marta tovushlar munosabatining yangicha (sakrashlar, kuylanishlar, kuy aylanmalari, sinkopalar, qochirimlar, sayqallar bilan boyitilgan) tizimida qaytariladi. Faqat III – x a t “e” kuy tuzilmasi, IV – x a t – “f” kuy tuzilmasi va VII – x a t “g” kuy

tuzilmalari bilan ijrochi asar rivojlanish jarayonini yangi ohanglar bilan sug‘orib turadi.

Lad asosidagi tovushlar munosabati, I, IV va V- bosqichlarni (*cis*, *fis*, *gis*) turg‘unlik sifatlarini alohida namoyon etadilar. Bu jarayon har bir jumlaning turg‘un bosqichlar atrofida shakllanishi va nihoyasida to‘xtashi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, janrga xos bo‘lgan, yetakchi tovushdan keng foydalanganligida ham namoyon bo‘ladi.

Rasulqori Mamadaliyevning usulga nihoyatda (pishiq) mukammalligi, cholg‘u ijrochiligidagi mohirligi, musiqa san’atining namunalarini amaliy hamda nazariy idroklay olishi, har bir asar ijrosiga ijodiy yondoshishlarida aks ettiriladi va uning xonandalik uslubi o‘z ifodasini topadi. Bu jarayon talqinda asarning metro-ritmik tuzilishlarini mutanosibligi, kuy rivojining muntazamligi, jumlalarning shaklan muvofiqligi va cholg‘u jo‘rligining mukammalligi kabi jihatlari bilan xarakterlanadi. Zikr etilgan xususiyatlar xonanda ijodiga mansub “**Ko‘rmagay**” ashula namunasida o‘z aksini topgan. (nota misoli ilovada berilgan). Asar talqinidagi kuy harakatlari va tarkibiy tuzilishlariga doir jihatlari raqamlar va harflar yordamida ifoda etilgan.

Chizgida aks ettirilganidek kuy jumlalari II - va V - x a t lar qisqa hanglar hisobiga I.2 takt kengayganini hisobga olmaganda aniq tarkibiy shakli butun asar davomida saqlangan. Musiqiy namuna VII xatdan iborat bo‘lib (VII xat qaytarish), har biri alohida tarkibiy tuzilma tuzuk xususiyatli tayanch pardalariga egadir. Ohang jihatidan I va II x a t lar kuyning asosiy negizini tashkil etadi. Undan keyin keladigan x a t lar asosiy ohanglarni turli jihatdan rivojlantiradi. 1 x a t - shaklan


va barcha o‘zining ichki xususiyati bilan an’anaviy tarkibdan chetlangan holda, o‘ziga xos ko‘rinishda ifodasini topgan. Bu albatta, mumtoz musiqa tarkibiy jihatlariga nisbatan yondoshadigan bo‘linsa. Chunki, o‘zbek musiqa namunalarida 2-bosqichning tayanch – turg‘un ahamiyat kasb etishi amaliyotda nisbatan kam uchraydi. Quyidagi misolda asarning 1 – xati keltiriladi:

Kim-ki tinch yur-mas ha yo - ti-da o-mon - lik\_ ko'r - ma-gay

12 Meh-ri - bon bo'l-mas \_ dan el- ga meh-ri - bon-lik\_ ko'r-ma-gay

Kuy ohangining muntazam rivojida birinchi *nimxat* o‘ziga xos tarzda, tovushqator tizimining 2-bosqichi bo‘lmish (*mi*) tovushini tayanch sifatida ko‘rsatadi. Ohang tuzilmalarining bir-biriga muqobil tarzda tarkib topishi, 4-takt – ohista I va II pog‘onalarni tasdiqlagan ma’noda ko‘rsatilgandan so‘ng, shiddatli ohangda bosqichma-bosqich kvarta yuqoriga harakat bilan rivojlantiradi. Jumlaning yakuniy bo‘lagi esa shiddatli ohangga qarama-qarshi – savolga javob qabilida keskin va muloyim xarakterlanib o‘z yechimiga qaytadi. Bu esa kuya o‘zgacha sirli joziba baxsh etadi. II nimxat – asar rivoji uchun asosiy ohang va harakat manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Asar tarkibiy tuzilishining o‘ziga xosligi xatlar tarkibiy va silsila harakatida ham ko‘rish mumkin. I – xat – des – es – des II – xat – f – ges – des; II – xat – as, IV – xat – v, V – xat – ces, VI – xat – des – f va VII – xat – des. Tahliliy shakli quyidagicha:



Ko‘rinib turibdiki, jumlalar miqyosidagi rivojlanish jarayoni tuzuk bosqichlari bo‘ylab pog‘onama-pog‘ona yuqoriga ko‘tarilib boradi. O‘zbek mumtoz musiqa san’atining mavjud janrlari orasida bunday tarkib – ko‘proq suvoralar va katta ashulalarga xosdir. Bu omilni ovoz harakatida va tasvirida aniq ko‘rib, tasavvur etish mumkin.

Kuy rivoji uslubiga xos tarzda turli ko‘rinish, tarkib va serohang qaytarishlarga asoslangan harakat bilan xatakerlanadi. Bu jarayon chizma harflar vositasida keltirgan. Yuqorida xonandaning “G‘azalxonlik” ashulasi misolida ko‘rib chiqilgan xususiyatlar ushbu asarda ham munosib aksini topgan. “Ist” uslubidan xonanda ushbu asarda 4-5 – xatlar talqinida foydalanadi. “G‘azalxonlik” asarida bu jarayon faqat bir xat (bir marta) ijrosida qo‘llanilgan bo‘lsa,

“Ko‘rmagay” asarida bu mezon *uch xat* talqinida qaytariladi. Buning asosiy sabablaridan biri ham kuy jumlalarining pog‘onama-pog‘ona harakatlaridagi murakkab talqinni bo‘rttirib ko‘rsatishdir. Shu bilan birga asarning joziba bilan sug‘orilgan mohiyatini namoyon etish bilan xatakerlash mumkin.

Rasulqori Mamadaliyevning mustaqil ijrochilik yo‘li xususiyatlari negizida – cholg‘uni ustozona ijro etishi, talqinida nihoyatda usulni muntazam – ravon saqlashi turadi. Odatta, xonanda ko‘pchilik hofizlar kabi tanbur sozi jo‘rligida xonish qilgan. Ijro vaqtida esa tanburda nafaqat kuy, balki asar usulini muntazam ifoda etgan. Bu o‘rinda uning yetuk shogirdlaridan biri hofiz – Abdulatif Xoldorov ustozining ushbu jihatini eslab aytgan so‘zlarini keltirish joizdir: - “Hech qaysi hofiz usulni musiqiy cholg‘uda ashula aytish paytida to‘liq bera olmaydi. Qori aka o‘ta usulga pishiq bo‘lgan. Doyra usulini ham tanburda berishga qodir edi” (ekspeditsiya materiallaridan). Albatta xonanda ijrosidagi ashula talqinlarida cholg‘u jo‘rnavozligi vositasi doirasida, usulning urg‘uli naqlarini kuy tovushlari tizimida ifodalab, kuy harakati usul negizida turli bezaklar bilan talqin etishini ilg‘ab olish mumkin.

Tanbur ijrochiligi bo‘yicha Rasulqori Mamadaliyevning ijrochilik faoliyati alohida ahamiyatga ega ekanligini e’tirof etish lozim. Zero, har tomonlama purma’no talqinga erishib o‘zining ijodiy munosabatlari doirasida alohida va ko‘pchilikka ibratli ijro talqinga erishadi. Bu albatta ijrochilik amaliyotida va tanbur ijrochiligida e’tirof etilib, alohida yutuqlarga erishganligini aksariyat sozandalar qayd etib o‘tganlar. Ijrochilik amaliyotida Farg‘ona vodiysi cholg‘u ijrochiligi

bo‘yicha (xususan tanbur) ma’lum uslub yaratishga erishgan sozanda ham desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning ijrosida tanbur sozi har qanday xarakterli kuyni (*Largo* dan *Presto* gacha) sifatli va mohirona tarannum etishga qodir bo‘lgan. (Rasulqori Mamadaliyevning tanbur ijrochiligidagi erishgan uslubi, ijrochilik xususiyatlari masalasi alohida izlanishga molik jarayondir).

Xonandaning ashula talqinida cholg‘u sozidan mohirona foydalanganligi ilovada keltirilgan “Ko‘rmagay”, “G‘azalxonlik”, maddohlik yo‘nalishda ijro etilgan “Mehmonsan” va marsiya janriga xos yaratilgan “Judo” kabi asarlarda yorqin ifodasini topgan (ilovaga qaralsin). Ayniqsa tanbur sozining boy imkoniyatlarini ifoda etadigan jozibali zarblarning turkumiyligi rang-barangligi, musiqiy bezaklari, triol, kvintol, sekstol kabi talqin uslublari “Mehmonsan” va “Judo” asarlarining nota misollarida zikr etilgan. Xonanda talqinida tanbur ijrochiligini “uchma zarb” – turlari, *pirrang*, *xilma-xil kashishlar*, *to lqinlash tirishlar* kabi o‘ziga xos uslublar munosib aksini topgan.

Rasulqori Mamadaliyev ijro uslubining xarakterli tomoni va talqinini yorqin namoyon etuvchi sifat – bu “sh i d d a t”dir. Maqomlarning Buxoro ijrochiligiga xos bu yo‘l, xonanda ijro uslubida mujassam topib, xonandaning ijro uslubida asosiy xususiyatlaridan biri sifatida gavdalanadi.

Ijro jarayonida xonanda har bir xatni alohida kayfiyat bilan ko‘tarinki ruhda, sho‘x chapani ovozda, ijodiy yondoshib asar ruhiga xos shiddat bilan talqin etishida uning muqimligi va muhimligi namoyon bo‘ladi.

Benazir xonanda va sozanda, zukko askiyachi, bastakor va zabardast ustoz Rasulqori Mamadaliyev o‘z ijrochilik uslubi bilan, musiqa ijrochilik san’atini yangi qirralar bilan boyitib, ma’naviy merosimiz namunalarini sadolantirilishida o‘ziga xos ohanglarni kashf etdi. Mumtoz musiqamiz rivojiga salmoqli hissa qo’shdi.

Xalq ijrochiligining boy an’analari asosida shakllangan bu o‘ziga xos uslub, san’atsevar xalqimiz dilidan munosib o‘rin topdi. Farg‘ona vodiysi musiqa ijrochilik amaliyotida o‘ziga xos yangi maktab namunasida tiklanib, ayni paytda o‘nlab shogirdlar tamonidan munosib davom ettirilmoqda.

II bobda keltirilgan zabardast hofizlar – o‘zbek musiqa san’atining rivoji yo‘lida, o‘zlarining ijrochilik hamda ijodiy faoliyatlari asosida o‘ziga xos jihatlarni mujassam etgan ijro uslublarni yaratishga tuyassar bo‘lgan namoyandalardir. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, maktab asoschilarining h o f i z l i k uslublarini shakllanishida, mumtoz musiqa san’ati merosi bilan bog‘liq an’analar katta ahamiyat kasb etgan. Har bir uslubni xarakterlovchi omillar an’anaga asoslanishi, turli jihatlar bilan sug‘orilishi, barqaror xususiyatlarni aks ettirishi Hofizlik san’atining yangicha oqim bilan boyishiga zamin yaratadi.

Har bir ijro maktablarining shakllanish jarayonlari turlicha. Ya’ni, Sodirxon Hofizning ijrochilik mahorati maddohlik san’ati negizada tarbiyalangan bo‘lsa, Jo‘raxon Sultonov – katta ashulachilik san’ati og‘ushida hofizlik darajasiga erishdi. Rasulqori Mamadaliyev maqom, katta ashula va turli xalq janrlari asosida tarbiyalanib voyaga yetsada, ijrochilik san’atining pirovardida mumtoz musiqa

ijrochiligining benazir va ustozona talqiniga erishadi. Oqibatda, ular, mumtoz musiqa ijrochiligidagi nafaqat shaxsiy ijro yo‘li balki hofizlik san’atida o‘rnak bo‘la oladigan uslub yaratishga muyassar bo‘lganlar.

Farg‘ona vodiysi ijrochilik an’analarining o‘ziga xos tarixiy jarayoni shuni ko‘rsatadiki, hofizlik san’atida vujudga kelgan ushbu maktablar, barcha o‘zlarining tamonlari bilan bu xonandalik san’ati mezonining ilk bosqichlarini ko‘rsatib turibdi. Ayni paytda zamonaviy musiqa ijrochiligi sohasida mavjud bo‘lgan bir qator (jo‘rnavozlik, hamnafaslik va h.k.) go‘zal yo‘nalishlarni an’anaga aylanishida ana shu maktab namoyandalarining xizmatlari alohida e’tiborga loyiq desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu bilan birga, mumtoz musiqa san’atida o‘ziga xos meros bo‘lib qolgan h o f i z l i k an’analarining bu uch namunasi o‘zlaridan keyingi davrlarda mustaqil ijro yo‘lini yaratishga muyassar bo‘lgan har bir xonanda yoki sozandaga ham o‘rnak va ham asos bo‘lib kelmoqda.

Mazkur bobga muxtasar sifatida quyidagilarni bayon etish o‘rinlidir:

Musiqa san’atida mukammallik mumtoz musiqaning asosini tashkil etadi. Mukammal ijroga erishish esa an’ana va zamonaviylikni o‘zlashtirish, merosni bilish, ilm-fan taraqqiyotidan xabardor bo‘lish va faoliyatida ustozlar an’analariga muvofiq holda zamon darajasidagi mohirlikka erishishni talab etadi.

Albatta, mumtoz musiqa ijrochilik san’atimiz serqirra va juda boy an’analarga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Ijrochilik san’atining mukammalligi, musiqiy merosning ulkanligidan dalolat beradi. Mukammal asarni mukammal ijrochi talqinida tinglagan har bir

tinglovchi uning bebafo ma'naviy dunyosini anglashi begumondir. Eng muhimi maqomlar ijrochiligining rosmana ustozlar an'analariga muvofiq o'zlashtirishayotganligini ko'satadi. Ijrochilarning o'zi undan ma'naviy bahra olishga intiladi, musiqaning siru-sinoatlarini bilishga ishtiyoqi uyg'onadi va shunga munosib harakat ham qilishi begumondir. Mukammal ijrodan taralgan ohang bu avvalo sof, ilmli va bilimli ijrodir. U albatta o'zining behisob siru-asrorlarini nafosat ila tarannum etaveradi. Shu bois bo'lsa kerak azal-azaldan, musiqaga oshufta qalblar, unda mujassam topgan siru-sinoatlarni anglash yo'lida behisob baytlar bitganlar. Har bir bayt yangisining paydo bo'lishiga zamin bo'lgan. Pirovardida, behisob ma'nolar xazinasini ya'ni ma'naviy ummonni shakllanishiga asos bo'lgan.

Tarixda mukammal musiqa targ'iboti yo'lida ijod etgan san'at namoyandalari orasida bashariyatni o'z san'ati bilan mahliyo etgan, hayot mazmuniga aylanib betakror meros qoldirgan namoyandalar sanoqli o'tganlar. Ularning xalqimiz ma'naviy dunyosini ifodalashda avlodlarga qoldirgan meroslari doimo yangi avlod uchun ma'naviy meros va ibrat sifatida xizmat qilib kelgan. Shu bois bo'lsa kerak, bashariyat ilm fan taraqqiyotiga hissa qo'shgan har bir ijodkor namoyandalar xalqlarning ma'naviy boyligini asrovchilari sifatida el ardog'ida bo'lib kelgan va abadiyatga yuz tutadilar.

O'zbek mumtoz musiqa ijodiyoti va ijrochiligi boy an'analarga ega bo'lib, asrlar davomida mohir sozandalarni, xush ovozli xonandalarni taqdim etgan. Sozanda-yu xonandalar ijro amaliyotida o'zlarining benazirliklarini, otashnafasliklarini, ilohiy sadolarga boy xonishlarini kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirganlar. Hoji

Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Sodirxon hofiz, Hojixon Boltayev, Madrahim Sheroziy, Domla Halim Ibodov, Hamroqul Qori, Erka Qori Karimov, Mamatbuva Sattorov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Rasulqori Mamadaliyev, Yunus Rajabiy, Muhammadjon Karimov, Orifxon Hotamov, Ochilxon Otaxonov, Mahmudjon Tojiboyevlar shular jumlasidandir. O'zbek mumtoz musiqa ijodiyoti va ijrochiligidagi bu namoyandalarning har biri alohida bir dunyodir. Zero, ularning har birini nomini o'zida ijro san'ati, ijro etgan repertuari, yaratgan asarlari va ijrochilik uslubi mujassam topgan.

Farg'ona vodiysi xalqimiz ma'naviy hayotiga tuhfa qilgan san'at namoyandalari bilan mashhurdir. Shular orasidan mumtoz xonandalik ijodini o'rganish va tahlil qilish maqsadida hofizlik san'atining uch zabardast vakillari Sodirxon Hofiz, Jo'raxon Sultonov va Rasulqori Mamadaliyevlar tanlab olingan. Ularning mumtoz musiqa ijrochiligidagi tutgan o'rni, eng muhim o'zbek mumtoz musiqa ijrochilik amaliyotida yaratgan ijrochilik uslublariga alohida e'tibor bilan yondoshildi. Ijodlarining ijrochilik amaliyoti negizida musiqiy nazariy tomonlama tahlil etib, uslubiy jihatlarini yoritishga harakat qilindi. Albatta Farg'ona vodiysi o'zining olimu-fuzalolari, sozanda va xonandalari bilan mashhur ekanliklarini e'tirof etish lozimdir. Ular musiqa san'atimizning haqiqiy ijodkorlari va ustozlari o'z ijodi, ijrosi zaminida ulkan meros va uslub qoldirishga muyassar bo'lgan buyuk namoyandalardir. Ularning mumtoz musiqa va maqom ijrochilik san'atida, sozandalik va xonandalikda yaratgan ijro uslublari avvalo o'tmish hofizlik san'ati an'analari zaminida qurilgan bo'lib, keyingi

avlodlarga zamonaviy mumtoz musiqa ijrochiligi bo'yicha dasturil amal sifatida xizmat qilishi begumondir. Buni ayni hozirgi davrimizgacha davom etib kelayotgan mumtoz musiqa ijrochilik mezonlarida o'zini namoyon etib kelayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Har bir namoyanda ijro uslublari o'zbek mumtoz musiqa ijrochiligi an'analarida yangi sahifalarni ochganligi bilan qadrli. Pirovardida bu ijro uslublarni mumtoz musiqa ijrochiligi qadriyatlar negizida rivojlanganligini e'tirof etib, zamonasining eng yangi tarannum va talqin jihatlari bilan sug'orilganligini qayd etish o'rinnlidir. Mumtoz musiqa ijrochiligining kelajak tarbiyasida ushbu uslublar o'zining eng go'zal an'analari bilan yosh ijrochilarni o'ziga rom etishi muqarrardir.

## X O T I M A

Uzoq o‘tmishdan ildiz otib, inson hayotini ma’naviy asoslarini jonlashtirish mezonida, ma’lum omillarni kashf etish va ularni an’anaga aylantirib yashash qonuniyatlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanib kelingan. Har bir avlod o‘z zamonasining yashash sharoiti bilan bog‘liq eng go‘zal qadriyatlar, fazilatlar, jihatlarni o‘rganishi, idroklab yodda saqlashi va kelajak avlodga yetkazishi muqarrardir. Hayot tizimining barcha jabhalarini kamol topishi, keng ma’noda, an’ana tusiga kirishida “*ijro*” mezoni asosiy omil sifatida alohida ahamiyat kasb etishi muqarrardir. Amal yo‘qki “*ijro*”siz shakllangan va rivojlangan.

Musiqa san’atining ilk ko‘rinishlaridan biri – bu “raqs”dir. Bu haqda A.Fitrat quyidagi fikrni keltiradi: “Go‘zal san’atlarning eng burung‘usi o‘yun (raqs)ning eng boshlang‘ich, eng sodda shakli bo‘lgan sakrab o‘ynamoqlarni hayvonlar orasida ko‘rmak ham muhimdir. Insonlarda go‘zallikni sevish tuyg‘usi ko‘tarila borgan sari “raqs”ning ham go‘zallahib, ko‘tarilib bormog‘i tabiiydir. “Raqs”ning go‘zallahmagi, ko‘tarilmagi, undagi harakatlarni tartib, intizom, ohangga bo‘ysunushidir”.<sup>121</sup> Demak, har bir amal ijro jarayonida va o‘z ravnaqi yo‘lida go‘zallahib, mukammallahib borishi lozim. Shundagina u an’anaviylik xususiyatini o‘zida mujassam etadi. Muqobil jarayon esa bundan mustasno.

Musiqiy namunalarning an’anaviy xususiyat kasb etishida ham “*Ijrochilik*” muhim bosqichlardan biri sifatida ahamiyatlidir. Shu bilan

<sup>121</sup> A.Fitrat, O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixchasi, T., “Fan” 1993 y. 36-b.

birga ijrochilik, o‘z ravnaqi jarayonida zamon va makon negizida turli jihatlar bilan boyib borishi, davr taraqqiyotini in’ikosi sifatida yangi qirralarni kashf etishi zarur. O‘z o‘rnida bu mezon amaliyotchidan eng avvalo “*I SH Q*” talab etadi. “*Ishq*” – bu har qanday amaliy jarayonda ilk, ya’ni birinchi qadamdir. Ishqiga sodiq inson “Oshiq”ga aylanadi va ko‘zlagan maqsadiga erishadi. Tasavvufda ham “-faqatgina ishq o‘tida dard chekkan oshiqlar tariqat yo’llariga kira oladilar”.<sup>122</sup> Oshiq ma’nosini anglatadigan “Ushshoq”, o‘z tovushqator tizimining ohangdosh xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. “Ushshoq” – deb yozadi O.Ibrohimov – Sharqda ommalashgan tuzuklardan (ladlardan) biri. O‘rta asr olimlarining risolalarida yozilishiga muvofiq, u nisbatan ohangdosh ja’m (maqom) hisoblanadi. Chunki, u o‘z tovushidan ko‘proq ohangdosh intervallarni o‘zida mujassam etgan...”.<sup>123</sup> Shuning uchun musiqiy meros tarkibidagi mavjud “Ushshoq” ladi asosida yaratilgan asarlar shinavandalar tomonidan oson qabul qilinadi va esda qoladi.

O‘zbek va tojik musiqa ijodiyoti va ijrochiligida “Ushshoq” ladi muhim ahamiyat kasb etib kelganligi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, bu omil xalq xonanda va sozandalarining shaxsiy ijro uslublarining shakllanishida asosiy mezon vazifasini o’tagan. Xalq ijodiyotidagi, yoki amaliyotidagi necha-necha asrlar kuylanib kelingan hamdlar, marsiyalar, na’tlar, mashrabxoniyalar kabi musiqiy janrlar namunalari deyarli Ushshoq, Segoh va Navo ladlariga asoslanib ijro etilib kelinganligi barchaga ayondir. Va bu asarlar ko‘proq ijrochilarning

<sup>122</sup> Ibrohimov O. Maqom va tasavvuf xususida, //Rajabiyxonlik IAM, T., 1994 y. 62-b.

<sup>123</sup> Иброхимов О. Фергана – Ташкентские макомы в аспекте проблем макомата, (диссертация, Конд. Искусств-я) 1993 г. 78 с.

ijodiy mahsuli ekanligi hamda badihago‘ylik mezonlariga asoslanganligi bilan izohlanadi.

Demak, o‘z tarkibida ohangdosh tovushlar munosabatlarini bisyor joylagan “Ushshoq” ijrochilikning qalb sadolarini ifoda etishda eng yaqin va go‘zal musiqiy pog‘onalar-bosqichlar majmuasidir. Tovushlar munosabatlaridagi ohangdosh (konsonans) lik jihatlarini ta’minlab beradigan tovushqator sifatida qo‘llanilib kelingan.

Mumtoz musiqa ijrochiligida o‘z talqinlari va ijrolari bilan tanilgan, mакtab kashf etgan va so‘nmas asarlar yaratgan Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, Sodirxon Hofiz, Jo‘raxon Sultonov kabi zabardast san’at namoyandalarining ijodiy faoliyatini “Ushshoq”larsiz tasavvur etish mushkil.

“Daromadi Ushshoq”ni o‘ziga xos<sup>124</sup> yo‘lda ijro etgan Hoji Abdulaziz Abdurasulov, “Ushshoq” nomi bilan mashhur Mulla To‘ychi Toshmuhamedov va Sodirxon Hofiz ijodiga mansub musiqiy namunalar –Ushshoq ladiga asoslangan (va nomlangan). **“Guluzorim qani”** musiqiy namunasi Jo‘raxon Sultonov ijodining yorqin namunasidir. Xonandaning xalq orasida keng ommalashishi va shaxsiy ijro uslubini xarakterlovchi omil sifatida ahamiyatlidir. Bu asarlar xonandaning amaliy talqinlaridagi barcha o‘ziga xos xususiyatlar jamlagan holda tashkil topgan. Shu bilan birga ijro uslublarining mukammallashishida faoliyatining markaziy namunasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>124</sup> “Samarqand Ushshog‘i” deb xalq orasida ommalashgan asar H.A.Abdurasulov tomonidan “Zebo pari” avjini qo‘shib ijro etgan ko‘rinishidir.

Rasulqori Mamadaliyevning “Ushshoq” namunalarini bir qator mumtoz shoirlar g‘azallari bilan ijro etishi, ijodida mavjud “Qilur”, “Qo‘zg‘almasun”, “Bilolmasman”, “Men kimga dey...” “Tasadduq yo Rasul Olloh” kabi ashula namunalarida nafaqat lad jihatlari, balki, “namud” ko‘rinishlarini ham keng joy olishi ijro uslubining to‘la ifoda etilishida yaqqol namoyon bo‘ladi.

“Ushshoq” ladining, umuman ijrochilik uslub shakllanish nuqtai nazaridan yondoshadigan bo‘lsak, biz hozirgi zamon yetakchi xonanda va sozandalar ijodida ham bu omil ma’lum darajada ifoda topganligini guvohi bo‘lamiz. Xususan, ayni paytda ustozona ijro talqinida ma’lum yutuqlarga erishgan Orifxon Hotamov, Fattohxon Mamadaliyev, Abduhoshim Ismoilov kabi san’at namoyandalarining ijodini misol qilish mumkin”.<sup>125</sup>

Ijrochilik xususiyatlarini shaxsiy yo‘sinda ifoda etish jarayoni musiqa san’atining asosiy omillaridan bo‘lmish tovush, tovushlar harakatining asosiy yo‘li – tovushqator, ularning munosabatini aniqlovchi – lad va asosiy mohiyatini belgilovchi an’ana bilan bevosita bog‘liqidir. Bu jihatlar xonanda talqinida o‘ziga xos tarkib topishida vujudga keladi. Bu o‘rinda, xonandalarning ijro talqinlari jihatidan muqim bir yo‘l tanlash jarayonida “Ushshoq”ning tovushqator, lad,

<sup>125</sup> Orifxon Xotamov 100 dan ortiq asarlar yaratgan. Uning uslubini namoyon etishda bir asar, ya’ni “Qoshi yosin mu deyin” ashulasi har jihatdan ilg‘orlik xususiyatini ifoda etadi. Bu asar misolida biz xonandaning ijro uslubi shakllanish jarayonining ma’lum nuqtasiga yetganini va uslub xususiyatlarini asar misolida ko‘ramiz. (tuz.Ushsh).

- Fattohxon Mamadaliyev ijodining cho‘qqisi va ijro yo‘lining markaziy jarayoni “Dardu dilim” asaridir. (asar ushshoq tuzugiga asoslangan).

- Abduhoshim Ismoilov – ijro uslubining barcha jihatlari “Dil kuylasin” asarida to‘la ifodasini topgan deyish mumkin.

ohang xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etganliklarini shohidi bo‘lamiz. Bevosita shaxsiy ijro talqini, xonanda yoki sozandaning musiqiy merosini bilishi, musiqa ilmidan xabardor bo‘lib idroklay olishini va o‘ziga xos yangicha munosabat orqali ifoda etishida shakllanadi.

Nazariy hamda amaliy kuzatishlardan biz Sodirxon hofiz, Jo‘raxon Sultonov, Rasulqori Mamadaliyevlarning ijrochilik an’analari va ijodiy faoliyatlarida qoldirgan meroslari Farg‘ona vodiysi ijrochilik an’analarining turli xususiyatlarini o‘zida jamlagan bastakor va ashula san’atining o‘ziga xos namunalari sifatida boyitdi. Ustozona musiqa merosimizning olamshumul ahamiyatga ega bo‘lgan badiiy va estetik jihatlarini rang-barang sayqallar og‘ushida, xilma-xil talqin vositasida va turli ko‘rinishlarda namoyish etish imkoniyatlarini ko‘rsatib berdi. Mumtoz musiqa merosini o‘ziga xos yangi namunalar bilan boyitishda o‘z hissasini qo‘shdi. Ular yaratgan maqom yo‘llaridagi asarlar (ilovaga qarang), turkumiylar, musiqiy janrlarning yangicha talqini, ijrochilikda jo‘rnavozlik, soz jo‘rligidagi talqinlar musiqa madaniyatimiz ravnaqiga qo‘shgan ulkan hissa sifatida qadrlidir.

Mumtoz musiqa merosining shakllanishi va munosib rivoj topishida azaldan ijrochilik uslublari va maktablari faoliyat ko‘rsatib kelganligi muqarrardir. Odatda, ma’lum bilim va malakaga ega bo‘limgan xonanda yo sozanda qaysidir ma’noda ijrochilik uslubini yaratishi mumkin. Lekin bu degani ijro maktabi emas. Balki bu avlodlar tomonidan davom ettirilib, rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan mezondir. Shu bois maktab muayyan ustoz san’atkorlar tomonidan

yaratilgan ijrochilik uslubni o‘zidan keyin, kelajak avlod munosib ko‘rib, iじro an’analari asosida davom ettirsagina yuzaga keladi.

Demak, shaxsiy ijrochilik maktablari mumtoz musiqaning rivojlanish jarayonida o‘ziga xos ikki vazifani o‘tagan. Birinchidan: yaratgan har bir asar mumtoz musiqa rivojining mevasi bo‘lsa, ikkinchidan: ijrochilik omili – ustozona asarlarning an’ana bilan sug‘orilgan turli xususiyatlarini avloddan-avlodga o‘tishi, ravnaq topishidagi jonli jarayon vazifasini o‘taydi desak mubolag‘a bo‘lmas.

Mazkur ish ilmiy tadqiqot sifatida o‘rganilgan mavzuning bayoni asosida monografiya shakliga keltirildi. Monografiyada Farg‘ona vodiysi xonandalik an’analariga xos shaxsiy ijrochilik maktablarning xarakterli jihatlarini ko‘rib chiqish munosabatlarida “ijrochilik a ‘analar” xalq musiqa merosining ajralmas tarmog‘i ekanligi ta’kidlandi. Shu bilan birga musiqa ijodiyoti rivojiga munosib ta’sirini ko‘rsatgan muhim omillardan biri ekanligi namoyon bo‘ldi.

Uch maktab asosida ko‘rib chiqilgan ijrochilik mezonlari, musiqiy merosimizning mumtoz iじro talqini bilan bog‘liq bo‘lgan boy imkoniyatlarini, qisman bo‘lsada idroklashga, teran ma’no kasb etuvchi xususiyatlarini ilmiy-nazariy anglashga imkon yaratadi. Garchand, ijrochilik masalalari Farg‘ona-Toshkent vohasi an’analari negiziga asoslanib, ayrim jabhalarda maxsus tartibga to‘la asoslanmasdan, maqomlar namunalariga (yo‘l-yo‘lakay) qiyosiy yondoshilgan bo‘lsada, mumtoz musiqa ijrochiligi bilan bog‘liq asosiy xususiyatlar e’tiborga olinib qayd etilganligini e’tirof etish joizdir. O‘ylaymizki, mavzu nuqtai nazaridan amalga oshiriladigan jiddiy va maxsus

tadqiqotlar albatta, bu sohaning boy imkoniyatlarini va ko‘p qiziqarli muhim tarmoqlarini oolib beradi.

Musiqa ijrochiligi rivojlanish jarayonida muhim omil, janr xususiyatiga ega bo‘lgan talqin mezonlarining uyqash (sinkretik) tarzda tarkib topishi bilan xarakterlanadi. Chunki, har bir ijro uslubi ma’lum yo‘nalish negizida turli ijroviy an’analarni, janr unsurlarini qorishgan ko‘rinishda o‘zida mujassam etadi. Tarix jarayonida shakllanib rivojlangan xalq an’anaviy ijrochilik omillari hozirgi davrda ham mukammal tarkib majmuida o‘z mavqeini saqlagan. Ular - maqomlar, dostonlar, katta ashula, suvoralar kabi musiqiy merosning yetakchi janrlari hisoblanib, ijrochilik amaliyotida o‘zining munosib o‘rnini egallash bilan bir qatorda, ijrochilik oqimining turli ko‘rinishlari shakllanishiga asos sifatida o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelayotganligi e’tibordan xoli emas.

Ijrochilik an’analari nafaqat boy musiqiy merosni saqlash yoki rivojlanish mezonining omili, balki insoniyatning oliyjanob fazilatlari, his-tuyg‘ularini ajoyib, sermazmun ohanglar majmuida tinglovchilar e’tiboriga havola etuvchi vosita hamdir. Shu bilan birga har bir musiqiy namunalarni badiiy va estetik qiymatini ifodalovchi kuchdir. Bu jihatlar yana bir bor “i j r o ch i l i k”ning hayot tizimida muhimligini va uning tarixi bilan bog‘liq tomonlarining ilmiy tadqiq etish masalalarini ahamiyatliligidan dalolat beradi.

Biz ijodlariga murojaat etgan Sodirxon Hofiz, Jo‘rajon Sultonov va Rasulqori Mamadaliyevlar ham o‘zlarining ijro uslublari bilan o‘zlarini namoyon etgan yetuk hofizlardandirlar. Ularning ijodiy faoliyati serqirra va musiqa madaiyatining barcha tarmoqlarini qamrab

olgan. Sozandalik, xonandalik, bastakorlik va ustozlik sifatlari qatorida maqom ijrochiligi, yoki maqomlar yo'llariga xos bo'lgan kuy va ashulalarni o'zlaridan oldingi ustozlardan o'rganib maromiga yetkazib ijro etishga muvaffaq bo'lgan san'atkorlar. Ular o'zbek mumtoz qo'shiqchiligining yuksak bilimdonlari va ijrochilari, mashhur el suygan hofizlari, beqiyos ovoz sohiblari, askiya san'atining ustalari darajasiga erisha olgan, o'tkir so'zligi, otashnafas xonishlari, bastakorlik amallari va mohir sozanda ekanliklari bilan Farg'ona vodiysida mashhur bo'lgan ustoz san'atkorlardir. Ularning ijrochilik maktabi, ijrochilik an'analari, qoldirgan bastakorlik merosi hamda benazir shogirdlari avlodlar uchun ibrat bo'lib qolaveradi.

## BIBLIOGRAFIK MA'LUMOTLAR

Mazkur ishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda mumtoz musiqa ijrochiligi tarixi, nazariyasi va amaliyoti bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar uchun zarur manba sifatida ahamiyatli bo'lган adabiyotlar bibliografiyasidir. Ushbu bo'limda asosiy musiqiy nazariy adabiyotlar; turli ilmiy anjumanlarda mavzu bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning ma'ruza shaklida taqdim etilgan ilmiy maqolalar; fundamental ilmiy tadqiqotlar natijalari sifatida olib borilgan ilmiy ishlar, ya'ni ilmiy dissertatsiyalar, va dissertatsiya avtoreferatlari; mumtoz musiqa merosidan o'rın olgan asarlarning nota to'plamlari; bevosita mumtoz musiqa nazariyoti va amaliyotining azaliy iboralari (terminlari) va ma'nolar kesimida izohi bayon etilgan ensiklopediyalar, qomus, farhang va lug'atlar; olimlar tomonidan olib borilgan qo'lyozma, arxiv va ekspeditsiya materiallari bayon etilgan manbalar va ularning bibliografik ma'lumotlari tavsiya etiladi.

1.	Avdeyeva L.A.	O'zbek raqs san'ati, T., "Bad.ad.", 1990 y.
2	Алимбаева К Ахмедов М.	Народные музыканты Узбекистана, Т., "Гос.изд." 1959 г.(1 книга)
3	Alimbayeva K Axmedov M.	O'zbek xalq sozandalari, T., "G'.G'ulom nom.ad. va san'at", 1974 y. ( II-kitob).
4	Асафьев Б.	Музыкальная форма как процесс, изд.2.Л., «Музыка», 1971 г.
5	Асафьев Б.	О народной музыки, сост. Орлова. Л., «Музыка», 1984 г.
6	Бертельс Б.Э.	Суфизм и суфийская литература, М., "Наука", 1965 г.

7	Вызго Т.С.	Музыкальные инструменты Средней Азии, Исторические очерки, М., “Музыка”, 1980г.
8	Дмитриев Л.Б.	Основы вокальной методики, М., «Наука» 1968 г.
9	Жуманазаров У	Ўзбек фольклори ва тарихий воқелик, Т., “Фан”, 1991й.
10	Kaykovus	Qobusnoma, Forschadan Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasi. Т.,”Meros”, 1992 у.
11	Кавкабий Н.	Рисолаи мусиқий, Рисола дар баёни дувоздаҳ мақом, Душанбе, “Ирфон”, 1985 й.
12	Каримова Р.	Бухарский танец.Т., “Изд.Лит.исск”, 1977 г.
13	Кароматов Ф	Узбекская инструментальная музыка. Т., “Изд. Лит. ииск.” 1972 г.
14	Karomatov F	O’zbek xalq musiqa merosidan. I kitob, “Qo’shiq”, Т., “Ad.va san’at”, 1978 у.
15	Ковал Л.Г.	Интонирование узбекской традиционной музыки. Т.,”Фан”, 1984 г.
16	Кон Ю.Г.	Некоторые вопросы ладового строения узбекской народной песни и его гармонизации. Т., “Фан”, 1970 г.
17	Koshifiy Xusayn Voiz	Futuvatnomai Sultoniy. Yohud javonmardlik tariqati. "Pandnoma", Fors tilidan N.Komilov tarjimasi. Т., "Meros", 1994 у.
18	Культура Среднего Востока. “Музыкальное-театральное искусство и фольклор”, “Мерос”, 1994 г.	
19	Мазель Л.	О мелодии М., “Музгиз”, 1952 г.
20	Matyoqubov O	O'g'zaki an'anadagi professional musiqa assoslariga kirish, Т., "O'qituvchi", 1983 у.
21	Матёкубов О	Фаробий об основах музыки Востока, Т., “Фан”, 1986 г.
22	Миронов Н.	Песни Ферганы, Бухары и Хивы, Т., “Госизд”, 1931г.

23		Музыка народов Азии и Африки”, вып III. М., ”Сов.комп.” 1980 г.
24	Muhammad Yusuf Devonzoda	Xorazm musiqa tarixchasi. I., 1925 y. (eski o'zbek yozuvida).
25	Переверзев Н.	Проблемы музыкального интонирование, М., “Музыка”, 1966 г.
26	Рагхава Р.Менон	Звуки Индийской музыки. М., “Музгиз”, 1982 г.
27	Rajabov I.	Maqomlar masalasiga doir, T., " Davl.bad.ad., 1963 y.
28	Rajabov I.	Maqom asoslari. O'q.qo'llanma. T., 1992 y.
29	Rajabov Yu.	Musiqa merosimizga bir nazar. T., " Ad.va san, 1979 y.
30	Романовская Е.	Харезмская классическая музыка, Т., 1939 г.
31	Raxmonov M.	O'zbek teatri tarixi. XVIII asrdan XX asr avvaligacha. T., “Fan”, 1968 y.
32	Ручевская Е.	Функция музыкальной темы. Л., «Музыка», 1977 г.
